

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI BUXORO
FILIALI**

Odil ZARIPOV

DINSHUNOSLIK

**SEMINAR MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH BO'YICHA USLUBIY
QO'LLANMA**

BUXORO – 2016

Mazkur metodik qo'llanmada Dinshunoslik fani, uning maqsadi va vazifalari, dinlarning kelib chiqishi, dinning jamiyat va inson hayotidagi o'rni, vazifalari hamda jahon dinlarining tarixi, oqimlarga parchalanishi, shaxsning ma'naviyatiga ta'siri, insonlarni yetuklikka, komillikka yetaklovchi omil ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan. Dinshunoslik darslarida dinlarning kelib chiqish tarixi, mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish uchun maslahatlar berilgan. Ushbu qo'llanma o'qituvchi va bakalavriat bosqich talabalari uchun mo'ljallangan.

Muharrir:

Abdurauf G'afurov

“Ijtimoiy gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Tuzuvchi:

Odil Zaripov

“Ijtimoiy gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasasi o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Ahror Hasanov

“Ijtimoiy gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

Baxtiyor Adizov

Buxoro Davlat Universtiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori, pedagogika fanlar doktori, professor

Ushbu uslubiy qo'llanma «Gidromelioratsiya» fakulteti ilmiy kengashining 4-sentyabr 2016 yilda bo'lib o'tgan 1-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

KIRISH

«Dinshunoslik» kursi oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichiga mo'ljallangan. Kursning asosiy vazifasi oliygoh talabalariga shu sohada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiylik va ob'ektivlik uslubini qo'llab, yoshlarda diniy qarashlar taraqqiyotga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon va e'tiqodni shakllantirishdan iborat. Talaba yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, global fikrlash malakasini hosil qilish, dunyoqarashi va fikrlash qamrovini aqliy-kasbiy salohiyatiga uyg'unlashtirish har birimizning oldimizda turgan vazifamizdir. Hozirgi davrda yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish milliy mafkuraning asosiy g'oyasi va davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. «Biz barpo etayotgan Yangi jamiyat, - deydi I.Karimov,- yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi».¹ Ushbu jihatlarini hal etish ko'proq kadrlar masalasiga borib taqaladi va minglab yuksak ma'naviyatli mutaxassis kadrlar tayyorlanishi ayniqsa bozor munosabatlariga o'tish davrida zarur bo'lib bormoqda. Talaba yoshlarga komil insonga xos axloqiy, ma'naviy fazilatlar, inson kamolotida ilm va bilimning o'zni haqida tushuncha berar ekanmiz, dinning yoshlar tarbiyasidagi o'zni haqida ham to'g'ri axborot berishimiz zarur. Dinning jaholat, aqidaparastlik, o'zgalar fikriga toqatsizlik, ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi kuch ekanligi haqidagi noto'g'ri tasavvurlarga qarshiligi to'g'risidagi ijtimoiy fikrni shakllantirishga, talaba yoshlarda falsafiy-nazariy dunyoqarashni shakllanishiga erishmog'imiz darkor. Chunki dinlar - hoh islom dini, hoh xristian dini bo'lishidan qat'iy nazar insonlarni ezgulikka, poklikka, Vatanga, Yaqinlariga muhabbat va sadoqatga o'rgatadi.

Mazkur qo'llanmada jahon dinlari, ularning kelib chiqish tarixi, ta'limoti va insoniyat tarixidagi o'zni tahlil qilingan. Jahon dinlari xalqlarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Insonlarni axloqiy jihatdan sog'lom, pok, diyonatli bo'lishlikka chaqiruvchi dinlar har doim ta'lim-tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib kelgan. Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tanlagan O'zbekistonda dinning ijtimoiy ahamiyati tiklanib, diniy konfessiyalarning rasmiy faoliyati uchun hamma sharoitlar yaratildi. Millatlar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik va o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni shakllantirishda dinlarning imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Bu esa dinning yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash va dunyoqarashini shakllantirishdagi faol ishtiroki bilan bog'liq.

¹ И. А. Каримов. Миллий истиқлол мафқураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Т.: 2000, 18-бет.

1-MAVZU

Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari

REJA:

1. Dinshunoslik fanining predmeti.
2. Dinshunoslik fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad.
3. Dinshunoslik fanining jamiyatdagi funksiyalari.

Tayanch so'z va iboralar: din, diniy e'tiqod, ijtimoiy ong, dialektika, ijtimoiy borliq, jamiyat, dunyoqarash, kompensatorlik, kommunikativlik, integrativlik.

1. Dinshunoslik fani XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. O'sha davrda olimlar (E.Taylor va b.) tarix, arxeologiya, etnografiya va lingvistika fanlari asosida to'plagan ma'lumotlarga asoslangan holda, dini tabiiy, erdagi sabablar asosida tushuntirdilar. Shuning uchun ham ularning nazariyasi o'z vaqtida progressiv ahamiyatga ega bo'lgan. Talabalarga dinshunoslik fanining vujudga kelishida Markaziy Osiyo mutafakkirlari, XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlarining ta'limotlari nazariy asos bo'lganligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Markaziy Osiyoda xurfikrlilikka xos dastlabki g'oyalar – deizm, panteizm buyuk mutafakkirlar Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyomlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushtning “Ikki haqiqat” ta'limotida olg'a surilgan. XVIII asrda fransuz faylasuflarining dinga, diniy tashkilotlarga munosabati XIX asrda ilmiy dinshunoslik va turli oqimlarni yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan. Talabalarga bir necha maktablarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: XIX asrdagi mifologik maktab namoyondlari (aka-uka Y.A. va V.Grimm, M. Myuller); antropologik maktab namoyondasi (L. Feyerbax). XX asrda dinshunoslik yanada yangi nazariyalar bilan boyigan. Bunda shveysariyalik psixolog K.Yang va fransuz olimi E. Dyurkgeymning “kollektiv ong” haqidagi ta'limoti diqqatga sazovordir.

Dinshunoslik fani dinning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini, uning ta'limotini, vujudga kelishi va shakllanishini o'rganuvchi fandır. Talabalar diqqatini bu fan jamiyat taraqqiyoti jarayonida din bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy hodisalarni – mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, diniy tashkilotlarni talab va tartiblarini o'rganish, tahlil qilish ko'zda tutilganligiga qaratish kerak.

Dinshunoslik fani taraqqiyoti jarayonida ma'lum usullarga asoslanib izlanishlar olib borilgan va bu izlanishlarning natijasida muhim xulosalar shakllangan. Talabalar diqqatini mana shu xulosalarga qaratish maqsadga muvoffiqdir:

- har qanday din ijtimoiy hodisa bo'lib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir;
- diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari ta'sirida shakllanadi;
- ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lgan dinlar evolyusion taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan.

Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limot va ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.

«Din» tushunchasi ifoda etgan ijtimoiy hodisa ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Din so'zi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, ishonch, inonmoq ma'nosini bildiradi. E'tiqod so'zi ham arab tilidan kirib kelgan, chuqur va mustahkam ishonch ma'nosida ishlatiladi. Demak, diniy e'tiqod deganda mustahkam, chuqur ishonch, maslak, ishonish tushuniladi. Din xudoga e'tiqod qo'yish, unga ishonishdir. Aslida “din” so'zi qadimiy somit va yahudiy tillaridan kelib chiqqan. Xristian dinidagi “religiya” so'zi lotin tilidagi “relegere”, “religio” so'zidan olingan bo'lib, e'tiqod qiluvchi kishilar bilan xudoning aloqadorligini bildiradi. Hindlarda dharma (qadimgi oriy tilida dhar – qo'llab quvvatlash, himoya qilish demakdir) – ta'limot, adolat, qonun ma'nosini beruvchi so'z ishlatilgan. Xitoy tilida chiao – ta'limot so'zi “din” ma'nosida ishlatiladi. Hozirgi kunda “din” so'zi muayyan dunyoqarash, his-tuyg'u va marosimlar orqali odamlar, ularning uyushmalari, xalqlar va millatlarning Yaqinlashuvi, ma'naviy-axloqiy hayotdagi hamfikrlilik tushuniladi. Falsafiy nuqtai nazardan din jamiyat, ma'lum bir guruh, individning ma'naviy hayotining bir sohasi; dunyoni tushunushning bir usuli; dunyoqarashning, ma'naviy ishlab chiqarishning va hayotiy faoliyatning bir turi, madaniyatning bir bo'lagi.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir to'g'ri hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Din va jamiyat hayotidagi dialektik aloqadorlikdan din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyil – din sohasida kechayotgan o'zgarisharni xolis va ilmiy o'rganish, bashorat qilish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengrok imkoniyat yaratish, salbiy holatlarni oldini olishdir. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

2. Dinshunoslik fanini o'qitishning asosiy maqsadi oliygoh talabalariga shu sohada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiylik va ob'ektivlik uslubini qo'llab, yoshlarda diniy qarashlar taraqqiyotga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon va e'tiqodni shakllantirishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotga asoslangan xolda dinshunoslik fanining asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalarga din va diniy ta'limotlar, ularning mazmun-mohiyati haqida ham diniy talqinda, ham dunyoviy talqinda bilim berish; dinning ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlari borasida falsafiy fikr yuritish; din va diniy ta'limotlarni o'rganishda ilmiylik, tarixiylik, ob'ektivlik prinsiplariga asoslangan xolda fikr yurita olish malakasi va ko'nikmalarini xosil qilish.
- Xalqimiz madaniyatining ajralmas qismi bo'lmish islom dinining jamiyat hayotida tutgan o'rni, ma'naviyat, san'at va adabiyotimizning rivojiga qo'shgan hissasi, davlatimiz ravnaqiga ijobiy ta'siri, dinimizning markazida yaxshilikka, ezgulikka da'vat turishi, diniy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, axloqiy masalalarga bo'lgan e'tibor kishilarni ezgulik va komillik sari etaklashini o'rganish.
- Talabalarga shu sohada chuqur bilim berish orqali kurs doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiylik va ob'ektivlik uslubini qo'llab, diniy qarashlar taraqqiyotga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan imon va e'tiqodni shakllantirish.
- Talaba yoshlarga dinni niqob qilib olgan turli oqimlarning asl mazmun-mohiyatini, maqsadlarini ochib berish. Diniy fundamentalizm va ekstremizm haqida to'liq ma'lumot berish.

Inson qadri uning ijtimoiy xususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, kamolotga etganligi, ijtimoiy xususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ko'rinishini talaba yoshlar ongiga singdirishimiz darkor. Bugungi kunda ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, barkamol inson – oliy qadriyatdir. Insonni etuklikka, komillik sari bilim, insoniy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar etaklaydi albatta. Har bir diniy ta'limotning markazida esa yaxshilikka, ezgulikka da'vat turadi, diniy qadriyatlar va umuminsoniy qadriyatlarning mushtarakligi, axloqiy masalalarga bo'lgan e'tibor kishilarni ezgulik va komillik sari etaklaydi.

3. Jamiyat shakllanishining dastlabki davrlarida paydo bo'lgan din xalqlar hayoti bilan bog'liq holda rivojlab, davrga moslashib, diniy tizimni vujudga keltirgan. Natijada ma'lum ijtimoiy-siyosiy va madaniy-axloqiy vazifalarni bajarishni o'z zimmasiga olgan. Bunday vazifalar jamiyat taraqqiyotining yuqori bosqichlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Avvalo din dunyoqarashlik vazifasini bajaradi. Shu bilan birga dinning jamiyatda ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalari mavjuddir.

Dinning asosiy vazifalari haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish maqsadga muvoffiqdir.


Har qanday din o'z homiylari uchun quyidagi vazifalarni bajaradi:

- to'ldiruvchi va ovutuvchi (kompensatorlik);
- birlashtiruvchilik (integrativlik);
- dindorlar hayotini tartibga solish va nazorat qilish (regulyativlik);
- jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat – aloqa bog'lashlik (komunikativlik);

- Qonunlashtiruvchilik (legitimizatsiya) funksiyasi – dinning bu funksiyasining nazariy asosini yirik amerikalik sotsiolog T. Parsons ishlab chiqdi. Uning fikricha, «har qanday ijtimoiy sistema muayyan cheklovlarsiz mavjud bo’la olmaydi. Buning uchun u qonun darajasiga ko’tarilgan axloq normalarini ishlab chiqishi kerak. Din bunday normalarni qonunlashtiribgina qolmay, ularga bo’lgan munosabatni ham belgilaydi».

Bulardan tashqari dinning:

- falsafiy vazifasi insonning yashashdan maqsadi, hayotning mazmuni, dorulfano, dorulbaqo – dunyo haqidagi masalalarga o’z munosabatini bildirishdan iborat;
- dunyoqarashlik vazifasi – kishilarda o’ziga xos diniy dunyoqarashni shakllantiradi.



Diniy dunyoqarashning shakllanishi tadrijiy va jiddiy jarayon bo’lib, o’z ichiga ibtidoiy din shakllaridan tortib milliy va jahon dinlarini qamrab oladi. Dinlar unga e’tiqod qiluvchilar soni, o’zining ma’lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko’ra turli guruhlariga bo’linadi. Bu haqida talabalarga etarli ma’lumot berish zarur.

1. Ibtidoiy (urug’-qabila) dinlari – fetishizm, totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o’z urug’idan chiqqan sehergar, shamon yoki qabila boshliqlariga sig’inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan. Hozirgi Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba’zi qabilalarda saqlanib qolgan:

2. **Milliy dinlar** – ma’lum millatga xos bo’lib, boshqa millat vakillarini o’ziga qabul qilmaydigan dinlar. Masalan, Yahudiylik (Yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), Konfutsiylik (xitoy millatiga xos), Sintoizm (yaponlarga xos).

3. **Jahon dinlari** – dunyoda eng ko’p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat’iy nazar unga e’tiqod qilishlari mumkin bo’lgan dinlar. Buddaviylik, xristianlik va islom dini kiradi.

Bundan tashqari dinlar ta’limotiga ko’ra monoteistik – yakkaxudolik (Yahudiylik, islom) va politeistik – ko’pxudolik (hinduizm, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo’linadi.

Talabaning diqqatini ibtidoiy din shakllaridan tortib urug’-qabila, milliy va jahon dinlarining paydo bo’lishi, rivojlanishining ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlari mavjud ekanligiga qaratish zarur.

- Dinning ijtimoiy ildizi – ijtimoiy ehtiyojlar va insonlarni tabiatga, jamiyatga, bir-biriga bo’lgan munosabati bilan bog’liq sabablar yig’indisidir.
- Dinning gnoseologik ildizi – dunyoni, odamning o’z-o’zini bilish sohasi, mavhum tafakkurning taraqqiyoti bilan bog’liq sabablar.
- Dinning psixologik ildizi – diniy tushunchalar, tasavvurlari bilan bog’liq kishilarning ruhiy holatlari, kayfiyatlari, his-tuyg’ulari.

E’tiqod (arabcha – i’taqa) ishonch, imonli bo’lish ma’nolarini anglatadi. Keng ma’noda e’tiqod inson faoliyati uchun ma’naviy asos, yo’l-yo’riq bo’lib, aql va iroda vositasida anglangan bilim, g’oya va shu asosda shakllanadigan maqsadlar majmuini hamda ularning to’g’riligiga ishonch bilan bog’liq bo’lgan psixologik holatni ifodalaydi.

Milliy istiqloq va ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyot inson qadri, uning manfaatlari va ehtiyojlari bilan bog’liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Talaba yoshlarni yuksak ma’naviyatli shaxs qilib tarbiyalash, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, global fikrlash malakasini hosil qilish, dunyoqarashi va fikrlash qamrovini aqliy-kasbiy salohiyatiga uyg’unlashtirish asosiy vazifamizdir. Bu vazifani bajarishda esa diniy ta’limotlarning ijobiy ta’siri salmoqlidir. Din bag’rida shakllangan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning vujudga kelish sabablari, ularning kishilarga ijobiy ta’sirchanlik masalalarini ilmiy jihatdan o’rganish va bu ma’naviy-axloqiy qadriyatlardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo’lmoqda.

Mavzu bo’yicha savollar:

1. Dinshunoslik fanining predmeti nimani o’rganadi?
2. Mazkur kursning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Dinning jamiyatda va inson hayotida qanday vazifalarni bajaradi?
4. Dinning paydo bo’lishi va rivojlanishining ilmiy asoslarini o’rganishning qanday metodlari mavjud?
5. Dinshunoslik kursining amaliy ahamiyati nimalardan iborat?
6. Dinning ta’rifini aytib bering.
7. Dinlarning kelib chiqishi va mavjudligining qanday sabablari bor?
8. E’tiqod deganda nimani tushunasiz?

9. Dinning shakllari haqida ma'lumot bering.

2-MAVZU DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI

REJA:

1. Diniy ong asoslarining shakllanishi.
2. Urug'-qabila dinlarining shakllari.
3. Markaziy Osiyodagi qadimgi aholining diniy tasavvurlari.

Tayanch so'z va iboralar: diniy ong, diniy tasavvurlar, diniy munosabatlar, diniy psixologiya, fetish, fetishizm, animizm, totem, totemizm, shamanizm, sehrgarlik, tabu, urvan, xaoma, fravashi.

1. Talabalar diqqatini din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mavjudligi ham ijtimoiy borliq bilan belgilanishiga qaratmog'imiz lozim. Ijtimoiy borliq, bir tomondan, jamiyat bilan tabiat orasidagi birlikni, ikkinchi tomondan, jamiyatdagi kishilar orasidagi o'zaro munosabatni qamrab oladi. Din ijtimoiy ong sifatida ana shu vaziyatning muayyan ko'rinishlarining in'ikosidir. Shunday ekan, din jamiyat hayotiga, insonlar va jamiyat munosabatlariga, insonlararo munosabatlarga katta ta'sir o'tkazadi.

Din bu muayyan dunyoqarash, ya'ni his-tuyg'u va marosimlar orqali odamlar, ularning uyushmalari, xalqlar va millatlarining Yaqinlashuvi, ma'naviy-axloqiy hayotdagi hamfikrlilik demakdir. Din qaysidir ma'noda "axloq yo'lidir". Diniy imon va e'tiqod ana shu qo'lning to'g'riligi, haqligiga ishonchdan iborat ma'naviy-ruhiy holatdir. Dindor o'z tasavvurida o'zining toat-ibodatga oid harakatlari orqali ilohiy kuch bilan aloqa, bevosita bog'lanish o'rnatadi.

Talabalarga dinning elementlari (unsurlari) haqida to'liq va aniq ma'lumot berish maqsadga muvoffiqdir. **Din diniy ong, diniy faoliyat va diniy tashkilotlar faoliyati orqali namoyon bo'lganligi uchun ular dinning elementlari deb ataladi.**

Dinning tarkibiy qismlari orasida **diniy ong** etakchi o'rin egallaydi. Diniy ong bir-biri bilan bog'liq, bir-biriga nisbatan muayyan darajada mustaqil bo'lgan **diniy mafkura** va **diniy ruhiyatdan** iborat.

Diniy mafkuraning vujudga kelishi va shakllanishi sinfiy jamiyatda ro'y bergan aqliy mehnatni jismoniy mehnatdan ajralishi, buning natijasida vujudga kelgan dastlab qohinlar, keyinchalik ruhoniylar faoliyatlari bilan bog'liq. Ular o'z g'oyaviy faoliyatlarida diniy mafkurani yaratadilar va buni asoslash, targ'ib qilish bilan shug'ullanadilar. Diniy tasavvurlar, ta'limotlar, toat-ibodatlar diniy mafkuraning asosini tashkil etadi. Diniy marosimlar, diniy psixologiya, diniy birlashmalar esa diniy tasavvurlarni mustahkamlaydi.

Diniy psixologiya – ruhiy holat diniy mafkuradan ancha oldin vujudga kelgan. U dindorlarning his-tuyg'ulari bilan bog'liq odatlari, kayfiyatlaridan tashkil topadi. Diniy mafkura diniy ruhiy holatni g'oyalar bilan mustahkamlasa, diniy ruhiy holat


esa diniy mafkurani his-tuyg'ular, odatlar bilan chuqurlashtiradi. Diniy mafkura hamma vaqt ham diniy ruhiy holatlar bilan to'la mos kelavermaydi.

Talaba yoshlarga din, uning tarkibiy qismlari, diniy ong darajalarini bilishning ilmiy, amaliy ahamiyati kishilar hayotidagi diniy va diniy bo'lmagan harakatlarni bir-biridan farqlash, ularga alohida-alohida yondashish imkonini berishi haqida ma'lumot berishimiz lozim.

2. Talabalarga itidoiy din shakllari haqida ma'lumot berar ekanmiz, avvalo ibtidoiy odamning o'ziga xos xususiyatlari, yashash sharoiti va turmush tarzi haqida batafsil to'xtadib o'tishimiz lozim. Ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohalari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Bu uning hayoti va faoliyati, fe'l-atvorigagina emas, balki, uning fikrlash darajasi, kuchli hayajonlanishi, tasavvur etishi, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatdi. U ibtidoiy bo'lsa-da aqlli, fikr yurituvchi, ma'lum mushohadaga qobiliyatli, konkret holatda fikr yurita oladigan, doimiy faoliyatida vujudga kelgan amaliy tajribalarga ega bo'lgan odam edi. Bunday tahlil nimaga asoslangan? Bilim miqdorining nihoyatda ozligi va uni doimiy takomillashib borishi, oldinda turgan hayotdan qo'rquv va uni engishga bo'lgan intilish, amaliy tajribaning uzluksiz ortib borishi, tabiat kuchlariga mutlaq tobelik va undan qutilishga tirishish, atrof-muhitga injiqliklari va ularni engish va h.k. – bularning barchasi shunga olib bordiki, uning ilk qadamidan nafaqat mantiqiy talabchanlik, balki hissiy-ijtimoiy, xayoliy-fantastik munosabatlar kelib chiqdi.

Ibtidoiy (urug'-qabila) dinlari – fetishizm, totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrigar, shamon yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan. Hozirgi Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan:

IBTIDOIY DIN SHAKLLARI



Totemizm – «ototem» so'zi Shimoliy Amerika indeetslarining Ojibve qabilasi tilida «uning urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki

o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlariga tasdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraliya aborijenlari orasidan bu xususda afsonalar saqlanib qolgan.

Urug'dosh jamiyatning shakllanishida jarayonida totemizm muhim rol o'ynagan, ayniqsa, qarindosh guruhlarning boshqalardan ajralishiga, «o'zimizniki», ya'ni «bir totemga tegishli» degan aniq taassurot paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Totemizm ta'sirida paydo bo'lgan urf-odatlar va me'yorlar asrlar davomida qat'iy ravishda qo'llanildi. Ayni totemga xos bo'lmagan begonalar bu jamoa urf-odati va me'yorlaridan chetda hisoblangan. Totemizmning bunday ijtimoiy roli tabiiyki, totemistik ko'rinishlarning evolyusion xarakteriga ham ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Vaqt o'tishi bilan qarindoshlik tizimining mustahkamlanib borishi jarayonida birinchi darajali totem tartibi haqida tasavvur ilgari surildi. Zooantropomorf ko'rinishi bilan aralashgan holda odam bilan uning totemi qarindoshligi orasida oilaviy munosabatlar, ya'ni odam vafot etgach uning o'z totemiga aylanishi yoki, aksincha, qayta inson shakliga kelishi haqidagi tasavvurlar paydo bo'ldi. Shunday qilib, totemizm urug'chilik jamoasida diniy ko'rinishlarning tarixiy asosi bo'lib qoldi.

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida totemizmning asosiy vazifalari, yuqorida aytib o'tilganidek birlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik edi. Totemizm diniy shakllarning dastlabkisi sanalsa-da, hozirda ham ko'plab xalqlarning urf-odatlarida, e'tiqodlarida uning unsurlari saqlanib qolgan (masalan, Hindistonda sigir, Avstraliyada kenguru, qirg'izlarda oq bug'u afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanadi).

Animizm (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi). Animizm – ruhlar mavjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri. Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllanganicha vujudga kelgandir.

Animizm totemizmdan farqli jihatlari haqida talabalarga aniq ma'lumot berish lozim. Albatta, totemizm ma'lum bir oilaviy guruhning ichki iste'moliga, uni boshqalardan farqlash maqsadiga yo'naltirilgan bo'lsa, animistik tasavvurlar keng va umumiy xarakterga ega. Ular hammaga tushunarli va ma'qul bo'lgan. Shu bilan birga u tabiatning qudratli kuchlarini – osmon va er, quyosh va oy, yomg'ir va shamol, momoqaldiroq va chaqmoq kabilarni ilohiylashtirib, ularda ruh mavjud deb bilar edi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar nafaqat tabiatning buyuk mavjudliklarini, balki reliefning ayrim alohida qismlari – tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam

e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'lar edilar. Shunday bo'lgach, har qanday voqea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish taqazo etilgan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan.

Animizm zamonaviy dinlarning barchasida asosiy aqidaviy qismni tashkil etadi. Jumladan, jahon dinlari sanalmish buddizm, xristianlik va islomda ham ruhlar haqidagi ta'limot mavjud.

Shamanizm («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nosi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituellar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtda paydo bo'lib, unga ko'ra uning vositasida kishilar o'z **totemlari**, ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlari bilan maxsus odamlar – shamanlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'p o'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu niyatlarini ruhlarga etkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'li bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga etish bilan afsungarlik qilishgan.

Sehrgarlik marosimlari ikki usul: yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshiriladi edi. Afsungarlik maqsadga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: 1) zarar keltiruvchi – yovuz afsungarlik. Bundan kimgadir zarar etkazish niyat qilinadi; 2) harbiy afsungarlik. Bunday afsungarlik dushmanga qarshi qo'llaniladi (masalan, qurol aslahalarni sehrlash); 3) sevgi afsungarligi, boshqacha aytganda, «issiq» yoki «sovuq» qilish; 4) tibbiy afsungarlik. Davolashda ishlatiladi; 5) ob-havo afsungarligi. Bu sehrgarlik turidan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash ob-havoni o'zgartirish maqsadlarda foydalanilgan. Sehrgarlik hozirda ham mavjud dinlarda, turli xalqlar urf-odatlarida saqlanib qolgan.

Fetishizm («fetish» so'zi fr. fétiche – «but», «sanam», «tumor» ma'nosidagi so'zni anglatadi). Mohiyati tabiatdagi jonsiz predmetlarga sig'inishdir. Unga ko'ra alohida buyumlar kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarni o'zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobiy, ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'lishi bilan bir paytda shakllangan. Bu butlarda va tumorlarda jamoalar g'ayritabiiy dunyodan keladigan ilohiy qudratning timsolini ko'rdilar.

Bunday **fetishga** odatda afsungarlar, shamanlar ega edilar. Ular afsungarlik yo'li bilan buyumlarga ta'sir ko'rsatganlar. Ibtidoiy odamlarning dastlabki diniy taassurotlari umumiy majmuasining shakllanish jarayonida fetishizm yakunlovchi bosqich bo'lib qoldi. Haqiqatda, ajdodlarni va tabiatni jonlantirish bilan bog'liq bo'lgan animizm, turli **totemlar** hamda o'lib ketgan avlodlar shaxsiga bog'liq

totemizm orqali ibtidoiy odamlar ongida real buyumlar bilan birga ilohiy va xayolot dunyosi borligi haqidagi tushuncha paydo bo'ldi. Natijada ularning ongida afsonaviy fikr yuritish qobiliyati mustahkamlandi. Va, nihoyat, **fetishlarning** paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, afsonaviy qudrat faqatgina vaqt va bo'shliqda ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lib qolmasdan, balki voqeyiy dunyodagi buyumlarda ham mavjud bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, urug'chilik jamiyatining tashkil topish jarayonida ibtidoiy odamlarning ongida dastlabki diniy ko'rinishlarning keng, aniq, tartibli majmuasi ishlab chiqildi. Demakki, diniy tasavvurlar odam hayotining bo'linmas, hattoki asosiy qismi bo'lib qoldi. Jamiyat va tabiat qonunlarini, albatta, o'sha dunyo kuchlari boshqaradi. Shuning uchun jamoa yaxshi yashayman desa, ozuqalar bilan ta'minlangan, kimningdir tomonidan himoyalangan bo'lishni istasa, birinchi vazifasi u o'sha g'ayritabiiy kuchlarni juda ham hurmat qilishi kerak edi. Dunyo haqidagi bu tasavvurlar vaqt o'tishi bilan takomillashib bordi va insoniyat hayotida uzoq vaqt o'z ta'sirini o'tkazib keldi.

Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va e'tiqodlarida saqlanib qolgan. Masalan, turli haykallar, suratlar, tumor, ko'zmunchoq va turli ramzlar bunga yorqin misoldir.

3. Markaziy Osiyo xalqlarining shakllanishi tarixining murakkab va o'ziga xos tomonlari mavjuddir. Bu hudud xalqlarining dastlabki manzilgohlari Farg'ona vodiysi tosh davrida – eramizgacha bo'lgan 1 mln.- 500 minginchi yillarda vujudga kela boshlagan. Quyi paleolit davridayoq bu erlarda (Teshiktosh, Sherobod va bosh.) ma'naviy madaniyatni shakllanganliginiifoda etuvchi qoyalarga o'yib tasvirlangan rasmlar, xaykaltaroshlik paydo bo'la boshlaydi. Inson, o'simlik va hayvonlarning ramziy ifodalarini hayoliy tarzda o'zaro biriktirgan, uyg'unlashtirgan bu badiiy asarlar voqelikni inson tomonidan haqiqiy va hayoliy o'zlashtirishni o'zida ifoda etish bilan birga diniy qarashlarni ham vujudga kela boshlaganini ham bildiradi.

Neolit davrida “muqaddas” hayvonlarga, ona–xudoga bag'ishlangan haykallar, toat-ibodatlar, diniy marosimlar bilan bog'liq buyumlar paydo bo'la boshlaydi.

Talabalarga sinkretizm tushunchasi haqida ma'lumot berish maqsadga muvoffiqdir. Sinkretizm – yunon tilidan olingan so'z bo'lib, hodisalarning dastlabki, bir-biridan ajralmagan, qorishiq holatini anglatadi. Sinkretizm qadimgi odamlarning tafakkurini ham uzluksizlik va uzluksizlik tabiatini, uni aniq buyum va narsalar orqali ifoda etilishini ham bildiradi. Totemistik, animistik diniy qarashlar shular jumlasidandir.

Dinning qadimgi shakllariga ona xudo – **Onaxit** bilan bog'liq tasavvurlar ham kiradi. Ona xudo hosildorlikning, mo'l-ko'lchilikning ramziy ifodasi, oila o'chog'ining, yosh avlodning homiysi ham hisoblangan. O'zbeklardagi Anbar ona, qirg'izlardagi Umon enelar shular jumlasiga mansubdir.

Insoniyat tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ishlar: jumladan tug'ilish, ozuqa topish, ov qilish, o'z

xavfsizligini ta'minlash, dafn marosimi kabilar turli diniy tasavvur va e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lganligini ko'ramiz.

Ota bobolar ruhlariga sig'inish, ilohiy kuchlarga bir tomondan ishonchning oshishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan **totemga** bo'lgan munosabatlarning o'zgarishi, misol uchun **totemni** ozuqa sifatida iste'mol qilishni taqiqlanishiga olib keldi. **Tabu** (ta'qiqlash) tizimi paydo bo'ldi. Bunda eng muhimi totemni ovqat sifatida iste'mol qilishni taqiqlash edi. Faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliqlarigagina totemni eyishga ruxsat etilardi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Diniy ong asoslarining shakllanishini aytib bering.
2. Dinning qanday ibtidoiy shakllarini bilasiz?
3. Dinning paydo bo'lishi haqida tadqiqotchilar qanday fikrlar bildirishgan?
4. Fetishizm nima?
5. Animizm qanday e'tiqodga asoslanadi?
6. Shamanizm deganda nimani tushunasiz?
7. Totemizm deganda nimani tushunasiz?


3-MAVZU MILLIY DINLAR

REJA:

1. Yahudiylikning vujudga kelishi va uning ta'limoti.
2. Veda va veda dinlari.
3. Konfutsiylik va daosizm.

Tayanch so'z va iboralar: Tavrot, Yaxve, Muso, Farziylar, messiya, Talmud, veda, Braxma, Vishnu, Shiva, braxmanlik, Konfutsiy, Osmon xudosi.

Milliy dinlar – ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillarini o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Masalan, Yahudiylik (Yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), Konfutsiylik (xitoy millatiga xos), Sintoizm (yaponlarga xos).



1. Talabalarga milliy dinlarning orasidagi eng qadimiy din hisoblangan Yahudiylik dini haqida to'liq ma'lumot berilsa maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Yahudiylilik dunyoda keng tarqalgan dinlardan biridir. Shu kunda Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 %), AQSHda 6 mln. (40 % Nyu Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G'arbiy Evropa davlatlaridan Fransiyada 0,6 mln., Buyuk Britaniyada 0,4 mln. va boshqa mamlakatlarda Yahudiylar yashaydilar.

Avvalo talabalarga bu dinning paydo bo'lishihaqida ma'lumot berish darkor. Yahudiylilik miloddan avvalgi 2000 yillarning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylilik millat dini bo'lib, faqatgina Yahudiy xalqiga xos. **Yahudiy** so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yozishicha, Yahudiylar bu so'zni somiy tillaridagi **hoda** – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan deb da'vo qilsalar-da, aslida bu fikr noto'g'ri, «Yahudiy» so'zi Banu Isroil xalqi ustidan hukmronlik qilgan Ya'qub Payg'ambarning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil bo'lib, **Isroil** – Ya'qub payg'ambarning ikkinchi ismi, **banu** – «bolalar» ma'nosini beradi, ya'ni – «Isroil avlodlari».

Yahudiy xalqiga nisbatan ishlatiladigan yana bir atama **Yevrey** so'zi zamonaviy adabiyotlarda «Yahudiy» so'zining aynan tarjimasida ishlatiladi. Ammo bu ikki so'zning etimologiyasi turlicha: **yevrey** qadimiy somiy tillardagi **ibriy** so'zining o'zgargan shaklidir. **Ibriy** so'zi (arab. '**abara-ya'buru** – «kechib o'tmoq» fe'lidan) «kechib o'tganlar» ma'nosini beradi. Tarixdan ma'lumki, Yahudiy qabilalari Urdun (Iordan) daryosini kechib, hozirgi Falastin hududiga kelganlar. Shuning uchun ularga **ibriylar** yoki **ibroniylar** («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan.

Yahudiylilik ta'limoti: Yahudiylilik ta'limoti to'rt asosga tayanadi

1. Olamlarni yaratuvchi Yagona xudo – Yahvega imon keltirish. Yahve so'zi «rabb, parvardigor» ma'nosini bildiradi. Tavrotning «Chiqish» kitobida Xudoning Musoga aytgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Is'hoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi» (Chiqish: 3). Mil. av. VI asr oxirlarida Yahudiy ruhoniylari oddiy xalq hurmatini pasaytirib qo'ymasliklari uchun Yahve so'zini ishlatishni man etib, uning o'rniga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llashni buyurganlar. SHundan so'ng faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishlariga ijozat berilgan. Yahudiylilik ta'limotiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatdi, shanba kuni esa dam oldi va Yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shu sabab Yahudiylilik dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech bir ishga qo'l urilmaydi.
2. Yahudiylar er yuzidagi xalqlarning «eng mumtozi» va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqlisi» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan, muqaddas xalq ekanini, Yahudiyning ruhi Xudoning bir qismi hisoblanishini da'vo qiladilar.


3. Messiya – xaloskorning kelishi haqida. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve Yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyoni isloh qilgan holda qaytadan quradi; 2) butun Yahudiylarni *Sinion* atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.
4. Oxirat kuniga ishonish. Yahudiylikda oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra, Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlarini buzganlar shafqatsiz jazo oladilar.

Yahudiylik ta'limoti bo'yicha Muso payg'ambar Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda Yagona Xudo tomonidan 10 ta lavha tushirilgan. Ushbu lavhalarda mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Bu nasihatlar Tavrotning «Ikkinchi qonun» kitobidan o'rin olgan bo'lib, Yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart. Ular quyidagilardir:

1. Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik;
2. But, sanam va rasmlarga sig'inmaslik;
3. Bekordan-bekorga Xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
4. Shanba kunini hurmat qilish va uni Xudo uchun bag'ishlash;
5. Ota-onani hurmat qilish;
6. Nohaq odam o'ldirmaslik;
7. Zino qilmaslik;
8. O'g'rilik qilmaslik;
9. Yolg'on guvohlik bermaslik;
10. Yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.

Yahudiylarning muqaddas diniy manbalaridan hisoblangan Talmudda Yahudiylik marosimlari tizimi ishlab chiqilgan. Unda Yahudiylar amal qilishi va bajarishi lozim bo'lgan 248 ta buyruq, 365 ta taqiq mavjud. Ular Yahudiyning ovqatlanishi, kiyinishi, ozodaligi, kun tartibi, ibodatlar, marosimlar va bayramlariga taalluqli masalalarni o'z ichiga oladi.

Talabalar diqqatini Yahudiylikning manbalariga qaratsak maqsadga muvoffiq bo'ladi. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqaddas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'lib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroil xalqini Misrdan olib chiqib ketilishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot; Torah of Moses; Totah shebikhtav, mil. avv. 11-6 asrlar o'rtasida shakllangan), ikkinchisi Tavrotdan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddir (3-6 asrlarda shakllangan). Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba xristian Bibliyasining tarkibiy qismlarini (aynan emas) tashkil etadi.



Xristianlar va Yahudiylar **Bibliya** so'zini turli tushunadilar. Yahudiylar uchun **Ibriy Bibliyasi** (Hebrew Bible) xristianlarning **Qadimiy Ahd**i (Old Testament). Yahudiylar **Bibliya** so'zi ostida ko'pincha o'zlarining **Tanaxlarini** (Tanakh) tushunadilar. Musoga tegishli bo'lgan besh kitob «Tavrot» deb ataladi va quyidagi kitoblarga bo'linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levit»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchi qonun».

Qadimiy Ahdning ichidagi diniy ta'limot va aqidaga bag'ishlangan eng asosiy va obro'li qismi Tavrotdir. U xristianlik an'anasiga ko'ra «Besh kitob», Yahudiylar an'anasiga ko'ra «Tora» (ta'limot) hisoblanadi.

Qadimiy Ahddagi «ahd» so'zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. **Qadimiy Ahd** matni ibriy (eski Yahudiy) va oromiy tillarida yozilgan. U qadimgi payg'ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon payg'ambarning matallari (Nevi'im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroil xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

«**Ibtido**» mil. av. 1400 yillarda Xudoning buyrug'iga ko'ra, Muso payg'ambar tomonidan yozib olingan. Unda Xudo olamni qay yo'sinda yaratgani, odamzotning gunohga botgani, buning natijasida olamga azob va o'lim kelishi haqida xabar beriladi. Shuningdek, unda dunyodagi xalqlarning vujudga kelishi va jahonga tarqalishi tarixi bayon qilingan. Odam Ato va Momo Havvo, Hobil va Qobil, Nuh, Lut, Ibrohim, Ishoq, Ismoil, Ya'qub, Yusuf, Fir'avn va boshqa shaxslar, To'fon, Bobil minorasi va tillar chatishuvi, Sadom va Hamoraning xarob bo'lishi singari eng qadimiy hodisalar ham **Ibtidodan** o'rin olgan.

«**Chiqish**» kitobida Muso payg'ambarning tug'ilishi, hayoti, Misr Fir'avni tomonidan qattiq zulmga tortilgan Yahudiylarni Yahve amri bilan xalos qilgani, unga Tur tog'ida Yahve tomonidan o'nta "vasiyat" (zapoved)ning berilishi haqidagi rivoyatlar keladi. Bundan tashqari Yahudiylikning ibodatlari, rasm-rusmlariga taalluqli ko'rsatmalar berilgan.

«**Levit**» (Loviy) kitobi turli tuman urf-odat va diniy marosimlarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Unda, asosan, qurbonlik haqida so'z yuritilib, Xudo yo'lga qanday hayvonni qurbonlik qilish yoxud, qay tarzda amalga oshirish lozimligi bayon qilingan. SHuningdek, Yahudiy xalqiga hayvon va parrandalardan qaysilarining go'shtini eyish mumkin va qaysilarini eyish ta'qiqlangani hamda boshqa turli hayotiy masalalar yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

«**Sonlar**» kitobiga ko'ra Yahudiy xalqining Muso payg'ambar boshchiligidagi Misrdan chiqishining ikkinchi kuni ularga urushga yaroqlik barcha erkaklarning hisobini olishga buyurdi. Bu kitobda Muso payg'ambar rahbarligidagi Yahudiylarning qabila, urug', avlodlar bo'yicha asosiy namoyandalarining nomlari sanab o'tiladi. Yana, unda Misrdan chiqqan Banu Isroil qavmining Muso payg'ambar bilan kechirgan hayotlari va tortgan qiyinchiliklari va olib borgan janglari haqida so'z boradi. Yahve Musoga janglarda qo'lga kiritilgan o'lja va asirlarning hisobini olish va ularni qanday taqsimlash borasida ko'rsatmalar beradi.

«**Ikkinchi qonun**» kitobi 34 bobdan iborat. 27, 31, 34-boblardan tashqari qolgan qismlari birinchi shaxs nomidan yozilgan. Bibliyada keltirilgan rivoyatga

ko'ra, birinchi avliyo Xilkiya nomli shaxs Iosiya podshohligining 18 yilida, ya'ni mil.av. 621 yilda Quddus (Ierusalim) ibodatxonasida Qonun kitobini topgan. «Ikkinchi qonun»ning asosi ana shu Qonun kitobi hisoblanadi.

Talabalarga Yahudiylik dini haqida ma'lumot berar ekanmiz, bu din eng qadimgi monoteistik dinlardan biri bo'lishi bilan birga, jahon dinlari bo'lmish xristianlik va islom dinlari vujudga kelishi va ta'limotining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan din ekanligi haqida to'xtalib o'tishimiz lozim.


Yahudiylar falastindan Assuriya quvg'inlari paytida – mil. avv. VIII-VI asrlarda Eronga ko'chib kela boshlaganlar. Erondan O'rta Osiyoga esa taxminan mil. avv. V-III asrlarida ko'chib kelgan. Samarqand va Buxoroda Yahudiylik diniga e'tiqod qiluvchi Yahudiylar yashay boshlaganlar.

Markaziy Osiyoda yashayotgan (hozirgi kunda kam qolgan) Yahudiy dindorlari orasida asosan ortodoksal shakldagi iudizm mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibiga muvofiqto'rt xil: evropalik, buxoro, gruzin, tog'li yoki tat Yahudiyilariga bo'linadi².

2. Talabalarning diqqatini Hindiston xalqining boy madaniyatiga qaratib, uning eng qadimgi muqaddas bitiklari va ular bilan bog'liq dinlar, ularning shakllanishi haqida atroflicha ma'lumot bermog'imiz lozim. Mil. av. ikkinchi ming yillik o'rtalarida Hindistonning shimoli-g'arbiy qismiga, hozirgi Panjob hududiga g'arbdan Hindikush dovoni orqali o'zlarini *oriylar* deb atalgan jangari xalqlar bostirib kela boshladilar. Bu xalqlar Eronga ko'chib kelgan qo'shni qabila tillariga juda Yaqin bo'lgan, hind-evropa tillaridan kelib chiqqan tilda gaplashar edilar. Harbiy jihatdan katta mahoratga ega bo'lishlari bilan birga she'riyatga ham usta edilar. SHu yo'l bilan ular bu mintaqada mavjud dunyoqarashni o'zlari xohlagan tarafdagi o'zgartira oldilar. Ular o'zlari bilan muqaddas yozuvlari – **Vedalar** (sansk. – *muqaddas bilim*)ni ham olib kelgan edilar.

Hind adabiyoti juda boy, uch yarim ming yildan ortiq tarixga ega va bu adabiyotning boshlanishi Vedalardir. Vedalar doimo asos-manba bo'lib qolaveradi. Rigveda o'z sohasida nafaqat eng ko'zga ko'ringan kitob, balki Hindistonning o'sha davr voqealari haqida xabar beruvchi noyob manba hamdir.

Vedalar tarkibiga turli davrlarda yozilgan bir necha kitoblar kirgan bo'lib, ular o'z ichiga ibodat, marosimlar, falsafiy ta'limotlar, tarixiy xabarlarini olgan edi. Vedalar to'rt yirik to'plamdan iborat:



² Каранг: Диншунослик асослари. Т.: «Ўзбекистон», 1995, 48-бет.

Rigveda. Rigveda – «madhiyalar vedasi» ma'nolarini beradi. Veda o'sha davrda yashagan insonning o'zi va uni o'rab turgan olam: xudolar, jin-shaytonlar, fazo, marosimlar, ijtimoiy tuzum, milliy qadriyatlar va boshqalar haqidagi bilimning barchasini o'z ichiga oladi. Rigveda xudolarga aytilgan madhiyalarning to'plami, ya'ni, diniy yodgorlik bo'lib, uning mualliflari, *rishi* kuylovchilarning asosiy vazifalari xudolarni **oriylar tomoniga** og'dirish bo'lgan. Ular madhiyalarni kuylab xudolarni maqtaganlar, ularning qahramonlik va sharaflarini ulug'laganlar, ularni qurbonlik keltirish marosimlariga taklif etganlar va shundan so'ng ulardan **oriylarni** qo'llab-quvvatlash hamda hayot farog'atlarini ato etishlarini so'rganlar. Xudolarga ta'cir etishning eng asosiy yo'li – ularga madhiya aytish bo'lgan. Rigveda qadimgi yunon dostonlari «Iliada» va «Odissey»ning birgalikdagi umumiy hajmiga teng keladi.

Samaveda. Boshqa vedalar orasida Rigvedaga ko'proq bog'liq bo'lgani bu Samavedadir. U hozirgi davrga ikki tahrirda etib kelgan (çākhā aynan. shahobcha): Kautxuma (Kauthuma) va Ranayaniya (Rānāyaniya). Kautxuma to'plami 1810 she'rdan iborat bo'lib, undan faqatgina 76 tasi Rigvedada uchramaydi. Undagi she'rlar, asosan, Rigvedaning VIII va IX mandalasidan olingan bo'lib, tantanali qurbonlik marosimi paytida o'qiladi. To'plam ikki qismdan iborat: birinchi kichikroq bo'lgan hajmi Agni, Indra ilohiyatlariga, ikkinchisi Somaga qurbonlik keltirish marosimida aytiladigan qo'shiqlardan iborat. Hindistonda hozirgacha vedalarni kuyga solib kuylovchilar – **samavedinalar** saqlangan bo'lib, ularning turli maktablari mavjud. Keyingi paytlarda qadimiy musiqiy an'ananing davomi deb da'vo qilinayotgan zamonaviy ijro san'atini o'rganish bo'yicha ko'p ishlar qilindi.

Yajurveda qolgan vedalardan farqli o'laroq, to'laligicha **shrouta** (qurbonlik marosimi) bilan bog'liq. Uning asosiy qismini qurbonlik usullari – **yajus** tashkil qiladi. Mazkur yajuslar marosimning ma'lum bo'limlarida ijro etilib, bu she'rlarni marosimning borishidan kelib chiqib tushunish mumkin.

Yajurvedaning tarkibi uch asosiy bosqichni tashkil etadi. I. Marosim. II. Yajus va mantralar. III. Braxmana sharhlari.

Atxarvaveda mil. av. 1-ming yilliklar boshlariga borib taqaladigan qadimiy hind afsunlarini o'zida aks ettirgan. U boshqa vedalardan mazmun va mohiyat jihatdan farqli o'laroq, o'zining qadimiy hind jamiyatida mavjud bo'lgan barcha taraflarni, nuqson va kamchiliklarni o'zida aks ettirgan.

Atxarvaveda «Afsunlar va jodular vedasi» degan ma'nolarni anglatadi. U afsonaviy ruhoniy Atxarvana («Olov ruhoniysi») nomi bilan bog'liq. Bunga sabab o'sha davrda afsun va jodular olov ustida bajarilganligidir.

Veda xudolari. Vedalarda xudolar – osmon xudolari, quyosh xudolari, havo xudolari, er xudolari, ayol xudolar kabi xudolar toifasi haqida madhiyalar bayon etilgan.

Osmon xudolari. Ular sirasiga Dyaus, Varuna, Indra kabi turli osmonlarni boshqarib turuvchi xudolar kiradi. Biroq, Varuna keyinchalik suv va dengizlar xudosi aylanib ketgan.

Quyosh xudolari. Rigvedada quyosh energiyasining turlicha namoyon bo'lishidan besh xudo yuzaga kelganligi haqida so'z yuritilgan. Ularning eng qadimiysi Mitra («do'st») dir. Surya quyoshning yorqinroq namoyon bo'lgan ko'rinishidir. U yunonlardagi Apollon kabi etti ot biriktirilgan g'ildirakli aravalarda tasvirlangan. Savitri esa quyoshning quvvat beruvchi kuchida namoyon bo'ladi. Pushan muruvvatli hisoblanib, quyoshning mahsuldorlik faoliyatni o'zida namoyon qiladi. Ularning yana biri Vishnu vedalarda zikr qilingan va keyinchalik unut bo'lib ketgan xudolar orasida abadiy hisoblangan, hozirgi paytda butun Hindistonda ulug'lanadi.

Havo xudolari. Ulardan tashqari bu xudolar qatoriga Ashvina va Savitar nomi bilan ataluvchi ikki tong xudosi ham qo'shiladi.

Ularning boshida osmon podshosi va oriylarning milliy xudosi Indra turadi. U avvalo ikkita sariq otga qo'shilgan g'ildirakli aravada turuvchi jang xudosidir. Ulardan yana biri Rudna bo'lib, odamlarning unga nisbatan cheksiz qo'rquvlari ularni doimiy ravishda Rudnaga bag'ishlab madhiya va duolar o'qishga undagan. U Rigvedada Shiva («yoqimli») nomi bilan zikr etiladi. Keyinchalik, Shiva Vishnu bilan birgalikda «ikki xudo» sifatida unutilgan Hindiston xudolari turkumi o'rnini egalladi.

Yer xudolari. Er xudolarining eng ulug'i erda quyoshning, havoda chaqmoqning, er ustida olovning mujassamlashuvi hisoblangan olov xudosi Agnidir. Agni haqidagi afsonalar Hindistondan tashqarida vujudga kelgan. U odamlarning qurbonliklarini xudolarga etkazuvchi ruhoniylar sifatida tasavvur qilingan. Biror qurbonlik uning vositasiz xudolarga etib bormaydi deb hisoblangan.

Ayol xudolar qatoriga tong va tong nuri ma'budasi Ushas, daryo xudosi Sarasvatilar kirgan. Sarasvati keyinchalik braxmanizmda so'z xudosi sifatida tasvirlangan.

Braxmanlik veda dinlarining bir shahobchasidir. Vaqt o'tishi bilan vedalardagi qo'shiqlar ommaga, hatto ruhoniylarga ham tushunarsiz bo'lib qoldi. Bu qo'shiqlar hali o'zgarishga uchramay, muqaddas til va muqaddas matnlar paydo bo'ldi. Nihoyat, bu tilni o'rganish uchun kishilar alohida guruhlar tuzib, maxsus vaqt ajratdilar. Natijada o'z hayotlarini ibodat qilish, ilohiyot ilmini o'rganish, murakkab marosimlarni o'tkazish va xalq ruhoniylar hayotini boshqarishga bag'ishlagan braxmanlar **kastasi** (tabaqasi) vujudga keldi. Dinga xos bo'lgan xususiyatlardan biri – ilohiy tilning o'zgartirib bo'lmasligidir. Xuddi shu bir tilning eskirib amaldan qolishi va faqat muqaddas tilga aylanib qolishi braxmanizmning kelib chiqishiga sabab bo'lgan omillardan biridir.




2. **Hinduiylik.** Talabalarga Hindistondagi eng keng tarqalgan milliy din – **hinduizm** dini haqida etarli ma'lumot berishimiz darkor. Hinduizm juda murakkab dindir. U bir tomondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Ijtimoiy tashkilot sifatida kastachilik asosiga qurilgan. Ma'lumki, mil. av. VI asrda Hindistonda buddizm dini vujudga keldi. U braxmanizmdagi bir necha jihatlarni qabul qilgan bo'lsada, kasta ta'limotini inkor etdi. O'sha davrda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanizm dinini isloh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi.

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83%, ya'ni 650 mln. kishi shu dinga e'tiqod qiladi. Hinduizm e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchi o'rinda turadi. Barcha hinduistlarning soni 700 mln.ni tashkil etadi. Yirik jamoalar Bangladeshda (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), SHri Lankada (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQSHda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mavjud. Hinduizm uni qabul qilmoqchi bo'lganlarga qo'yadigan birinchi va asosiy shart Hindistondagi kasta tuzumini qabul qilishdir.

Diniy qorishma sifatida hinduizm **oriylargacha** bo'lgan dinlar, hind-skif jamoalarining ibtidoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi braxmanlarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlarini o'zida mujassam qilgan.

Talabalar diqqatini hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rinishda farqlanishiga qaratishimiz kerak. Unda Yangi braxmanizm dinlari, to'g'rirog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning barchasini umumiy jihatlarga qarab bir guruhga jamlash mumkin: tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi; **guru** (pir, ustoz)ning tan olinishi; muqaddas joylarga ziyoratga borish; sanskritning muqaddas til ekanligi; va nihoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan.

Hinduizmda **trimurti** (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari asosiy xudolar sanalib, Braxma ularning eng kattasi – dunyoni yaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduizmda faqatgina Vishnu va Shivagagina sig'inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimga bo'linadi: Shivaga sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar.



Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohiyati hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvavedada

Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda shivaizmning o'n uchga Yaqin asosiy oqimlari mavjud. Shivachilar orasida asosiy oqim sifatida *tridandinalar* (uch tayoqlilar) va *smartlar (smriti so'zidan – haqqoniy rivoyatlar)*ni aytib o'tish mumkin. *Tridandinalarning* markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar. *Smartlarning* bir qismi rohiblikda, yana bir qismi – dunyoviylik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qiladilar. *Dandilar*, ya'ni zohidlar oriylarga xos bo'lmagan ba'zi marosimlarni o'tkazadilar. Jumladan, shu oqimga kirayotgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. O'lganlarni erga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. Shivaizmning katta oqimlaridan yana biri *lingachilar* bo'lib, ular bo'yinlariga *linga* osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib yuradi. Ibodat vaqtida uni chap qo'llarida tutib turadilar. *Lingachilar* bir necha urug'larga bo'linib, o'zaro qudachilik qilmaydilar.

Yoglar o'zlarini tarkidunyo qilgan odam sifatida turli ko'ygga soladilar. Uzoq vaqt nafas olmay o'zlaridan ketadilar, bu vaqtda ular Shiva bilan yolg'iz qoladilar; omma oldida havoga ko'tariladilar; yana gipnoz usulida o'rgatilgan echki yoki ilon yordamida sadaqa yig'adilar.

Shivaizmning mayda oqimlari *oriylarga* tegishli bo'lmagan an'analar bilan sug'orilgan. Deylik, Shaktra yoki Shakta oqimi hayvon yoki odamlarni qurbon qilishi bilan ajralib turadi. Hozir turli balo-ofatlar paytida qilinadigan bunday qurbonliklar yo yo'q bo'lib ketgan, yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladi. Xalq orasida Shivaning 1008 ta nomi bor.

Vishnu – hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurashayotgan ikkinchi ilohiyatdir. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali ilohiyatdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotni uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tavsiflanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shib ketgan deb tasavvur qilinadi.

3. **Konfutsiychilik** avvalo falsafiy g'oya sifatida maydonga kelgan kelganligi haqida talabalarga batafsil ma'lumot berish darkor. Konfutsiychilikning asoschisi Konfutsiy (Kun Szi) mil. av. 551 yilda tug'ilib, mil. av. 479 yilda vafot etgan.

Konfutsiy bir necha yillar davomida turli podshohlar qo'l ostida ishlagandan keyin yoshlarga ta'lim berishga kirishadi. Yangi ustozning ong haqidagi fikrlari, chuqur ma'noli so'zlari mamlakat bo'ylab keng tarqaladi. SHundan so'ng Konfutsiy huzuriga mamlakatning turli mintaqalaridan ilmga chanqoq yoshlar oqib kela boshlaydilar. U ilm istab keluvchilarga hech qachon rad javobini bermas edi. Konfutsiyning 3000 ga Yaqin shogirdlari orasida 72 eng ko'zga ko'ringan izdoshlari orasida mamlakatning obro'li xonadonlaridan bo'lgan kishilar bilan bir qatorda kambag'al, oddiy kishilar ham bo'lgan. Konfutsiy maktabi qadimgi Xitoyda asta-

sekin katta ta'sir doirasiga ega bo'lib bordi. Uning ko'plab shogirdlari qadimgi Xitoy podshohliklarida e'tiborli mansablarni egalladilar. Konfutsiy yoshlar tarbiyachisi va ustoz sifatida keng shuxrat qozonib, ilk Xitoy ma'rifatparvari nomiga sazovor bo'lgan bo'lsa, u tomonidan taklif qilingan islohotlarning amalga oshirilishida buning aksi bo'ldi.

Konfutsiyning falsafiy qarashlari. Konfutsiy komil inson (*szyun-szi*) haqidagi g'oyani yaratdi. Szyun-szi, ya'ni yuksak ma'naviyatli inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak: insoniylik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim.

U buning uchun tinimsiz, o'zini ayamandan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur. Mamlakatimizda komil inson, barkamol avlod tarbiyasi eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan bir paytda, Konfutsiyning falsafiy, axloqiy qarashlarini o'rganish ham katta ahamiyatga egadir.

Konfutsiychilikning ilk ko'rinishida axloq masalasi birinchi o'ringa qo'yilgan, diniy e'tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Diniy masalalar, aqidalarga konfutsiychilik ancha sovuqqon munosabatda bo'lgan, ba'zi o'rinlarda ularni inkor qilgan. Konfutsiy ham o'z vaqtida qadimgi Xitoyda keng tarqalgan ruhlarga e'tiqod masalasiga shubhali munosabatda bo'lgan. «Lunyuy» (Konfutsiyning falsafiy fikrlari va suhbatlari majmuasi, konfutsiychilikning asosiy manbasi)da keltirilishicha, Konfutsiy g'ayritabiiy narsalar va ruhlar to'g'risida gapirishni yoqtirmagan. Shuningdek, u taqdir, inson umri, o'lim haqida so'z yuritishdan qochgan. Undan: «O'lim nima?» – deb so'raganlarida, u: «Biz tiriklik nima ekanligini bilmaymiz-u, o'lim nima ekanligini qaerdan bila olar edik», - deb javob bergan.

Biroq, qadimdan davom etib kelayotgan diniy qadriyatlar, urf-odatlariga Konfutsiy hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Konfutsiyning yana bir ta'limoti – «Syao» bo'lib, u inson o'z ota-onasiga munosib bo'lishi haqidagi g'oyani o'zida mujassam qilgan. Konfutsiy fikricha, inson uchun **Syaodan** muhimroq narsa yo'q. U: «**Syao va Di** (ukaning akaga, kichiklarning kattalarga hurmati) insoniylikning asosidir» degan. **Syaoning** asosiy ma'nosi nima, farzandlik xizmati qanday bo'lishi kerak, degan savolga Konfutsiy shunday javob bergan: «Aqlli va ota-onangni boqishga yaroqli bo'lishingdir. Chunonchi, odamlar uylarida itlar va otlarini ham boqadilar-ku? Agar ota-onalariga ortiq ehtirom ko'rsatmasalar, hayvonlarni boqishlaridan nima farqi qoladi?».

Syao ta'limotining «**Li qonunlari**»ga ko'ra, farzand ota-ona hayotlik chog'ida mutlaqo ularning ixtiyoridadir. To ular dunyodan o'tgunicha o'ziga-o'zi egalik qilishga haqli emas. Agar ota-ona vafot etsa, farzand qanday ish bilan mashg'ul bo'lishidan qat'i nazar, barcha ishni tashlab uch yil aza tutishi shart. Konfutsiychilikning **Syao** ta'limoti asrlar mobaynida Xitoy madaniyati, axloqiy normalariga katta ta'sir o'tkazib keldi.

Yuqoridagi g'oyalarga asoslangan konfutsiychilik ta'limotida o'g'il ota-onasi oldida quyidagi beshta vazifani bajarishi shart bo'lgan:

1. Har doim ota-onani to'la hurmat qilish;
2. Ularga eng suyuqlik taomni keltirish;
3. Ular betob bo'lib qolganida chuqur qayg'urish;
4. Ular vafot etganlarida yurak-yurakdan achinish;
5. Ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish.

Oila va nikoh tushunchasi. Konfutsiychilik Xitoyda oila masalalariga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi. Konfutsiychilik ta'limotiga ko'ra, oila nikohdan, yoshlarning kelishuvi bilan boshlanmaydi. Balki, oila ehtiyojlari uchun nikoh amalga oshiriladi. Konfutsiychilar urf-odatlariga ko'ra, avlodlar o'z ajdodlari ruhi oldida qilishlari kerak bo'lgan barcha marosimlarni o'z o'rnida, muntazam ravishda bajarishlari lozim.

Konfutsiychilikning Xitoyda tarqalishi. Konfutsiy fikricha, dunyodan befarzand o'tish va o'zidan nasl qoldirmaslik nafaqat shu insonning yoki shu xonadonning, balki butun jamiyatning fojiasidir.

Garchi konfutsiychilar o'z ta'limotlarini qadimgi Chjou aqidalariga bog'liq urf-odatlar, marosimlar, axloqiy me'yorlar asosiga qurgan bo'lsalar-da, ular mazkur aqidalar orasida o'z munosabatlari, qolaversa, har bir masala yuzasidan o'z xulosalarini ham berib bayon qilar edilar. Mana shu narsa konfutsiychilikning muvaffaqiyatga erishishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari uning muvaffaqiyatiga sabab bo'lgan omillardan yana biri konfutsiychilarning o'zlari foydalangan qadimgi kitoblar, she'rlar, risolalarni yig'ib o'quvchilariga o'rgatganliklaridir. Bu ishning asosiy qismi Konfutsiyning o'zi tomonidan bajarilgan edi. U turli podshohlklarda mavjud bo'lgan uch mingdan ortiq qadimiy qo'shiqlar, yozuvlarni jamlab, ularni qayta tahrir qilgan edi. Konfutsiy va uning shogirdlari tomonidan tahrir qilingan asarlar keyinchalik konfutsiychilikning asosiy manbalariga aylandi.

Mil. av. IV-III asrlarga kelib Konfutsiy ta'limoti ancha keng tarqaldi va katta ta'sir doirasiga ega bo'ldi. Xan sulolasi davriga kelib (mil. av. III-II asrlar) konfutsiychilik davlat mafkurasi darajasiga ko'tarildi. Xan podshohlari Konfutsiy ta'limotlarini to'liq qabul qilmagan bo'lsalar-da, uning kuchini, jamiyatda egallab ulgurgan mavqeini e'tirof qilgan holda undan davlat boshqaruvida foydalandilar.

Konfutsiyning nomi ilohiylashtirilgan bo'lib, unga atab qilinadigan qurbonliklar va boshqa muhim marosimlar tartibga solingan. Har oyning birinchi va 15-kunlarida ikki marta Konfutsiy haykali oldida odatiy qurbonliklar, yilda – bahorda va kuzda ikki marta alohida tantanali marosimlar o'tkazilar edi.

4.**Daosizm.** Xitoyda keng tarqalgan daosizm falsafiy ta'limot sifatida mil. av. birinchi ming yillikning o'rtalarida konfutsiychilik bilan deyarli bir vaqtda paydo bo'ldi. Bu ta'limot dastavval bir muncha mavhum xarakterga ega bo'lib, din bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan. Ushbu ta'limot tarafdorlari ham konfutsiychilar kabi o'z zamonalaridagi harakatlarga qarshi bo'lganlar. Daosizm targ'ibotchilari ham hukmdorlar orasidagi tinimsiz urushlarni qoralar edilar. Ular ham boshqa bir qator falsafiy ta'limotlar qatori orqaga – «Oltin asr»ga – qaytishga chaqirar edilar.

Daosizm da mil. av. IV-III asrlarga kelib nazariy asarlar paydo bo'la boshladi. Bunday asarlarda ijtimoiy-siyosiy va axloq masalalari daosizm uchun unchalik muhim sanalmadi. Biroq daosizm vakillari ilk bor borliq, tabiat, koinot haqidagi tushunchalarni ishlab chiqa boshladilar. Xitoydagi Szis faylasuflar akademiyasida daosizm nazariyotchilari: Tyan Pen, Sun Szyan, In Ven, Shen Dao, Xuan Yuan va boshqalar to'plangan bo'lib, ular inson va uni o'rab turgan borliq xususida beto'xtov munozaralar olib bordilar va risolalar yozdilar. Bunday asarlar hozirgi kungacha saqlanmagan, biroq daosizmning asosiy manbasi sanaladigan «Daodetszin» risolasida o'z aksini topgan. Mazkur risola muallifi Lao-Szi hisoblanadi. Uning hayoti haqidagi ma'lumotlar kam, borlari ham noaniq. Afsonalarga qaraganda, Lao-Szi onasining qornida bir necha o'n yillar yashab, keksa donishmand holidi dunyoga kelgan. Shuning uchun uni «Lao-Szi» – «Keksa donishmand», «Qari bola» deb atadilar. Lao-Szi mil. av. VII da tug'ilgan, Konfutsiyning zamondoshi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy yodgorliklarida Konfutsiyning Lao-Szi bilan uchrashganligi, uning donoligidan hayratga tushgani va uni ajdaho deb atagani haqida rivoyat keltiriladi.

Lao-Szi ta'limotiga ko'ra, tabiat, jamiyat va butun borliqning asosi «Ulug' Dao» hisoblanadi (dao, tao «yo'l», «haqiqat», «tartib» demakdir). Dao haqidagi ta'limot konfutsiychilikda bo'lgan. Chunki dao to'g'risidagi fikrlar konfutsiychilik va daosizm shakllanishidan ancha oldin mavjud edi, shuning uchun ham har ikki ta'limotning o'xshash jihatlari ko'p. Konfutsiy daoni jamiyatda muayyan tartiblarni yaratuvchi samoviy qonunlar tajassumi deb hisoblagan.

Daosizm dinining asosiy mohiyatlaridan biri bu dao va u bilan aloqador tabiat falsafasi hamda kosmogoniya masalalaridir. Ikkinchi asosiy nuqta mavjudlik, hayot va o'limning nisbiyligi va shunga bog'liq holda uzoq yashash, abadiy hayotga erishish tushunchasidir. Milodning birinchi asrlari – Xan asriga kelib, abadiy hayot masalasi daosizm olimlarining asosiy muammosiga aylandi. Uchinchi va so'nggi masala uvey prinsipidir. Daosizm falsafasining mana shu uch ta'limoti Xan asriga kelib daosizm dinining shakllanishiga asos bo'ldi.

Milodiy ikkinchi asrga kelib daosizm dinida Yangi sektalar paydo bo'ldi. Ulardan biri «Taypindao» («Buyuk tenglik ta'limoti») bo'lib, uning asoschisi Chjan Szue hisoblanadi. U xalq orasida sehr-jodu orqali barcha kasalliklarni tuzatuvchi hamda kishi umrini uzaytiruvchi shaxs sifatida shuhrat topdi. Uning atrofiga ko'plab odamlar yig'ildilar. Chjan Szue odamlarni 36 jangovor guruhga bo'lgan. Katta guruhlarga «da fan» katta sehergarlar, kichik guruhlarga «syao fan» kichik sehergarlar boshliq etib tayinlanganlar. Sektada yuqori boshliq Chjan Szue («Buyuk osmon rahnamosi») sanaladi. Uning ikki ukasi «Buyuk er rahnamosi» va «Buyuk inson rahnamosi» deb talqin qilinadi. Bu uchta daosizmdagi uchta ta'limoti – osmon, er va inson birligining ramziy timsoli edi. «Taypindao» sektasi ta'limoti «Taypinszin» kitobiga asoslanadi.

«Taypindao» sektasi bilan birga yana bir «Udoudao» («Besh dou guruch ta'limoti») sektasi ham mavjud bo'lib, qadimgi Xitoy jamiyatida katta ta'sir doirasiga ega bo'lgan. Uning asoschisi mashhur daochi Chjan Dao Lin bo'lib, u

ushbu sektaninggina emas, balki butun daosizm ibodatxonasining asoschisi hisoblanadi.

Ushbu sektalar tarixda hukmron tabaqalarning adolatsizligiga qarshi ko'plab siyosiy kurashlarga, qo'zg'olonlarga boshchilik qilgan.

Daosizm birinchi ming yillikda buddizm va konfutsiychilik bilan raqobatlashib keldi. VI asrga kelib, daosizm konfutsiychilikdan keyin ikkinchi o'rinni egallagan edi. XIII asrdan boshlab daosizm ta'limotining aniq asoslarga ega emasligi va ilk davrdagi yuksak ta'limotlari turli xurofotlar bilan almashgani tufayli inqirozga yuz tuta boshladi.

XX asr boshlariga kelib Xitoyda turli daosizm sektalariga qarshi kurash boshlandi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida daosizm tarafdorlari juda ozchilikni tashkil qildi. Ushbu kichik guruhlar monaxlar, targ'ibotchilar va bashoratchilarni o'z ichiga oladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Yahudiylik ta'limoti qanday paydo bo'lgan?
2. Yahudiylikning muqaddas kitobi haqida nimalarni bilasiz?
3. Qaysi Vedalarni bilasiz?
4. Vedalarda ilohiyatlar qanday tasvirlanadi?
5. Braxmanlik jamiyatni qanday tabaqalarga bo'ladi?
6. Hinduizm qanday dinlar qatoriga kiradi?
7. Hinduizm ta'limoti nimalardan iborat?
8. Hinduizmda qanday oqimlar bor?
9. Hinduizmning qanday ilohiyatlarini bilasiz?
10. Konfutsiychilikning asoschisi kim?
11. Konfutsiychilikning ta'limoti nimalardan iborat?
12. Daosizm asoschisi kim?
13. Daosizm axloq masalalari qanday o'rinni egallaydi?
14. Daosizm qanday sektalar mavjud?

4-MAVZU

ZARDUSHTIYLIK DINI

REJA:

1. Zardushtiylik dinining vujudga kelishi.
2. Zardushtiylik dinining ta'limoti.
3. Aveto va uning tarkibiy qismlari.

Tayanch so'z va iboralar: Axura Mazda , Axriman, devlar , Amesha Spenta, Avesto, Yashtlar, Zardusht, daxma, Videvdot, Visparat, Kichik Avesto.

1. Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimgi va eng birinchi vahdoniyat – yakka xudolik dinidir. Bu dinning Vatani Xorazm ekanligini ko'p olimlar ta'kidlab

o'tkanlar. Shunday ekan, ma'naviy merosimizning ulkan ildizini tashkil qiluvchi bu ta'limot haqida talabalarga to'liq ma'lumot berishimiz kerak.

Zardushtiylik mil. av. II-I ming yilliklarda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan dindir. Zardushtiylik *vahiy* orqali e'lon qilingan jahon dinlarining eng qadimiysidir. U insoniyatga boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir. Insoniyat tarixida har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tanalarning qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqida birinchi bor shu din doirasida fikr yuritilgan. Keyingi asrlarda bu g'oyalar Yahudiylik, xristianlik va boshqa dinlar tarafidan o'zlashtirildi. Aytib o'tish joizki, ushbu din paydo bo'lgan davr va uning vatani – hali fanda oxirigacha to'liq echilgan masala emas. Zardushtiylik dini payg'ambar Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa u mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblanmish Avestoda «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi talqin etiladi.

Zardushtiylik yana «Behdin», ya'ni «Eng yaxshi din» deb ham ulug'langan. Uning ta'limotiga ko'ra, barcha ezgu borliq Mazdaning irodasi bilan yaratilgan. «Mazda» so'zi oldiga ulug'lash ma'nosini anglatuvchi «Axura» qo'shilib, zardushtiylikning ilohiyati – Axura-Mazda nomi paydo bo'lgan. Bu – «Janob Mazda» yoki «Iloh» demakdir.

Zardusht nomi tadqiqotlarda Zaratushtra, Zardust, Zoroastr ko'rinishlarida ham ishlatiladi. Tadqiqotchilar o'rtasida Zardushtning tarixda bo'lgan yoki bo'lmaganligi borasida turli fikrlar mavjud. Ba'zilar uni tarixiy shaxs deb bilsalar, boshqalar afsonaviy shaxs deb hisoblaydilar. Manbalarning xabar berishicha, u taxminan mil. av. 1200-570 yillar orasida yashagan ilohiyotchi, faylasuf, shoirdir. Ingliz tadqiqotchi M. Boys ta'kidlashicha, u mil. av. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Zardusht Markaziy Osiyo hududida mavjud bo'lgan ko'pxudolikka negizlangan qadimiy diniy tasavvur va e'tiqodlarni isloh qilib, Yangi dinga asos soldi.³

Zardushtning tug'ilgan va ilk diniy faoliyatini boshlagan joyi xususida ikki xil qarash bor.

Birinchisi – «G'arb nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra Midiya (hozirgi Eron hududida) Zardushtning vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi hisoblanadi. Bu fikr tarafdorlarining dalili shuki, birinchidan, zardushtiylikning qadimiy Eron hududlarida keng tarqalganligi bo'lsa, ikkinchidan, zardushtiylikning muqaddas kitobi sanalmish Avestoga keyin yozilgan sharhlarning qadimiy eron-pahlaviy tilida bo'lganligidir. E'tibordan chiqarilgan kerakki, zardushtiylik uch buyuk Eron imperiyasi – Ahamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar davrlarida, ya'ni mil. av. VI asrdan to mil. VII asrigacha ketma-ket aynan Yaqin va O'rta Sharqda davlat dini maqomida bo'lgan.


³ Мэри Бойс. Зороастрийцы. Верование и обычай. М., 1988, С 4.

Ikkinchisi, «Sharq nazariyasi» bo'lib, unga ko'ra, Zardusht vatani va zardushtiylikning ilk tarqalgan joyi Xorazm hisoblanadi. Ko'pchilik manbashunoslar ikkinchi nazariya tarafdorlaridir. Xorazm zardushtiylikning muqaddas olovi Ozarxurra birinchi bor yoqilgan va eng buyuk xudo – Axura-Mazdaning Zardusht bilan bog'langan joyi hisoblanadi. Zardushtiylikning asosiy manbasi Avestoda: «Birinchi bor muqaddas olov – «**Ozarxurra**» «**Airyanem-Vaeja**» (ba'zi manbalarda – «Eran-vej»)da yoqildi», - deyiladi.

«Airyanem-Vaeja»ning geografik va iqlimiy tavsifi Xorazmnikiga to'g'ri keladi. Avestoda Axura-Mazda tomonidan yaratilgan «Barakot va najot» sohibi bo'lgan bir qator mamlakatlar zikr etiladi va ularning eng birinchisi, «dunyoda hech narsa chiroyiga teng kela olmas Airyanem-Vaeja», keyin esa «odamlar va chorva podalariga mo'l» Sug'd (So'g'd), «qudratli va muqaddas» Mouru (Marv), «baland ko'tarilgan bayroqlar mamlakati» BAhdi (Baqtriya) zikr etiladi.

2. Zardushtiylik ta'limoti Markaziy Osiyoda ibtidoiy davrda mavjud bo'lgan tabiat kuchlarini ilohiylashtiruvchi e'tiqodlarga (Markaziy Osiyo qadimgi aholisining «eski dini»ga) nisbatan monoteistik ta'limotdir. U behuda qon to'kuvchi qurbonliklar, harbiy to'qnashuvlar, bosqinchilik urushlarini qoralab, o'troq, osoyishta hayot kechirishga, mehnatga, dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishga da'vat etadi.

TO'XTOVSIZ KURASH



Moddiy hayotni yaxshilashga urinishni yovuzlikka qarshi kurash deb hisoblaydi. Zardushtiylik dinida qo'riq er ochib, uni bog'u-rog'ga aylantirgan odam ilohiyot rahmatiga uchraydi. Aksincha, bog'lar, ekinzorlarni, sug'orish inshootlarini buzganlar katta gunohga qoladilar. Zardusht insonlarga tinch-totuv yashashni, halol mehnat qilishni o'rgatmoqchi bo'ladi. Bunga ko'ra insonning bu dunyodagi hayotiga yarasha narigi dunyodagi taqdiri ham bo'lajak, har bir inson o'lgandan so'ng o'zining bu dunyodagi qilmishiga yarasha abadiy rohat – jannatga, yoki yomon ishlari ko'p bo'lsa na xursandlik va na xafalik ko'rmaydigan arosat joy – *misvongatuga* tushadi.

Zardushtiylik negizida olamning qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgani turadi: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik, hayot va o'lim o'rtasida abadiy kurash davom etadi. Barcha yaxshiliklarni **Axura-Mazda** va barcha yomonliklarni **Axramaynyu (yoki Axriman)** ifodalaydi.


Axura-Mazda insonlarga ezgu ishlarni bayon etib ularga amal qilishni buyuradi, yomon ishlardan saqlanishga chaqiradi.

Zardushtiylik dinida Axura Mazda Oliy ibtido, u hamma mavjudotlarning yaratuvchisi va boshqaruvchisi, yaxshilik va ezgulik timsoli – Oliy ruh sifatida namoyon bo'ladi. Zardushtiylikda yana olti ilohiy ruh – quyi tangrilarga ham sig'inilgan. Zardusht ta'limotiga ko'ra ular bir-biriga singib ketgan, manbaning ayrim joylarida quyi tangrilar Axura Mazdaning emanatsiyalari (ya'ni o'zidan nurlantirib chiqargan) deb berilgan. Avestoda quyi tangrilar Amesha Spenta – “abadiy ruhlar” deb nomlanadilar. «Abadiy ruhlar” dunyo yaratilishining ma'lum bir pog'onasini boshqarib turgan⁴.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofliqi, so'zning sobitligi, amallarning insoniyligi. Har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig'inishi shart.

Zardushtiylik ibodatxonalarida doimiy ravishda olov yonib turadi. Ularda dunyodagi to'rt unsur – suv, olov, er va havo ulug'lanadi.

Zardushtiylik dafn marosimi o'ziga xos bo'lib, o'lganlar bir necha past, baland «sukut minoralari» – *daxmal*arga solinadi, u erda murdalarning go'shtlarini qushlar eb, suyaklarini tozalaydi. Go'shtdan tozalangan suyaklar maxsus sopol idishlarga solinib minora o'rtasidagi quduqqa sohib yuboriladi. Bunda *poklik* bilan *nopoklik*ning bir-biriga Yaqinlashmasligiga erishiladi.



3. Zardushtiylik dini dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, mil. av. XII-VI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari unga e'tiqod qilganlar. Eronda Sosoniylar sulolasi hukmronligi davrida uning muqaddas kitobi Avesto ruhoniylar tomonidan og'zaki rivoyatdan yig'ilib, birinchi marta kitob shakliga keltirilgan. Ayrim qismlariga, ayniqsa «Videvdat» bo'limiga o'zgartirishlar kiritilib, qayta ishlangan.

VIII asrda O'rta Osiyoga islom dini kirib kelib, keng tarqalguniga qadar zardushtiylik mahalliy xalqlarning asosiy dini hisoblangan. Buni, jumladan, arxeologik tadqiqotlar isbotlaydi.

Avesto zardushtiylikning asosiy manbasi va muqaddas kitobi hisoblanadi. U Apastak, Ovisto, Ovusto, Abisto, Avasto kabi shakllarda ham ishlatib kelingan. Avesto O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining islomgacha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlarini, ma'naviy madaniyatini o'rganishda muhim va Yagona manbadir. Uning

⁴ Мэри Бойс. Зороастрийцы. Верование и обычай. М., 1988, С 32.

tarkibidagi materiallar qariyb ikki ming yil davomida vujudga kelib, avloddan-avlodga og'zaki tarzda uzatilib kelingan.

Zardushtiylik dini rasmiy tus olguniga qadar Avestoning bo'laklari Turon va Eron zamini xalqlari orasida tarqalgan. Ushbu – Axura-Mazdaning Zardusht orqali yuborilgan ilohiy xabarlari deb hisoblangan bo'laklar turli diniy duolar, madhiyalar sifatida yig'ila boshlangan. Bular Zardushtning o'limidan keyin kitob holida jamlangan va «Avesto» – «O'rnatilgan, qat'iy qilib belgilangan qonun-qoidalar» deb nom olgan.

Bu qadimiy yozma manba bizgacha to'liq holda etib kelmagan. Avesto haqida Abu Rayhon Beruniy (v. 1048 y.) shunday yozadi: «Yilnoma kitoblarida bunday deyilgan: podshoh Doro ibn Doro xazinasida [Abistonning] 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. SHuning uchun o'sha vaqtda Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi»⁵.

Avestoning Aleksandr Makedonskiy tomonidan Gretsiyaga olib ketilgani, zarur joylarini tarjima ettirib, qolganini kuydirtirib yuborgani, 12 ming qoramol terisidagi tillo matn haqida (at-Tabariyda – 12000 pergament) keyingi davrlarda yaratilgan zardushtiylik adabiyotida («Bundahishn», «Shahrihoi Eron», «Dinkard»; IX asr, «Arda Viraf-namak»; IX asr, «Tansar xatlari», al-Mas'udiyning «Muruj az-zahab», «Fors-noma» va boshqalarda) ma'lumotlar bor. Bu asarlarda yunonlar otashxonalarini vayron qilganlari, ibodatxonalar boyliklarini talon-taroj etganlari, din arboblarni o'ldirib, asir olib ketganliklari haqida yoziladi. Hozir bizgacha etib kelgan Avesto, Beruniyning yozishicha, aslining beshdan ikki qismi xolos. U «Avesto 30 *nask*» edi, majusiylar (zardushtiyalar) qo'lida 12 *nask* chamasi qoldi» deb yozgan.

Yozma manbalarga ko'ra, haqiqatan ham Avestoni *mo'badlar* avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga olib o'tib, asrlar osha saqlaganlar. Buning sababi *mo'badlar* mag'lub xalqlar (Yaqin va Sharq xalqlari) yozuvini *harom* hisoblab, *muqaddas xabarni* unda ifodalashga uzoq vaqt jur'at etmaganlar. Dastavval (mil. I yoki II asrlarida), Arshakiylar davrida Avesto qismlarini to'plash boshlangan. Keyinchalik, Sosoniy Ardasher Popakon (227-243) davrida, ayniqsa, Shopur (243-273) davrida astrologiya, tabobat, riyoziyot va falsafaga oid qismlari yozib olinib, hamma qismlari tartibga keltirilgan, so'ng bu asosiy matn to'ldirib borilgan. Avestoning ana shu to'ldirilgan nusxasining ikki to'liq qo'lyozmasi Hindistonda saqlanadi – biri Mumbayda, zardushtiyalarning madaniy markazi bo'lmish Koma nomidagi institutda, ikkinchisi – Kalkuttadagi davlat kutubxonasida.

Talabalarni Avestoning eng qadimiy qismlarida Zardusht tug'ilgan va o'z faoliyatini boshlagan yurt haqida ma'lumotlar bilan tanishtirishimiz maqsadga muvoffiq bo'ladi. Avestoda Axura Mazda yaratgan 16 ta shaharning nomi berilgan bo'lib, ulardan to'qqiztasi Markaziy Osiyoda joylashgan viloyat va shaharlarning nomlariga juda o'xshash. Unda aytilishicha, «bu mamlakatning ko'p


⁵Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. II том. Т., 1965, 230-бет.

sonli lashkarlarini botir sarkardalar boshqaradilar, baland tog'lari bor, yaylov va suvlari bilan go'zal, chorvachilik uchun barcha narsa muhayyo, suvga mo'l, chuqur ko'llari, keng qirg'oqli va kema yurar daryolari o'z to'lqinlarini Iskata (Skifiya), Pauruta, Mouru (Marv), Xarayva (Areya), Gava (so'g'dlar yashaydigan yurt), Xvarazm (Xorazm) mamlakatlari tomon eltuvchi daryolari bor».

Shubhasiz, «keng qirg'oqli, kema yurar daryolar» bu Amudaryo va Sirdaryo bo'lib, Avesto tasvirlagan mazkur shaharlar O'rta Osiyo shaharlarining bu ikki daryo qirg'oqlarida joylashganlaridir.

Shunga asoslanib, biz Zardushtning vatani, zardushtiylikning ilk makoni va Avestoning kelib chiqish joyi deb – Xorazm, tarqalish yo'nalishi deb – Xorazm-Marg'iyona-Baqtriyani ayta olamiz.

Avestoning «Yasna» kitobida bayon etilishicha, Zardushtning vatandoshlari unga ishonmay, uning ta'limotini qabul qilmaganlar. Zardusht vatanni tark etib, qo'shni davlatga ketadi, u erning malikasi Xutaosa va shoh Kavi Vishtaspaning xayrixohligiga erishadi. Ular Zardusht ta'limotini qabul qiladilar. Natijada qo'shni davlat bilan urush boshlanib, Vishtaspa g'alaba qozonadi. Shundan so'ng bu ta'limot xalqlar o'rtasida keng tarqala boshlagan. Keyingi davr rivoyatiga ko'ra, Shoh Kavi Vishtaspa farmoniga bilan Avesto kitobi o'n ikki ming mol terisiga yozib olinib, otashkadaga topshirilgan.



Avesto zardushtiylik muqaddas kitoblarning majmuidir. U – murakkab to'plam. Avestoning saqlanib qolgan to'rtta kitobidan birinchisining nomi «**Videvdat**» (vi-daevodatam – «Devlarga qarshi qonun») deb ataladi. Ushbu kitob Avestoning saqlanib qolgan kitoblari orasida eng mukammali hisoblanadi. U yigirma ikki bob bo'lib, boblari *fragard* deb nomlangan. *Fragard*larning ma'nosi, vazifasi, uslubiy tuzilishi turlicha: birinchi *fragard* – odamlar yashaydigan barcha yurtlarni Axura-Mazda qanday yaratgani to'g'risida bo'lib, ular orasida Xorazm, So'g'd, Marg'iyona, BAhdi (Balx) va boshqalar bor; ikkinchi *fragardda* Jamshid podsholigi – kasallik, o'lim, azob-uqubatlar bo'lmagan zamon haqida, ya'ni insoniyatning oltin asri haqida gap boradi; uchinchi *fragard* dehqonchilikning savobli sharofatlari va h.k. haqida. Shuningdek, Videvdatning boshqa *fragardlaridan* Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari va muloqotlari ham o'rin olgan.

Ikkinchi kitob «**Yasna**» deb atalib, Avestoning e'tiborli bo'limi sanaladi. Yasna – yaz o'zagidan bo'lib, «sajda, topinch, namoz» ma'nolarini ifodalaydi. Yasna 72 bobdan iborat bo'lgan. Boblari *ha*, *haitiy* deb atalgan. Har bir *ha* zarur o'rniga qarab marosimlarda, ibodatlarda kohinlar tomonidan o'qilgan, qavmlar unga ergashib ibodat qilganlar. Yasna kitobi (*nask*) tarkibiga Zardusht o'zi ijod qilgan targ'ibot she'rlari ham kirgan. Ular Yasnaning 28-34, 43-46, 47-50, 51, 53 – jami bo'lib, 17 ta *hasini* tashkil qiladi. Zardusht she'rlari ilmiy adabiyotda *gatalar* deb atab kelinadi. *Ha* «bashorat» demakdir. Yasnaning 35-42-*halari* ayniqsa, yuksak qadrlangan. Bu etti *ha Haptanxati Yasna* – «Etti bob Yasna» deb nomlangan. Ular orasida olovning muqaddasligi haqida bob bo'lib, zardushtiylik urf-odatlarini orasida olovga e'tiqod qilish, dinning esa «otashparastlik» deb atalishi shunga bog'liq. Binobarin, olov Axura-Mazda nurining quyoshda namoyonligi va uning erdagi zarrasi deb hisoblangan. Oliy haqiqat *Arta* ham olovda o'z ifodasini topgan. Olov haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg'onni rostdan ajratib bergan. Yolg'on esa chin e'tiqodga xiyonat deb qoralangan. *Arta* so'zi fonetik o'zgarib, dastlab *atar*, hozir esa *otash* shaklida ishlatilib kelmoqda.

Uchinchi kitob «**Vispered**» deb nomlangan. U 24 bobdan tashkil topgan va har bir bob alohida *karde* deb atalib, ma'budlar sha'niga o'qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlar hamda olamni bilishga doir pand-nasihatlardan iboratdir. Uni ibodat namozlari yig'indisi ham deyishadi. Ayni paytda u Yasnaga qo'shimcha hisoblanadi.

To'rtinchi kitob «**Yasht**» (gimn) deb ataladi. U Avestoning eng qadimiy qatlami bo'lib, 22 bobdan iborat. Har bir bob Axura-Mazdadan boshlab, u yaratgan va uning ma'lum vazifalarini bajaruvchi ma'budlar sha'niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Avestoning bizgacha etib kelmagan kitoblaridan ba'zi qismlari uning yig'ma parchalar to'plami **Kichik Avesto** yoki «**Xo'rdak Avesto**» kitobida jamlangan. Masalan, Exrpatastan kitobidan *mo'badlar* (kohinlar) uchun qonun-qoidalar, diniy boshqaruv tizimiga xos ma'lumotlarga oid qismlari, Nirangastan – diniy-mavsumiy, ijtimoiy marosimlar tartib-qoidalari qismi, 20-*naskda* jonning u dunyodagi ahvoli haqidagi qismi va boshqalar shu kitobda saqlangan.

Avesto haqida eng muhim manba IX asrga oid «Dinkard» (din amallari) asaridir. Unda Avestoning 21 kitobi to'la ta'riflab berilgan. Bu ta'riflar savobli ishlar yo'riqnomasi, diniy marosimlar va rasm-rusumlar qoidasi; zardushtiylik ta'limoti asoslari; dunyoning Axura-Mazda tomonidan yaratilishi; oxirat kuni va undagi hisob-kitob; falakiyot; ijtimoiy-huquqiy qonun-qoidalar; Zardushtning tug'ilishi va bolaligi; haq yo'lini tutish; jamiyat a'zolarining haq-huquqlari; devlar, jinlar kabi yovuz kuchlarga qarshi o'qiladigan duolar, amallar va boshqalardan iboratdir.

Zardushtiylik dini haqida fransuz olimi Anketil-Dyuperron juda qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Masalan, Anketil-Dyuperron 1755 yilda Hindistonga ilmiy safar qilib, u erdagi zardushtiylar orasida uch yil yashagan, ularning ibodatlarini, urf-odatlarini yaxshi o'rgangan va Avestoni fransuz tiliga tarjima qilgan. Uch jildlik

tarjima 1771 yilda nashr etilgan. Ayni paytda, shuni ham ta'kidlash joizki, olimlarimizning fikricha, Avesto G'arbiy Evropa, Eron va Hindiston tillari orqali bizga etib kelgani uchun undagi nomlar, atamalar aksariyat hollarda asliga to'g'ri kelmaydi. Avestoda turkona jihatlar kam qolgan.

Hozirgi kunda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi diniy jamoalar mavjud. Ular Hindistonning Bombay (Bombey, G'ujarot shtatlarida; 115 ming kishiga Yaqin), Pokiston, Shri Lanka, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSH, Avstraliya va Eronning (Tehronda 19 ming kishidan ortiq) ba'zi chekka viloyatlarida saqlanib qolgan. Eron Islom Respublikasida zardushtiylik diniga e'tiqod qilish qonun tomonidan ruxsat etilgan. Bombayda zardushtiylarning madaniy markazi Koma nomidagi institut faoliyat olib boradi. Undan tashqari Bombayda homiy Dxalla raisligida dunyo zardushtiylari madaniyati fondi ishlab turibdi. 1960 yilda zardushtiylarning I umumjahon kongressi Tehronda o'tkazildi. Keyingi kongresslar Bombeyda o'tkazildi.

Talabalarga zardushtiylik dinini ma'naviy me'rosimiz asoslaridan biri ekanligi, shu bilan birga jahon madaniyati shakllanishiga ulkan hissa qo'shganligini alohida ta'kidlashimiz lozim. Ingliz olimasi Meri Boys shunday deydi: «Zardushtiylikning ulug'vor va original ta'limotlari butun Yaqin Sharq hududiga ta'sir etib, uning asosida iudaizm rivojlangan, xristianlik va islom paydo bo'lgan», shuningdek, buddizmning maxayana oqimi ham zardushtiylikdan oziqlangan. «Shuning uchun, – deydi u, – jahon dinlarining barcha jiddiy tadqiqotchilari zardushtiylikni o'rganadilar»⁶.

Zardushtiylikni o'rganish hozirgi kunlarda ham faol olib borilayapti. Talabalarga shuni ta'kidlash kerakki, bu sohadagi tadqiqotlar O'zbekiston uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy qadriyatlar va ko'p qatlamli diniy tajribada mazkur dinning tutgan o'rni beqiyosdir.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Zardushtning vatani qayer?
2. Zardushtiylik qanday davrda yuzaga keldi?
3. Zardushtiylikning muqaddas kitobi nima?
4. Hozirgi paytda zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchilar qayerlarda mavjud?
5. Zardushtiylik ta'limoti asoslari nimalardan tashkil topgan?
6. Zardushtiylik amaliyoti nimalardan iborat?
7. Zardushtiylikda dafn marosimlari qanday?

5-MAVZU BUDDAVIYLIK DINI

REJA:

1. Buddaviylik dinining vujudga kelishi.
2. Buddaviylik ta'limotining mohiyati.

⁶ Мэри Бойс. Зороастрийцы. Вера и обычаи. М., 1988, С4.

3. Markaziy Osiyoda buddaviylikning tarqalishi.

Tayanch soʻz va iboralar: din, diniy eʼtiqod, budda, jaynizm, braxmanizm, sansara, draxma, nirvana, karma, “Tripitaka”, hinayana, mahayana, kasta, nurlangan, bodxisatva, sanga.


Maʼlumki, har bir Yangi dinning vujudga kelishi din nuqtai-nazaridan ilohiy sabablar, dunyoviy, ilmiy nuqtai-nazardan esa maʼlum bir ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va maʼnaviy sabablar zamirida talqin etiladi. Talabalarga mana shu sabablarni har birini aniq tushuntirib berish kerak. Ushbu mavzu boʻyicha maʼlumotlarni N.F.Nizomiddinovning “Janubi-Sharqiy Osiyo diniy-falsafiy taʼlimotlari” kitobining (2006 yilda chop etilgan) 58-75 betlarida, A.V.Norbekovning “Dinshunoslik asoslari” oʻquv qoʻllanmasining (2008 yilda chop etilgan) 90-102 betlarida topish mumkin.

Buddaviylik dini (sanskrit tilida buddha – osoyishtalikka va buyuk haqiqatga erishgan, “ilohiy ilm” nuridan munavvarlik maʼnolarini bildiradi) jahon dinlarining ichida eng qadimiysi boʻlib, jahon sivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri boʻlgan Hindistonda miloddan avvalgi VI asrda yuzaga kelgan. Yangi dinning vujudga kelishi turli sabablar bilan bogʻliq boʻlgan. Miloddan avvalgi VI asrda oʻnlab knyazliklarga boʻlinib ketgan Hindistonda, urugʻ-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi natijasida, davlat hokimiyatini markazlashtirishga harakatlar kuchaygan. Hindiston jamiyatini kastalar(portugal tilida *casta* – irq, urugʻ, tabaqa)ga boʻlinib ketishiga sababchi boʻlgan braxmanizm bunday jarayonlarni ragʻbatlantirmagan. Kastachilikni muqaddaslashtirish bilan birga, diniy taʼlimot, oliy haqiqat faqat hukmron braxmanlar uchun deb taʼkidlovchi braxmanizm jamiyatdagi Yangilanishga toʻsiq boʻlmoqda edi. Shu bois bir-biridan sunʼiy ravishda ajratib tashlangan kastalarni umumiy maqsad atrofida birlashtirishga turtki beruvchi mafkuraga zarurat tugʻilgan.

Talabalarga kastalar haqida kengroq maʼlumot berilsa maqsadga muvoffiq boʻladi. Yuqorida aytib oʻtilganidek, kasta soʻzi irq, qavm, tabaqa maʼnolarini beradi va muayyan kasb bilan shugʻullanadigan, oʻziga xos turmush tarzi, urf-odatlar, anʼanalari, tartib-qoidalari va h.k. bilan oʻzgalardan ajratilgan va alohida yashaydigan ijtimoiy guruhni bildiradi. Kastaga mansublik nasl-nasabga qarab belgilangan. Hindistonda kastalar varna deb ataladi. Nikohda ham kuyov yoki kelin faqat shu guruh ichidan tanlangan. Kasb, huquq va majburiyatlar meros qoldirilgan. Kasta sistemasi pogʻonadorlik – ierarxiya tartibida, kastalarning muqarrar tengsizligi, “oliy” va “past” tabaqalarga boʻlinish asosida qurilgan boʻlib, shu nuqtai nazardan quyi kastaga mansub odamlar “xor” va “xazar qilinadiganlar” deb hisoblangan. Umuman, kastalarning kelib chiqishi etnik guruhlarining oʻzaro aloqa jarayonlari taraqqiyoti bilan, ijtimoiy mehnat taqsimotining kelib chiqishi bilan, sinfiy jamiyat tarkib topishi jarayonlari bilan bogʻliq. Braxmanizm va hinduizm dinlari kastachilikni muqaddaslashtirgan.

Hindiston jamiyati quyidagi kastalar boʻlingan edi:

1. Braxmanlar – ruhoniylar, oliy kasta.
2. Kshatriylar – xarbiylar.
3. Vayshiylar – xunarmandlar.
4. Shudralar – jismoniy mehnat bilan shug’ullanuvchi eng quyi kasta.



Hokimiyatni markazlashtirishga harakatlar kuchaygan davrda Hindiston jamiyatining boshqa tabaqalarida ham diniy ta’limotlar tafsiloti, ilohiy haqiqatga erishish, hayot va o’lim muammolari bilan bevosita tanishishga intilishning kuchliligi o’sha davrda ma’naviy madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Demak, **buddaviylik ijtimoiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari rivojlanishiga to’siq bo’lgan braxmanizmning tabaqa tizimiga qarshi ruhiyati bilan, o’z davrining ilg’or insonparvar ta’limoti sifatida tarix sahnasida paydo bo’lgan. Buddaviylik kishilarning tabaqaviy tengsizligini inkor etgan. Buddaviylik ta’limotiga ko’ra har bir insonda mutloq ruhning bir zarrasi mujassamlashganligi uchun xudo oldida hamma teng hisoblanadi. Mana shu tenglik g’oyasi buddaviylikni jahon dini darajasiga ko’tarilishiga sabab bo’lgan.**


Buddaviylikka tarixiy shaxs, kshatriya kastasining vakili **Siddhartha Gautama** asos solgan. U Shimoliy Hindistondagi Shakya knyazligining shaxzodasi bo’lgan. Bugungacha saqlanib kelgan yozma manbalarda uning bir necha ismlarini uchratish mumkin: **Siddhartha** – shaxsiy ismi, **Gautama** – urug’ nomi, **Shakyamuni** – “shakya qabilasining donishmandi”, **Budda** – “nurlangan”, **Tatxagata** – “shu yo’l bilan kelib, shu yo’l bilan ketuvchi”, **Jina** – “g’olib”, **Bxagavan** – “tantana qiluvchi”.

Talabalarga din haqida bilim berar ekanmiz, albatta har bir dinning ma’naviy asoslari haqida ma’lumot berishimiz kerak. Chunonchi Yangi din o’zidan oldin mavjud bo’lgan diniy ta’limotlarning negizida vujudga keladi. Siddhartha Gautama asos solgan buddaviylik ta’limoti braxmanizm aqidalari negizida ishlab chiqilgan. Asosan ruhning abadiyligi va tanadan tanaga ko’chishi – **sansara**, uning bir tanadan boshqasiga ko’chib, qanday hayot kechirishi – **karma**, karmaning qanday bo’lishi kishining hayot yo’liga – **dxarmaga** bog’liqligi kabi ta’limotlar qabul qilingan.

Budda ta'limotidagi butun borlig' va undagi hayot falsafasi nomoddiy unsurlar oqimi va kombinatsiyasi *dharm*, qayta tug'ilishlar ramzi *sansara* hamda uning qanday kechishiga sabab bo'luvchi *karmadan (qismat)* tarkib topgan bo'lib, bu qonuniyat quyidagi *"To'rt asl haqiqat"* majmuida namoyon bo'ladi.

“TO'RT ASL HAQIQAT”:

1. SARVAM DUKHAM – butun borliq iztiroblardan iborat.
2. SAMUDAY SATYAM – iztiroblarning kelib chiqish haqiqati. Iztiroblarning manbai – ehtiros va istaklarga to'la hayot.
3. NIRODHAM SATYAM – iztiroblarga barham berish haqiqati. Iztiroblardan nirvanaga (sanskrit tilida – o'chish, so'nish degan ma'nolarni beradi) erishish orqali halos bo'dish mumkin.
4. MARG SATYAM – iztiroblardan qutilish yo'li haqiqati.



1. **SANSARA** – tug'ilish va o'lish, yaralish va yo'q bo'lish singari jarayonning davriy ravishda muttasil bir holatdan ikkinchisiga o'tib, o'zgarib turishining falsafiy in'ikosi.
2. **KARMA** – moddiy dunyodagi savob va gunoh ishlarga doir faoliyat natijasi yoki ular mohiyati va asoratining falsafiy qonuni.
3. **DXARMA** – olamdagi mujassam narsa va hodisalarning universal tartibda saqlanish qonuniyatining falsafiy nazariyasi.

Budda iztiroblardan xalos bo'lish va nirvanaga erishishning sakkiz bosqichli yo'lini ishlab chiqqan. *"To'rt asl haqiqat"*ni anglab etish Buddaning ma'naviy ko'rsatmasiga binoan, *"Sakkiz yo'l"*ni o'zlashtirishdan boshlanadi:

Kishi bu bosqichlarni birin-ketin o'zlashtiradi, bir bosqichdan boshqasiga o'tishi bilan ijtimoiy hayot zanjirlaridan ozod bo'lib, ma'naviy erkinlikka erishadi, nirvanaga Yaqinlashadi va mutlaq ruh (xudoning jismi)ga qo'shilishga tayyor bo'ladi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, **nirvana kishi ichki dunyosining shunday holatiki, unda barcha hissiyotlar, hayotiy ko'nikmalar va dunyoga qiziqishlar so'nadi.** Odam ichki o'zligidan va u orqali yashashga intilish asosida ruhning

to'xtovsiz qayta tug'ilishini hosil qiluvchi sabablardan xalos bo'ladi. Kishi ichki erkinlikka ega bo'ladi. Bu shunday erkinlik va ruhiy holatki, unga erishgan kishiga xatto xudolar ham havas bilan qaraydi.

Nirvanaga erishish yuli juda murakkab bo'lib, tashqi tomondan yordam bo'lmasa, kishi mustaqil ravishda unga erisha olmaydi. Shu bois bu yulni tanlagan kishilarga nirvanaga erishish holatida bo'lgan, lekin o'zi bosib o'tgan yo'ldan ko'proq odamlarning o'tishi uchun yordam berishga tayyor turuvchi avliyosifat odamlar — **bodxisatvalar** (sanskrit tilida — tabiatan uyg'otuvchi, ziyo beruvchi kishi degan ma'nolarni anglatadi) ustozlik qiladi.

Buddaviylik har qanday ko'rinishdagi keskinliklarga qarshi bo'lganligi sababli, nirvanaga erishish yulini tanlagan kishidan albatta tarki dunyo qilishni, hayot quvonchlaridan voz kechib, dunyo kezib yurishni talab qilmaydi. Tarkidunyolikni tanlagan odamlar odatda ibodatxona jamoalari - **sangaga** birlashib yashaydilar.

Buddaviylikda ibodatxonalar (hindularda sangalar deb ataladi) ruhoniylarning ierarxiya prinsipi asosida tashkil etilmagan Yagona tashkiloti va buddaviylikni tashviqot qiluvchi markazi bo'lib qolgan. Ibodatxonalarda jamoa a'zolaridan shaxsiy gigienaga amal qilishlari bilan birga, yashaydigan joylarining toza bo'lishi ham talab qilingan. Erkaklar sangalari bilan birga, ayollar sangalari ham tashkil etilgan. Ayollar sangalari kam sonli bo'lib, asosan aholi punktlariga Yaqin joylarda qurilgan. Bu erdagi diniy marosimlarni unga Yaqin turgan erkaklar sangalarining ruhoniylari bajarganlar.

Talabalarga buddaviylik dinidagi asosiy maqsad **sansara zanjirini uzish** va **nirvanaga erishish** ekanligini ta'kidlab o'tish joizdir. Buddizm nirvanasi ta'riflarining ichida ingliz olimi Ris Devidning bergan ta'rifi diqqatga sazovardir: "Nirvana – bu bilimimiz doirasidagi sabab-oqibat dxarmasi oqimi to'xtab, ruhning nomunosib va ezgu bo'lmagan amallardan xoli bo'lgan holati".⁷ **Nirvana** insonning barcha turmush tashvishlaridan xoli bo'lgan, istagi ham, tuyg'u-ehtirolari ham yo'q bo'lgan mutloq osoyishtalik holatidir yoki ruhning oliy holati. **Nirvanaga erishgan odam sansara kishanlaridan butunlay ozod bo'ladi. "Tiriklik azob-uqubatlaridan qutilish buddizmning kvitessensiyasi – mag'zidan iborat".⁸**

Buddizm ta'limotining e'tiborga loyiq taraflaridan yana biri insonlarning azoblari, iztiroblariga sabab nafs va nodonlik balosi. Dunyodagi barcha baxtsizliklarga insonning o'zi sababchi. "Goutam vahiya nozil bo'lgan vaqtida, hayot atalmish hayotning iztiroblarning hissiyotdan boshlanganligi ayon bo'lgan. Binobarin, hissiyotdan hayotga chanqoqlik, chanqoqlikdan mehr qo'yish, mehr qo'yishdan borliqning yaralishi, borliqdan tug'ilish, tug'ilishdan ehtiros, ehtirosdan


⁷ Введение в буддизм. Санкт-Петербург.1999 - С. 143.

⁸ Накорчевский А. Синто. Санк-Петербург. 2002 - С. 310.

umid, umiddan baxtsizlik, baxtsizlikdan xo'rlik, xo'rlikdan nochorlik va nochorlikdan iztiroblar kelib chiqqan".⁹

Talabalarga dastlab buddaviylikning sig'inish ob'ekti xudolar emas, balki "qalb ko'zi ochilgan" va borliq haqidagi haqiqatni bilishga musharraf bo'lgan kishilar ramzida ifodalanganligini ta'kidlab o'tish darkor. Eramizning I-asrlaridan boshlab esa Buddaning tasviri tosh butlarda mujassam topib, xudo sifatida sajda qilingan. Ta'limotning yana bir e'tiborli joyi, ruh haqidagi mulohazalar. Buddaning ta'kidlashicha: "**Ruh oddiy odam va o'zga din namoyandalari biladigan ma'noda mavjud emas**".¹⁰ Ayni shu o'rinda Qur'onu Karimdan quyidagi oyatni keltirsak: "**(Ey, Muhammad), sizdan jon-ruh haqida so'raydilar. Ayting: "Ruh yolg'iz Parvardigorim biladigan ishlardandir". Sizlarga juda oz ilm berilgandir**"(1. "Al-isro" surasining 85-oyati).¹¹

Ibodatxonalarda ruhoniylar diniy marosimlarni bajarish bilan birga, diniy ma'lumot olganlar, muqaddas yozuvlar matnini ko'chirganlar va boyitib borganlar. Ularning sa'y-harakatlari bilan milodiy I asrning boshlarida buddaviylikning muqaddas kitobi «**Tripitaka**» (sanskrit tilida – uch savat degan ma'noni anglatadi) yozib tugallangan.



Tripitaka uch qismga (pitaka) bo'linadi va quyidagilardan iborat:

- "**Vinaya pitaka**" beshta kitobdan tuzilgan bo'lib, unda sangalarni tashkil etish prinsiplari, jamoaga Yangi a'zolari qabul qilish tartibi, rohiblarning turmushi va dindorlar bilan munosabatlari tartibga solingan;
- "**Sutta pitaka**" (sutralar savati) hajmi bo'yicha eng katta qism bo'lib, diniy ta'limot masalalariga bag'ishlangan. Buddha va uning shogirtlariga tegishli hikoyalar, pamd-nasihatlari, afsonalar to'plamidan iborat poemalar va ularga berilgan sharhlardan tuzilgan;
- "**Abxidxamma pitaka**" (dxarma savati) ettita kitobdan iborat bo'lib, unda diniy-falsafiy va axloqiy muammolar bayon qilingan. U Buddha vahiyli sifatida

⁹ Низомиддинов Н.Ф. Жанубий Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва Исломи. Т., 2006, 66-бет

¹⁰ Кочетков А.Н. Буддизм. М., 1976 - С. 93.

¹¹ Куръони карим. Т., 1992, 198-бет.

talqin qilingan. Lekin u dastlabki ikki qismga nisbatan ancha keyin yaratilgan va ayrim buddaviylik mazhzblarida muqaddas bitik sifatida tan olinmagan.

Buddaviylik Hindistonda vujudga kelgan va u erda zafarli yurish davridan o'tib, butun Hindistonga yoyilgan. Lekin u diniy ta'limotlar o'rtasidagi kurashda hinduizm bilan raqobat qila olmagan. Natijada buddaviylik Hindistondan siqib chiqarilgan. Buning sababi quyidagilardan iborat:

1. Buddaviylik jamiyatning kastalarga bo'linishini inkor etadi. Hindistonda odamlar qadimdan tabaqalarga bo'linib yashagan. Har bir kasta o'zining an'analari va tasavvurlariga ega ijtimoiy guruh bo'lishi bilan birga, o'zining betakror madaniy qadriyatlarini yaratgan. Shuning uchun kastalarga bo'linish buddaviylik davrida ham saqlanib qolgan. Kasta tuzumiga asoslangan hind jamiyati buddaviylik yoki hinduiylikni tanlashga to'g'ri kelganda aholi jamiyatning kastalarga bo'linishini ilohiylashtiradigan hinduiylikni afzal ko'rgan;

2. Buddaviylik ta'limoti hind xalqi mentalitetiga ham mos kelmagan. Tabiatiga ko'ra, doimo umid va ishonch bilan yashaydigan, ehtirosli, quvnoq xalq tushkun g'oyalar ustuvorlik qiluvchi buddaviylikdan asta-sekinlik bilan voz kechgan;

3. Ma'lumki, buddaviylikda kuch ishlatmaslik g'oyasi tirik jonzodlarga zulm qilish va ularni o'ldirishni taqiqlaydi. Bu esa asosiy ishlab chiqaruvchi kuch bo'lgan dehqonlarning jamiyatdagi mavqei pasayishiga olib kelgan. Chunki dexqonchilikda chorva mollarining kuchidan keng foydalanilishi sababli, ular odatda og'ir mehnatdan nobud bo'lavergan.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa sabablar ta'sirida buddaviylik uzoq davom etadigan siyosiy kurash va xarbiy to'qnashuvlarsiz, tinch yul bilan o'z o'rnini hinduiylikka bo'shatib bergan. Hinduiylikning siquvi natijasida miloddan avvalgi IV—P1 asrlarda dastlab u Osiyo qitasining janubi va janubi-sharqiga, milodiy I asrdan boshlab shimoli, shimoli-g'arbi va shimoli-sharqiga yoyilgan.

Talabalarga buddaviylik dinining oqimlari haqida ma'lumot berar ekanmiz, avvalo buddaviylikdagi bo'linishning ob'ektiv sabablarini ko'rsatib o'tmog'imiz darkor.

Buddaviylikdagi ilk vujudga kelgan oqimlar – *hinayana va mahayana*. Dastlab, Budda diniy e'tiqodida farz qilingan amallar individual ravishda bajarilgan. Keyinchalik, dunyo iztiroblaridan qutulish amallari faqat individual tarzda emas, sangh – jamoa shaklida ham ado etilgan. Avomni dinga jalb etish masalasida butparastlar ikki toifaga bo'linganlar: o'z nafs ehtiyojlari – dushmanlari ustidan g'olib chiqqan *sthaviravadalar* (keksalar ta'limoti) va mukammal diniy mushohada yuritish iqtidoriga ega bo'lgan rohiblar ortidan ergashgan *mahasatlar* (sanskrit tilida “ulug' haqiqat” ma'nosida ishlatiladi). Ma'lum muddat o'tgach, bu bo'linish, rohiblar uchun nirvanaga erishishning maxsus tor yo'li “hinoyana” va rohiblikdan ozod holda barchani barobar dinga jalb etishga mo'ljallangan keng yo'l “mahayana” kabi ikki mustaqil firqaga ajralish bilan tugallangan. Demak, *dindagi ilk parchalanishning sababi, dinning keng omma ichiga olib kirish va oddiy odamlar ham nirvanaga erishib, sansaradan qutilishi mumkinligi haqidagi ta'limot*. II-asrning boshlarida Kashmirda bo'lib

o'tgan budparastlarning IV- anjumanida buddizmning parchalanganligi tan olingan. Asl e'tiqod tarafdorlari "hinayana"da birlashganlar, qolgan Yangi g'oya tarafdorlari "mahayana"da birlashgan.¹²

O'rta asrlarda buddaviylikni Xitoy va boshqa janubi-sharqiy mamlakatlarga tarqalishi natijasida *chan-buddizm, lamaizm* kabi Yangi oqimlar vujudga kelgan.

1. *Hinayana oqimi* (sanskritda *hinayana* – kichik arava) halos bo'lishning tor yo'li bo'lib, bunda dindor dunyoviy hayotdan voz kechadi va rohiblikni qabul qiladi. Rohiblar nirvanaga erishishning individual yo'lidan borib, *arxatlar* (sanskritda arhat – avliyo, nirvanaga erishgan rohib degani) darajasiga erishadilar. Arxatlar nirvanaga erishib, ruhning qayta tug'ilishini to'xtatgan avliyolardir.

2. *Mahayana oqimi* (sanskritda *mahayana* - katta arava, buyuk yo'l degani) halos bo'lishning keng yo'lidir (asosan Hindistondan iashqarida tarqalgan). *Bodxisatvaning* (sanskritda – uning mohiyati bilimdir degan ma'noni anglatadi) murabbiyligida dunyoviy kishi ma'naviy poklanish qoidalariga amal qilsa, nirvanaga erishishi mumkin. Bu yo'lni tanlagan odam quyidagi axloq qoidalari (pancha-shila)ga amal qilishi lozim:

- jonzotlarni o'ldirmaslik;
- o'g'rilik qilmaslik;
- zino qilmaslik;
- yolg'on gapirmaslik;
- ehtirosnlarni qo'zg'atuvchi ichimliklarni iste'mol qilmaslik.

3. *Chan-buddizm* – Xitoyda tarqalgan buddaviyligining nomi (VI-X asrlarda gullab-yashnagan). Mahalliy diniy qarashlar bilan muloqat natijasida daosizm ta'limotining muhim jihatlarini aks ettiruvchi chan-buddaviylik ta'limoti vujudga kelgan. *Chan* – fikrni to'plab olish, diqqatni qaratish, meditatsiya qilish degan ma'nolarni anglatadi. Ta'limoti: Hayotning asosiy maqsadi kishining ruhan moddiy dunyo bilan uzviy qo'shilishi, meditatsiya bilan shug'ullanish vositasida Halos bo'lib, Buddha bilan qo'shib ketish, harakatsizlik yordamida o'z ichki mohiyatini o'zgartirish.


4. *Vajrayana yoki tantrizm (lot. tilida tantra – ilohiy matn, magiya)* – bu yo'nalishning ta'limoti vedalar bilan bog'liq. Yogalar faoliyatining asosida tantrizmning insonlarning ichki energetik zahirasi haqidagi ta'limoti yotadi. Tantrizm ta'limotiga ko'ra kosmos bilan jism, tananing birligi borliqning energetik ibtidosini tashkil qiladi. Insonning o'zi mikrokosmos bo'lib, uning tanasi samoviy jismlarning tuzilmasi bilan bir xildir.¹³ Tantrizm ta'limoti lamaizmga katta ta'sir ko'rsatgan.

5. *Lamaizm* – Tibetdagi buddaviy rohiblarning nomidan kelib chiqqan. Tibetda XIV-asrlarda tarqalgan, tibetliklarning ibtidoiy davrga xos *bon-po* (shomonlikning bir turi) elementlarini qabul qilgan, *maxayana* va *tantrizm* (tantrizm veda dinidan kelib chiqqan, *tantra* – jimjimadorlik, sirli matn, sehrgarlik ma'nolarini anglatadi)

¹² Низомиддинов Н.Ф. Жануби-Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом.Т., 2006, 64-бет.

¹³ Радугин А.А. Введение в религиоведение. М., 1996 - С.133-134.

asosida vujudga kelgan. Hozirgacha tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. Lamaizm rivoyatlarga juda boy. Ta'limoti: buddaviylikni barcha aqidalarini qabul qilgan, tantrizmga binoan odam va koinot bir-biri bilan bog'liq voqelikdir. Yogalar amaliyoti orqali mudroq energetik ibtido harakatga keltiriladi. Lamaizmda juda ko'p xudo (budda)lar va g'ayritabiiy mavjudotlar mavjud. Xudolar guruhiga Buddha Shakyamuni boshchilik qiladi. Batxisatvalar va rohiblarga ham sig'iniladi. Dindorlar va diniy tashkilotlarga bosh ruhoniy – dalay-lama (mo'g'ul-tibetchada – dengiz kabi buyuk) rahbarlik qiladi. Diniy hayotning markazi, shuning bilan birga ma'rifiy va siyosiy markaz ibodatxona hisoblanadi.



Markaziy Osiyo Xalqlarining tarixida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. Buddizmning Markaziy Osiyoda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda grek-baktriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi. Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindistonni o'z ichiga olgan. Buddizm Hindistondan markaziy Osiyoga, undan esa buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan. Buddha dinining iadimdan keng hududlarga tarqalganligini Beruniy ham o'z asarlarida eslatib o'tgan: "Budda e'tiqodi janubga tomon Suriya hududigacha tarqalgan edi, so'ng mazdaizm siquvi ostida budparastlar Eron va Iroqdan Balxning janubidagi mamlakatlarga ko'chib o'tganlar".¹⁴

Talabalarga islomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyoda g'oyaviy turmushning muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etganni ta'kidlab o'tmoq joizdir. O'lkamiz xalqlarining Hindiston bilan Kushon davlati va Eftalit davrida yaxshi yo'lga qo'yilgan savdo-iqtisodiy munosabatlari tufayli hind madaniyati unsurlari bilan Buddha dini kirib kelgan.

"Buddizm sharqiy Eron va Movarounnahrda qaror topib, Balx hamda Buxorodek azim shaharlargacha etib kelgan...YOrkent, Xo'tan, Qashg'ar, Toshkent, Turfon, Kuchi va Qorashaharda Buddha ibodatxonalari qad ko'targan.

¹⁴ Абу Рейхан Беруний. Индия. Избранные соч. II – том. Т., 1963 - С. 37.

III-asrda mazkur maskanlarga buddizm bo'yicha tahsil olgani Hitoy budparastlari tashrif buyurganlar".¹⁵

Olimlarning ta'kidlashicha, buddaviylik zardushtiylik va moniylik dinlariga ta'siri katta. "Sayyid Nasafiyning e'tiroficha, Buddha ta'limoti Zardushtiy an'analarini vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan".¹⁶ Lekin, bir guruh mutaxassislar tomonidan zardushtiylik dini dunyoning eng qadimgi dini sifatida qayd etilgan. SHuning uchun, bu ikki qadimgi dinlarning o'zaro bir-biriga ko'rsatgan ta'siri haqida gapirsak, xaqiqatga Yaqinroq bo'ladi. Ikkinchi guruh olimlarining ta'kidlashicha, Zardusht va Moniy ta'limotlari buddizmdagi "katta g'ildirak" mazhabining yuzaga kelishida muayyan rolga ega bo'lgan.¹⁷ Yana uchinchi bir nuqtai nazarga muvofiq, "Moniy ibn Fatakning nur va zulmat kuchlari o'rtasidagi kurash g'oyasi aslida Buddha va Zardusht g'oyalarining davomi edi. Moniy Buddaning ta'limotini yaxshi o'rganib, uni moniylik adabiyotiga singdirganligi turkiy matnlarda yaqqol ko'rinib turadi".¹⁸

Buddaviylik dini bilan bog'liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar hududimizda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rin egallaydi. XX asrning 30-yillaridan O'zbekistondagi Qoratepa, Dalvarzintepa, Fayoztepalarda olib borilgan arxeologik qazilma ishlarining natijasi, buddizmning dastlab Surhon vohasida qo'nim topganligini nazariy va amaliy jihatdan namoyon qildi. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g'or ibodatxonasidir (I-II asrlar). Qoratepa er osti ibodatxonalarida saqlanib qolgan sanskrit, brahmiy va baktriy tillaridagi yozma yodgorliklar matni namunalari: "Budda diniy e'tiqod (haqida) so'zlamoqda" yoki "Bu idish sadaqa beruvchi ...Budda ulug' e'tiqod (haqida) so'zlamoqda".¹⁹

Buddaviylik odamlarning barcha insonlarni xudo oldida tengligi, xalos bo'lishning individual yo'li tanlanganligi, boshqa dinlarga munosabatda bardoshlilik, tarixiy shart-sharoitlarga moslashuvchanligi kabi xususiyatlari bilan davlat chegaralari va boshqa to'siqlardan o'tib jahon diniga aylangan. Hinduiylikning siquvi natijasida miloddan avvalgi IV-III asrlarda dastlab Osiyo qit'asining janubi va janubiy-sharqiga, milodiy I asrdan boshlab shimoli, shimoli-g'arbi, va shimoli-sharqiga yoyilgan. Buddaviylik Hindistondan tashqari birinchi bo'lib Seylon (SHri-Lanka)da davlat dini sifatida qabul qilingan. Bu erda dindorlar uyushmasidan diniy tashkilot – *sangxalar* paydo bo'lgan.

Buddaviylikning yirik markazlaridan biri Hindixitoy Yarimorolidir. Hindixitoyda Janubi-sharqiy Osiyodagi buddaviylarning 95 % ga Yaqini istiqomat qiladi. Bu erda buddaviylikning mahayana oqimi keng tarqalgan. XX asr o'rtalarida buddaviylik G'arbda ham ommalashib ketgan. Bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida Yangi buddaviylik jamoalari vujudga kelmoqda,

¹⁵ Н.Ф. Низомиддинов. Жануби-Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом.Т., 2006, 78-бет.

¹⁶ А.Низомов.Суфизм в контексте музыкальной культуры народов Средней Азии.Душанбе.,2002. - С. 30-31.

¹⁷Накорчевский А. Синто. Санк-Петербург., 2002. - С.59.

¹⁸ Рахмонов Н. Рухиятдаги нур муроди. Т., 2004, 10-бет.

¹⁹ Буддийский культовый центр Кара-Тепе в старом Термезе. М., 1972. - С.15-17.

ibodatxonalar qurilmoqda. Butun dunyo buddistlari ikki xalqaro tashkilotga barlashganlar – Xalqaro buddistlar bratstvo (markazi Bangkokda, Tailand), Osiyo buddistlarining tinchlik uchun konferensiyasi(anjumani) – markazi Ulan-Botirda, Mo'g'iliston.

Bugun dunyoda 700 mln.ga Yaqin buddaviylik diniga e'tiqod qiluvchi kishilar va 1 mln.ga Yaqin monaxlar yashaydi.

Yuqorida keltirilgan buddaviylik ta'limotidagi bahsli mavzular yuzasidan talabalar o'rtasida bahs-munozara o'tkazilsa, mazkur mavzu bo'yicha talabalarning olgan bilimlari chuqurlashadi. Ushbu masalalarga boshqa diniy konfessiyalar yondashuvi haqida ham gapirib o'tish maqsadga muvoffiqdir.

Dars yakuniga Yaqin o'qituvchi talabalarga mavzu yuzasidan tayyorlangan savollarni tarqatib, har bir talabani bitta savol bo'yicha qisqacha chiqishini (prezintatsiya) tashkillashtirishi mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Buddaviylik dinining asoschisi kim?
2. Buddaviylik dinining vatani qaerda?
3. Buddaviylik dinning vujudga kelishi sabablari qanday?
4. Buddaviylikning muqaddas kitobi haqida ma'lumot bering.
5. "Nirvana" holati buddaviylikda qanday tushuntiriladi?
6. "Karma" deganda nima tushuniladi?
7. Buddaviylikda ruh va jon masalalariga yondashuv qanday?
8. Nima uchun buddaviylik dini oqimlarga bo'linib ketdi?
9. Buddaviylining asosiy oqimlarining orasidagi farq nimalardan iborat?
10. "Mahayana" oqimi qaerlarda tarqalgan?
11. Lamaizmning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
12. Nima sababdan buddaviylik Hindistondan siqib chiqarilgan?
13. Markaziy Osiyoga buddaviylik dini qachon va qay yo'sinda tarqalgan?
14. Markaziy Osiyoda buddaviylikning qadimgi yodgorliklari Haqida nimalar bilasiz?.
15. Bugungi kunda buddaviylarning qanday xalqoro tashkilotlari bor?

6-MAVZU

XRISTIANLIK DINI

REJA:

1. Xristian dinning kelib chiqish tarixi va mohiyati.
2. Xristian dini ta'limotining nazariy asoslari va manbalari.
3. Xristian dini ta'limotini o'ziga xosligi.
4. Xristian dinidagi oqimlar.

Tayanch iboralar: din, diniy e'tiqod, Iso Masih, Jabroil, Mariyam, messiya, messiyachilik harakati, Bibliya, Injil, apostollar, xristos, Yevangiliya, Dovud,

Solomon, “Eski ahd”, Yangi Ahd”, stoiklar, Seneka, Filon, patristika, apalagetlar, katoliklar, pravoslavlar, protestantlar.

1. Talabalarga xristianlik dinining kelib chiqishi haqida gapirar ekanmiz, bu din Falestin aholisilarning dini bo’lmish Yahudiylik dinining asosida, ortodoksal ta’limotga qarshi bo’lgan qumroniyalar jamoasi bag’rida vujudga kelganligi, Falestin Rim imperiyasi tarkibiga kirganligi uchun butun imperiadagi sharoit haqida ma’lumot berishimiz maqsadga muvoffiqdir.

Hozirgi davrda e’tiqod qiluvchilarning ko’pligi (2,3 mlrd.ga yaqin) jihatidan va xalqaro miqyosda nufuzli o’pinga ega dinlardan biri xristianlikdir. Xristianlik milodiy I asrning boshlarida Rim imperiyasiniig mustamlakasi bo’lgan Falastinda vujudga kelgan. «Xristianlik» iborasi qadimgi Yahudiy tilidagi “mashiach” so’zining grek tiliga tarjimasida «xristos», ya’ni muqaddas yog’ surtilgan, messiya (mahdiy) degan ma’nolarni anglatadi.

Talabalar xristian dini vujudga kelgan davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar haqida to’liq ma’lumotga ega bo’lishlari shart. Falastin milodiy I asrda Rim imperiyasining provinsiya (viloyat)laridan biri bo’lgan. Bu davrda Rim jamiyatining inqirozi uning provinsiyalarida yanada keskin tus olgan. Falastinda yashovchi Yahudiyalar imperiyaga bo’ysundirilgan boshqa xalqlar qatori, mustamlakachilar va maxalliy hukmdorlarning zulmidan ezilganlar. Shu bois, norozi xalq mustabid tuzumga qarshi kurash olib borgan. Lekin chirigai imperiya hanuzgacha katta harbiy qudratga ega bo’lganligi sababli, qo’zg’olonlarni shafqatsizlik bilan bostirishga qodir edi. Uzoq vaqt davom etgan kurashning muntazam bostirilishi natijasida mazlum halq orasida adolatsiz tuzumni yo’q qilib, ilohiy podsholik quradigan haloskor – messiya (mahdiy) to’g’risidagi G’OYA yuzaga kelgan. Messiya haqidagi g’oya faqat diniy-mifologik xarakterga ega bo’lmay, balki xalqni ijtimoiy hayotdagi adolatsizliklar, shafqatsizliklarni tugatilishiga intilish bilan bog’liq edi.²⁰ Ayni paytda, halkning ezgu-niyatlaridan o’z maqsadi yo’lida foydalanishga intiluvchilar, ayrim zohidlar, diniy mazhablarning vakillari, hatto tavakkalchi lo’ttivozlar o’zlarini mahdiy deb e’lon qilganlar.

Messiyachilik harakati odatda mustabid tuzumga qarshi umumxalq qurolli kurashi va uning shafqatsizlarcha bostirilishi bilan yakunlanar edi. Shuning uchun hukumat messiyachilik harakatiga qarshi keskin kurash olib borgan. Biroq davlatning unga qarshi keskin tadbirlari messiyachilik hapakatini uzil-kesil yo’qota olmagan.

Demak, talabalarga messiyachilik harakati faqat davlat hokimiyatigagina emas, uni qo’llab-quvvatlovchi rasmiy mafkuraga va dinga ham qarshi bo’lganligini tushuntirish maqsadga muvoffiqdir. Shu bois ortodoksal din hokimiyatning messiyachilikka qarshi keskin kurashini qo’llashlari bilan birga, unda faol ishtirok etganlar.

Demak, messiyachilik harakati Rim imperiyasining zulmiga qarshi, mahalliy xokimiyat va ularni qo’llab-quvvatlovchi ortodoksal dinga qarshi kurash sifatida vujudga kelgan.

²⁰ Амусин И.Д. Кумранская община. М., 1994. - С. 162.

Milodiy I asrda Falastinda messiyachilik harakati shu qadar keng yoyilganki, mahalliy aholi ongida buyuk xaloskor-messiya Iso Masih (Iisus Xristos) to'g'risidagi diniy rivoyatlarning vujudga kelishi va mustahkamlanishiga sabab bo'lgan.

Iso Masihning hayoti va faoliyati **Bibliya** (Injil)ning «*Yangi Ahd*» qismi, ya'ni yevangeliyalarda (grek tilida *euangelion* — yaxshi xabar degan ma'noni anglatadi) batafsil bayon qilingan.

Diniy rivoyatlarga ko'ra, farishta Gavriil (Jabroil) kambag'al qiz Mariya (Mariyam)ga xudo unga xaloskor-messiyaning onasi bo'lishni ato etganligi haqida xabar bergan. Mariya Ota xudo (xudoniig kiyofalaridan biri)dan g'oyibdan homilador bo'lgan. Uning eri qariya Iosif (Yusuf) xotining ilohiy homiladan tuqqan (Jabroil unga ma'lum qilgan) bolasini qabul qilgai.

Iso 30 yoshga kirganidan keyin Iordan daryosi bo'yida Ioan Cho'qintiruvchidan cho'qintirishni qabul qilgan va da'vatkorlik faoliyatini boshlagan. Uning atrofida shogirdlari, qarindosh-urug'lari va Yaqinlaridan iborat maslakdoshlar guruhi shakllangan. Guruhning asosini Isoning 12 shogirdi - apostollar (grekcha *apostots* - vakil yoki arabchada havariylar degan ma'nolarni anglatadi) tashkil etgan. Iso guruh a'zolari bilan birgalikda Falastin bo'ylab sayohat qilib, odamlarni Yagona xudoga sig'inishga da'vat etgan, bemorlarni davolab, mo'jizalar ko'rsatgan.

Iso tashviqotlarda odamlarga Yagona xudo erdagi odamlarning yaratuvchisi ekanligini, xudoning erda ilohiy podsholik o'rnatilishi to'g'risidagi xabarini odamlarga etkazish maqsadida o'zining vakil kilib yuborganligini aytgan. Odamlarning ma'navin tushkunlikdan xalos bo'lishlari va ilohiy xaqiqatga erishishlari qo'lida o'zini, (ya'ni Isoni) xudoning o'g'li, xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi sifatida tan olishlariga va uning ta'limotini qabul qilishga da'vat etgan.

Falastinda Isoning uch yillik da'vatchilik faoliyati kutilgan natija bermagan, unga ergashganlar juda kam bo'lgan. Bundan tashqari, uning qarashlari iudaizm ta'limotiga mos kelmasligi, ba'zi bir muhim masalalarda unga qarshi turganligi Quddus kohinlarining keskin qarshiligiga sabab bo'lgan.

Rim davlati va qohinlar uni soxta mahdiylikda ayblab ta'qib qilganlar. Oqibatda Iso hokimiyat va rasmiy dinni badnom qilganligi uchun xochga tortib o'ldirishga hukm qilingan. Iso Masihni uchta qaroqchi bilan birga qatl qilinishi belgilangan. O'sha davrda rasman tan olingan an'anaga binoan, qatl maydonida to'plangan olomon o'limga mahkum qilinganlar orasidan bittasini afv etishhuquqiga ega edi. Shu bois, olomon qaroqchi Varravani tanlab, Iso Masihdan yuz o'g'irgan.

Diniy rivoyatlarda qayd etilishicha, Iso qatl qilinganidan keyin uch kun o'tgach mu'jizaviy ravishda qayta tirilgan va shogirdlari bilan qirq kun birga bo'lgan. Qirqinchi kun Iso shogirdlariga oxiratda yana erga qaytishini aytib, osmonga ko'tarilib ketgan.

Isoning hayot faoliyati to'g'risidagi diniy rivoyatni qisqacha shunday ta'riflash mumkin. Yevangeliyalarda qayd etilgan Isoning hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarda noaniqliklar mavjud. Masalan, havoriy Matfey o'z

evangeyaliyasida Iso shajarasini Dovud. Solomon va Ibrohim bilan bog'lashga harakat qilgan. Havariy Luka Iso Dovudning 28-avlodi ekanligini qayd etgan. Mazkur dalillarni isbotlash qiyin, chunki Dovud tarixiy manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi X asrda yashagan (ming yil davomida ularning o'rtasida bor-yo'g'i 28 ta avlod o'tganligi shubhalidir).

Yevangelialarda Isoning hayoti to'g'risida qayd etilgan ma'lumotlardagi noaniqliklar yoki xatolar uning tarixiy shaxe ekanligiga shubha tug'diradi. SHu bois uning shaxsiga munosabat masalasida afsonaviy va tarixiy maktablar shakllagan. Afsona maktabining vakillari Isoning tarixiy shaxs ekanligini inkor etadilar va Iso to'g'risidagi qarashlarning turli diniy rivoyatlardan tuzilganligini isbotlashga harakat qiladilar. Mazkur maktabning kamchiligi shundaki, unda Iso to'g'risidagi qarashlarning asosida xech qanday tarixiylik yo'q degan g'oyani isbotlashga intiladilar.

Boshqa tarixiy maktab vakillari esa Isoning tarixiy shaxs ekanligini isbotlashga harakat qiladilar. Bunda asosiy dalil sifatida yevangelialarda nomlari qayd qilingan personajlar: Ioan Cho'qintiruvchi, havariy Pavel, Rim noibi Pontiy Pilat kabilarning tarixiy shaxs ekanligi qayd etiladi. Bu maktab vakillari yana bir ishonarli dalil sifatida Yahudiy tarixchisi Iosif Flaviyning so'zlarini keltirishadi: "O'sha davrlarda Iso ismli dono bir kishi yashagan. Uning turmush tarzi maqtovg'a sazovor edi, o'zining yaxshiliklari bilan dong taratgan. Ko'p Yahudiylar va boshqa xalq vakillari unga shogird tutundilar. Pilat uni o'limga xukm qilgan. Lekin ular ustozidan yuz o'g'irmadilar. Ularning ta'kidlashicha, Iso o'limidan keyingi uchinchi kun qayta tirilib kelgan. Demak, u messiya bo'lgan".²¹ Albatta, bu dalillar uning tarixiy shaxs ekanligini isbot qilish uchun etarli emas va bunga yanada asosli dalillar talab etiladi.

1946-1947 yillarda O'lik dengiz qirg'og'ida joylashgan Qumron g'oridan arxeologlar tomonidan qadimgi Urama bitiklarning topilishi ushbu masalaga oydinlik kiritgan. Qo'lyozmalarning milodiy 1 asr o'rtalarida Falastinda faoliyat ko'rsatgan iudaizmning essinlar mazhabiga tegishli ekanligi aniqlangan. Essinlar e'tikodi, diniy marosimlari va turmush tarzi bilan xristianlikka Yaqin turgan.

Qumron qo'lyozmalari asosan injilning lavhalari, jamoaning nizomi va duolardan iborat bo'lgan. Qo'lyozmalarda «er yuzida adolat o'rnatadigan ustoz», Yangi diniy mazhabga asos solgan, iudaizm aqidalarini tanqid qilib, xristianlik ta'limotiga o'xshash g'oyalarni targ'ib qilgan tarixiy shaxs yashaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Dinshunoslik xristianlikning vujudga kelishi muammosini o'rganar ekan, Isoning hayoti va faoliyati haqida bahs yurituvchi bu ikki maktabdan birining qarashlari to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat kilmaydi. Ayni paytda, masalaga **ilmiy yondashuv milodiy 1 asrda Falastinda iudaizmning mazhablaridan biriga asos solgan va uning iudaizmdan farq kiladigan diniy ta'limotning shakllanishiga sabab bo'lgan shaxs yashaganligini inkor etmaydi.**

²¹ История древнего мира. Под. ред. Дьяконова И.М. М., 1983, Т. 3. - С. 117.

Talabalarining diqqatini iudaizmning mazhablaridan biri sifatida vujudga kelgan xristianlik uzoq davom etgan izlanishlar jarayonida mustaqil diniy ta'limotga aylanganligiga qaratishimiz kerak. Iso Masih iudaizmda mavjud kamchiliklarni tanqid qilap ekan, Yangi dinga asos solishni maqsad qilib qo'ymagan. U iudaizmdagi jaholat, butparastlikni kuchaytiruvchi jihatlarni o'zgartirishga, haddan ortiq marosimchilikka chek qo'yishga va shu yul bilan uni takomillashtirishga harakat qilgan. Yahudiy kohinlari Isoning takliflarini ral etganlar va Isoni kuch ishlatib o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur qilmoqchi bo'lganlar. Lekin bunday harakatlar zoe ketgan va kurashuvchi taraflar o'rtasidagi ixtiloflar tobora kengayib borgan. Iso iudaizmdan tobora yiroqlashgan va uning g'oyalari Yangi diniy ta'limotga asos qilib olingan.

Manbalarda qayd qilinishiga ko'ra, Iso dastlab diniy qarashlarini Falastinning Kapernaum shahri atrofida joylashgan qirliklarda targ'ib qilishdan boshlagan («Nagornaya propoved»). Isoning havariylarga qarata so'zlagan nutqlarida iudaizmga zid g'oyalar aniq namoyon bo'ladi. Ularda Iso o'zining qarashlarini «Eski Ahd»da yozilgan g'oyalar bilan munozara usulida bayon qilgan. Aytilganki, «zino qilma», men aytamanki, kimda-kim ojizalarga shahvoniy niyatda qarasa, u bilan qalbida zinoga yo'l qo'yadi. Aytilganki, «jonga-jon, qonga-qon», men aytamanki, «kimki sizning chap yuzingizga bir shapaloq ursa, siz unga o'ng yuzingizni tuting», «zulmga zulm bilan javob bermang», «dushmanlaringizga mehr-muhabbat bilan munosabatda bo'ling va hokazo.²²

Shunday qilib, Iso ta'limoti vujudga kelgan vaqtdan boshlab, iudaizm qadriyatlari qabul qilinmagan. Xudoning mohiyati muhabbat ekanligi va odamlarga yomonlik qilmasligi, uning oldida odamlarning tengligi, insonga mehr-muhabbat ko'rsatish va ulug'lash, axloqiy qadriyatlarning ahamiyati kabi g'oyalar Yangi dinning turli xalqlar orasida keng yoyilishiga sabab bo'lgan.

2. Talabalarga xristianlik ta'limotining shakllanishida ilohiyot sohasidagi izlanishlar bilan birga **ijtimoiy fikr, o'sha davrdagi falsafiy ta'limotlar va mutafakkirlarning g'oyalari ham muhim manba vazifasini o'taganligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvoffiqdir.**

Rim davlatining inqirozi natijasida, odamlarning jaholat girdobiga botib qolgan jamiyatga va ertangi kunga ishonchi yo'qolgan. Rasmiy din odamlar orasida tobora o'z mavqeini yuqotib borgan. Odamlar orasida qismatga, taqdiri azalga ishonish keng yoyilgan. Ilohiy haloskor to'g'risidagi g'oya paydo bo'lgan. Qismatga, taqdiri azalga ishonish o'sha davrdagi falsafiy maktablar ta'limotida va mutafakkirlarning qarashlarida ham dolzarb mavzuga aylangan.

Milodiy I asrda Qadimgi Rimda keng yoyilgan **stoiklar** (grekcha *stoa* — bino oldidagi ustunli uzun ayvon degan ma'noni anglatadi, maktab asoschisi Zenon yashagai Afina shahri ibodatxonasi tarhidan olingan atama) falsafiy maktabning

²² Свенцицкая И.С. Раннее христианство: страницы истории. М., 1988. - С. 68-69.

ta'limoti diqqatga sazovordir. Stoiklar talqinida dunyo bir butun, yaxlit voqelik bo'lib, undagi voqea va hodisalar umumiy tartibga bo'ysunadi. Dunyoning birligi uni vujudga keltirgan va boshqarib turadigan ilohiy Logos (xudo) faoliyatining natijasidir. Ilohiy Logos borliqdagi jarayonlarni boshqarish bilan birga uning, shu jumladan odamlarning ham taqdirini oldindan belgilaydi.

Stoiklarning taqdiri azal to'g'risidagi ta'limoti **Senekaning** qarashlarida ham mukammal bayon qilingan. Uning fikriga ko'ra, borliq moddiy va ruhiy dunyolarga bo'linadi. Moddiy dunyo ruhiy dunyoga bo'ysunadi va mustaqil faoliyatga qodir emas. Undagi tartib va mukammallik olamiy aql, yani xudo faoliyatining mahsulidir. Xudo barcha narsa va voqealarning sababchisi, taqdirni belgilovchi oliy borliqdir. Tabiat voqeliklarida ruh mavjud. Voqeliklarda mujassamlangan ruh xudo ruhining bir zarrasini tashkil etadi. Tirik mavjudotlarda joylashgan pyhlap o'z qobig'ini tark etib, «ozodlikka chiqishga» va mutlaq ruhga qo'shilishga intiladi. Diniy rivoyatlardan ma'lumki, ruhning tanani tark etishi «tabiiy» hodisadir, shunday ekan, odamlar hayotga va o'limga bir xilda munosabatda bo'lishlari kerak.

Har bir odamda ilohiy ruhning bir zarrasi mavjudligi, ularning ruhan tengligini bildiradi. Ular o'rtasidagi tengsizlik jamiyatga xos voqelikdir. Qul pok vijdoli, insonparvarligi, do'stlarga sadoqati, jasurligi kabi ma'naviy fazilatlar bilan xo'jayinidan ustun turishi mumkin. Qullik kishining jismoniy holatidir.

Seneka borliqni ilohiy dunyo va odamlar dunyosiga bo'ladi. Ular bir-birlari bilan bog'likdir. Ikki dunyo o'rtasidagi aloqachi vazifasini avliyosifat kishilar jamoasi bajaradi. Jamoa a'zolarining diniy va dunyoviy hokimiyatga itoatkorligi, zulmga qarshilik ko'rsatmasligi, jismiylikdan ruhiy etuklikni ustun qo'yuvchi, stoiklar ta'limotini yaxshi biladigan va ularga so'zsiz amal qiladigan kishilar orasidan tanlab olinishi tavsiya etiladi. Seneka targ'ib qilgan kishilardagi fazilatlar xristianlikning ma'naviy qadriyatlariga mos keladi.

Seneka davlatlarni ikki turga bo'ladi:

1. xudo va odamlarning hamkorligiga asoslanuvchi, hududi erning muayyan bir bo'lagi bilan cheklanmaydigan katta davlat;
2. hududi makonda cheklangan kichik davlat. Odamlar ikkala davlatga ham xizmat qilishlari mumkin, lekin bu dunyoda xalqlarni birlashtiruvchi ilohiy davlatni tanlagan odam yutkazmaydi.

Shu tariqa kishilar ongiga **kosmopolitizm** (grekcha **kosmopolites** - er shari fuqarosi degan ma'noni anglatadi) singdiriladi. Bu ta'limot oxiratda er yuzidagi barcha odamlarni birlashtiruvchi ilohiy podsholikni qurish g'oyasiga asoslanadi.

Seneka ta'limotidagi moddiy dunyo lazzatlarining o'tkinchiligi, odamlarga hamdardlik, kamtarona yashash, o'zini xudoga baxshida etish kabi g'oyalar xristianlik ta'limotida yanada rivojlantirilgan.

Xristianlik ta'limotining shakllanishida Aleksandriyalik **Filon** (miloddan avvalgi 20 - milodiy 54 yillar) qarashlari alohida ahamiyatga ega. Filon diniy qarashlarda ustuvorlik qilib kelgan xudoni «**mavhum, shaxsi nomalum ibtido**» deb ta'riflashga keskin qarish chirqan. Uning fikricha, agar xudo mutlaq ibtido bo'lsa, shaxsiyatsiz mavjud bo'la olmaydi, chunki uning shaxsiyati bo'lmasa, undan oldin

yana nimadir bo'lishi kerak. Xudo nafaqat qiyofaga ega, balki ezgulik, go'zallik va donolik timsolidir.


Borliq xudo irodasi va faoliyatining mahsulidir. Dunyo ko'rinmas (ilohiy) va ko'rinadigan (moddiy) qismlarga bo'linadi. Xudo moddiy dunyodan tashqarida mavjuddir. Moddiy dunyodagi barcha narsa va hodisalar, jumladan odamlarni ham xudo yaratgan. Ular xudo faoliyatining mahsulidir. Xudo odamlarning bilishi va unga ergashishi zarurligini bildirish uchun o'z o'g'lini er yuziga vakil qilib yuborgan.

Filon odamlarga xos bo'lgan illatlar - maishiy buzuqlik, o'zgalarga befarqlik, mehrsizlik, mansabparastlik, boylikka hirs qo'yish kabilarni qoralagan, odamlarning xudo oldida tengligini e'tirof etgan. Uning ijtimoiy qarashlari xristianlik ta'limotining shakllanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

II-III asrda xristianlik tarixida apologetika yoki apologetlar davri vujudga keladi. Apologetika so'zining lug'aviy ma'nosi himoya qiluvchi demakdir, ya'ni xristian dini aqidalarini turli hujumlardan himoya qilishdir. Apologetlar davlatning xristianlik dini bilan murosas qilishiga erishmoqchi bo'lganlar.

Xristianlik ta'limotining ilohiy manbalari muqaddas bitiklar va muqaddas rivoyatlarga bo'lib o'rganiladi. **Diniy rivoyatlarga ko'ra, xudo muqaddas bitiklar (yozuvlar)ni odamlarga ularning ijtimoiy-madaniy jihatdan tayyorligi darajasiga qarab, uzoq vaqt davomida vahiy qilgan.**

Xristianlikning muqaddas yozuvi **Bibliya** (arabchada **Injil**) deb ataladi. Bibliya (grekcha *biblia* - kitoblar degan ma'noni anglatadi) matnining asosiy qismi bir necha sahifadai iborat kitoblar to'plamidan tuzilgan.



Bibliya hammasi bo'lib 77 kitobdan iboratdir, ularning ko'pchiligi bir necha sahifa xolos. Bibliyaning asl nusxalari qadimiy Yahudiy, aramey va yunon (Yangi Ahd) tillarida yozilgan. Bibliya ikki qismdan iborat: Eski Ahd (Qadimgi Ahd, Eski rivoyat) va Yangi Ahd.

Talabalarga shuni ta'kidlash joizki, "Eski (Qadimgi) Ahd" iudaizmida ham, xristianlikda ham muqaddas yozuv deb e'tirof etiladi. Uning tarkibiga kanonlashtirilgan 39 ta kitob kiradi.

"Eski Ahd"ning matni Yahudiylarning muqaddas bitiklaridan tuzilgan. Uning matnini to'plash miloddan avvalgi XII asrdan boshlangai va miloddan avvalgi 11 asrga qadar davom etgan. Mazmuniga ko'ra, "Eski Ahd" Yahudiy xalqining qadimgi diniy va qabilaviy an'analarni aks ettiradi. "Eski Ahd"ga kiruvchi kitoblarni shartli ravishda bir necha guruhga bo'lish mumkin.

Injilning ikkinchi qismi «**Yangi Ahd**» deb atadadi. Birinchi qismidan farqli o'laroq, uning matni xristianlik paydo bo'lganidan keyin tuzilgan va u, odatda, Injilning «xristianlik qismi» deb ataladi. «Yangi Ahd» to'plami yevangeliyalardan tuzilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, tahminan 30 ta yevangeliya mavjud bo'lgan. SHulardan, Isoning shogirdlari bo'lmish havariylar (apostollar) Matfey, Mark, Luka va Ioannlarning yevangeliyalari, havariylarning amallari, 21 risola va Ioann vahiynomasi (yoki oxir dunyo) kabilar Injilga kiritilgan, qolgan yevangeliyalar din uchun zararli deb topilib, yo'q qilingan.

- Havariy Matfeyning yevangeliyasi
- Havariy Markning yevangeliyasi
- Havariy Lukaning yevangeliyasi
- Havariy Ioannning yevangeliyasi
- Havariylarning amallari
- 21 risola
- Ioann vahiynomasi yoki Apokalipsis (Oxir dunyo)

Yevangeliyalarda Iso Masihning hayoti, mo'jizalari va ta'limoti, havariylar Petr va Pavellarning xristianlikni targ'ib qilishlari, diniy e'tiqod va amal bilan bog'liq masalalar bayon qilingan.

Injil qismlarining nomlariga ahd so'zining qo'shib ishlatilishi xudo bilan odamlar o'rtasidagi munosabatlar uzaro ahdnoma asosida tartibga solib turilishini anglatadi. «Yangi Ahd» xudo bilan odamlar o'rtasida Iso vositachiligidagi Yangi ahdlashuv hisoblanadi.

Muqaddas rivoyatlar - xristianlik ta'limotining ikkinchi maibai. Muqaddas bitiklardan farqli o'laroq, ularni xudo cherkovga og'zaki vahiy qilgan deb hisoblanadi. Muqaddas rivoyatlar muqaddas yozuvlarning ilohiy ahamiyatini asoslaydi, ilohiy qoidalarni sharhlaydi, zamonga moslashtiradi.

Bu rivoyatlarning muhim manbalaridan biri I-VIII asrlarda xristianlik ta'limotining falsafiy va ijtimoiy-siyosiy asoslarini ishlab chiqishda ishtirok etgan ilohiyotshunos mutafakkirlar hamda “cherkov otalari”, ya'ni *patristikaning* («*patristika*» lotinchada *patres* ~ otalar degan ma'noni anglatadi) asarlari tashkil etadi. Misol uchun, “cherkov otalari” qatoriga kiritilgan ilohiyotshunoslardan *YUstin* (II asr), *Afinagor* (177 yilda vafot etgan), *Tertullian* (taxminan 160—220 yillar), *Avgustin* (354-430 yil-lar) va boshqalarni qayd qilishimiz mumkin. Ular o'z asarlarida cherkov aqidalari, xristianlik ilohiyoti va falsafasi asoslarini ishlab chiqishda beqiyos hissa qo'shganlar.²³

3. Talabalarga diniy masalalarning eng muhim jihatini diniy ta'limot - dogmatika tashkil etishini ta'kidlash darkor. Chunki har bir dinning asosida ishonch, e'tiqod yotadi. Xristianlik ta'limotining asoslari - «*e'tiqod ramzi*»ning *aqidalari* quyidagilardan iborat:

²³ Донини А. У истоков христианства. М., 1989. – С. 125-126.

1) **XUDOGA ISHONISH** - Xristianlikda xudo bitta, lekin u uch qiyofalidir. U Ota xudo, O'g'il xudo (Iso Masih) va Muqaddas Ruhdan iboratdir. Ota xudo tug'ilish yo'li bilan paydo bo'lmagan, uni hech kim yaratgan emas. Olam va undagi mavjudotlar uning faoliyati mahsulidir. O'g'il xudo (Iso Masih) mo'jizali ravishda tug'ilgan. U — xristianlikning asoschisi. Muqaddas Ruh esa Ota xudodan paydo bo'lgan²⁴. Xristianlikdagi xudo obrazi boshqa dinlardagi xudo obrazlaridan farq qiladi. Masalan, Qadimgi Gretsiya xudolari kabi shuhratparastlik, odamlar taqdiriga befarqlik, aysh-ishratga moyillik, manmanlik, shafqatsizlik, qasoskorlik na odamlarga xos boshqa illatlar unda yuk. Xudolar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro keskin kurash ham yuq. Xristianlikda xudo odamlarning aql-idroki bilan tushunib bo'lmaydigan tilsimot bo'lib, u ilohiy dunyoda mavjud. Xudo muhabbatdir. U odamlarga hech qachon yomonlik qilmaydi. Yomonlik insonning birlamchi gunohkorligi va noto'g'ri turmush tarzining natijasidir²⁵.

2) **ISO MASIHNING XALOSKOR – MESSIYA EKANLIGIGA ISHONISH.** Xudo **Adam** (Odam Ato) va **Eva** (Momo Havo)larning «birlamchi gunohi»ni afv etish va odamlarga ilohiy haqiqatni etkazish maqsadida o'z o'g'lini er yuziga yuborgan. Iso Masih erdagi hayot iztiroblari va o'limi bilan ularning gunohlarini o'z zimmasiga olgan. Odamlarga xalos bo'lishning to'g'ri yo'lini ko'rsatib, xristianlikka asos solgan;

3) **ISO MASIHNING QAYTA TIRILISHIGA ISHONISH.** Iso Masih o'ldirilganidan keyin uch kun o'tgach qayta tirilgan va 40 kundan keyin osmonga ko'tarilgan. U er yuziga yana bir marta oxiratda Dajjol (Antixrist)ni o'ldirib, o'liklar va tiriklarni so'roq qilish va ilohiy podsholikni qurish uchun qaytib keladi;

4) **ODAMNING GUNOHKORLIGI VA UN DAN XALOS BO'LISHIGA ISHONISH.** Xudo odamlarning ajdodi Adam va Evani o'zining jismiga o'xshash qilib yaratgan va ularga boqiy hayot baxshida etgan, moddiy dunyoga egalik qilish va boshqarishni buyurgan. Jannatda yashayotgan Adam va Eva xudodek bo'lishga intilib, man qilingan «*donishmandlik*» daraxtining mevasini eganlar. Oqibatda odam boshqa jonzodlar bilmaydigan yaxshilik va yomonlikni farqlay boshlagan, uyat nimaligini tushungan. Shu bois insoniyat hayotida cheksiz muammolar paydo bo'lgan. Xudo ularni bu qilmishlari uchun jazolagan: birinchidan, odamlar yalpi gunohkorlikka mahkum qilinganlar; ikkinchidan, boqiy haet imtiyozi bekor kilingan.

Xristianlikda birlamchi gunoh oqibatlaridan qutulish yullari ko'rsatilgan. Bu ish bir necha bosqichdan iborat.

• **Birinchi bosqichda** Iso Masih erga kelib, erdagi iztiroblari va *o'limi* bilan birlamchi gunohni o'z zimmasiga olgan.

• **Ikkinchi bosqichda** Iso Masih erga oxiratda yana qaytib keladi, Antixristni engib abadiy hayot, baxt-saodat xukmron bo'lgan ilohiy podsholikni vujudga keltiradi. SHu

²⁴ Васильев Л.С. История религий Востока. М.,1983. – С.86.

²⁵ Введение в культурологию /От. Ред. Е.В.Попов. М., 1996. – С.220

vaqtdan boshlab, odamlarga berilgan «birlamchi gunoh» jazosi bekor qilinadi, insonlarning baxtli va boqiy hayot davri boshlanadi;

5) **JANNAT VA DO'ZAXGA ISHONISH.** Jannat va do'zax - odamlarning o'lganidan keyin erdagi xulq-atvorlariga ko'ra ruhlari oxiratgacha turadigan joy;

6) **OXIRATGA ISHONISH.** Xristianlik ta'limotiga binoan, oxirat boshlanishidan oldin erga Antixrist keladi va qiyomat-qoyim boshlanadi. Oxir-oqibatda Iso Masih erga qaytib kelib, Antixristni engadi. O'lganlar qayta tiriladi, tiriklar va o'lganlar qayta ajrim qilinib, Yangi hayot boshlanadi;

7) **AXLOQ QOIDALARINING DINIY TA'LIMOTDAGI KATTA AHAMIYATI.** Xristianlik axloqidagi ustuvor qoidalar xudoni sevish va Yaqin kishiga bo'lgan muhabbatdir. Yaqin kishini sevish odamning o'z Yaqin qarindoshlarinigina emas, balki u bilan bevosita muloqotda bo'lgan odamlarni ham sevishini bildiradi. Xudo asosiy axloqiy qadriyat sanaladi va odamlardagi mo'minlik, haqiqatni izlash, rahimdillik va tinchliksevarlik fazilatlarini ulug'lanadi.


Demak, xristian dinida ham, boshqa dinlar singari, axloqiy masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Kishilarning o'zaro munosabatlarida samimiylik, sadoqat, ishonch, poklik va muhabbat eng asosiy fazilatlar deb ta'kidlangan.

4. Talabalarga ma'lum bir davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy shart-sharoitlar ta'sirida kelishmovchiliklar – ichki nizolar kelib chiqishi oqibatida dinlarda bir necha oqimlar vujudga kelganligini tushuntirish darkor. Xristian dini ham bundan istisno emas. VI-asrga kelib xristian dinining jamiyatdagi tutgan mavqei o'zgargan. Milodiy 329 yilda xristianlik Rimda davlat dini sifatida tan olingan. Xristianlikning davlat diniga aylanishi munosabati bilan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy mavqei o'zgargan, cherkovning mulkdorlar sinfi vakillari manfaatlarini va mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumni himoya qilish vazifalari ustunlik qila boshlagan. Davlat hokimiyati cherkovning aholi o'rtasidagi ta'sirini hisobga olgan holda, **provinsiya** (viloyat)larda ruhoniylarning **eparxiyalarini** (grekcha *eparchia* - rahbariyat, hokimiyat degan ma'nolarni anglatadi), ya'ni cherkov ma'muriy okruglarini tashkil etgan. **Eparxiyalarga arxiepiskop** (grekcha *episkopos* - nozir, nazoratchi degan ma'nolarni anglatadi) rahbarlik qilgan.

Xristianlik davlatni mustahkamlashga xizmat qilish bilan birga hokimiyat va boylik uchun kurash jarayoniga tortilgan. Usha davrda Rim davlatining zaiflashuvi cherkovning bu kurashdagi imkoniyatini yanada mustahkamlagan. Zero, kuchli markazlashgan davlat parchalanishi natijasida paydo bo'lgan kichik davlatlar cherkov kabi ittifoqchiga muhtoj edi. Aholining madadiga tayangan cherkov mavjud imkoniyatdan unumli foydalangan va siyosiy hokimiyat uchun kurashda faol ishtirok etgan. Bu kurashda **Rim va Vizantiya** xristian cherkovining yirik markaziga aylangan. **Quddus, Aleksandriya, Antioxiya** (Suriya, Arabiston, Kipr kabilarni birlashtirgan mustaqil pravoslav cherkovi) va boshqa eparxiyalar ularga bo'ysundirilgan.

- **Rim** yeparxiyasi xristian cherkovining eng qudratli tashkilotlaridan biri bo'lgan. G'arbiy Rim imperiyasi ag'darilganidan keyin (476 yil) uning xududida kichik davlatlar vujudga kelishi natijasida Rim eparxiyasining qudrati yanada ortgan. Rimda hokimiyat episkopning qo'liga o'tgan. Keyinchalik Rim episkopi papa (lotincha *papa* — ota, ustoz, murabbiy degan ma'nolarni anglatadi) unvonini olgan. VIII asrning ikkinchi yarmida Apennin Yarimorolida Papa viloyati vujudga kelgan. Rim papasi diniy va dunyoviy hokimiyatga rahbarlik qiladigan bo'lgan. Papa o'z hokimiyatini butun Rim imperiyasi hududiga va boshqa erlarga yoyishga harakat qilgan.
- Sharqiy Rim imperiyasida (**Vizantiya**) markazlashgan davlat G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan keyin ham uzoq vaqt davomida (XV asrning o'rtalarigacha) saqlanib qolgan. Konstantinopol cherkovi imperator hokimiyatiga bo'ysundirilgan. Kuchli imperator hokimiyati sharqiy cherkovni o'ziga bo'ysundirish bilan birga g'arbiy cherkovning mustaqilligini saqlab qolishga va o'z ta'sirini boshqa hududlarga yoyishiga ko'maklashgan.

Rim papasi va Vizantiya cherkovi o'rtasida xristianlikning markazi maqomini qo'lga kiritish uchun o'zaro kurash boshlangan. Bu kurash muvaffaqiyatsiz tus olib, unda goh u, goh bu tomon ustun kelib turgan. Oqibatda **1054** yilda Rim va Konstantinopol cherkovlarida uzil-kesil ajralish yuz bergan. Xristianlik shu sanadan boshlab rasman ikki yo'nalishga bo'linib ketgan. Rim papasiga bo'ysunuvchi eparxiyalar **katolik (butun dunyo)** cherkovi, Konstantinopol patriarxiga buysunuvchi eparxiyalar esa **pravoslavie (chin e'tiqod)** cherkovi degan nom olgan.



KATOLIKLAR - xristianlikning eng katta yo'nalishlaridan biri katolik cherkovidir. BMTning ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning oxirlarida katoliklarning soni 900 mln. kishini tashkil etgan. Katoliklar asosan G'arbiy, Janubi-sharqiy va Markaziy Evropada, Lotin Amerikasida keng yoyilgan. Afrika aholisining 1/3 qismi katoliklardir. Cherkov Shimoliy Amerikada kuchli ta'sirga ega bo'lib, dunyoning boshqa mintaqalarida ham keng yoyilgan.

Katoliklar **ta'limotining o'ziga xosligi** - katolitsizm ta'limotining manbaini muqaddas bitiklar va rivoyatlar tashkil etadi. Bu ikki manba xristianlikda ahamiyati jihatidan teng hisoblansa-da, katolitsizm boshqa yunalishlardan farqli o'larok, **muqaddas rivoyatlardan kengroq** foydalaniladi. **Katolitsizm**da “**cherkov otalari**”ning (patristika) ilohiyotga bag'ishlangan asarlari, **Jahon soborlari** va

Rim papasining rasmiy xujjatlari, qadimiy ibodat tajribalari muqaddas rivoyatlar sifatida qabul qilingan.²⁶

Katolitsizm aqidalari va marosimlari pravoslavienikiga Yaqin turadi. Unda pravoslaviedagi kabi «e'tiqod ramzi»ning 12 aqidasi va 7 ta sirli marosimi tan olinadi. Lekin e'tiqod ramzi aqidalariga bir qator qo'shimchalar kiritilgan. 589 yilda qabul qilingan *flioka* (lotinchadan so'zma-so'z tarjimasida o'g'ildan ham degan ma'noni anglatadi) aqidasi binoan, xudo Muqaddas Ruh, Xudo Ota va Xudo O'g'il (Iso)dan paydo bo'lgan. Mazkur aqida katolitsizmning Isoning erdagi noibi deb tan olingan Rim papasining hokimiyatini yanada mustahkamlaydi. Papa hokimiyati avliyolar va farishtalar hokimiyatidan ham yuqori qo'yiladi.

Shuningdek, katolitsizmning odam o'lganidan keyin ruhi jannat va do'zax oraliqidagi **a'rofga** tushishi to'g'risidagi aqida mavjud. Unga ko'ra, tirikligida gunohlari yuvilmagan, lekin «kechirilmas gunoh» sodir etmagan kishilarning ruhi arof olovida tozalanganidan keyin jannatga tushishi mumkin. Lekin bu murakkab jarayon, chunki ruhning a'rofdan chiqib ketishi uchun boshqa kishi o'zining ortiqcha savobini berishi lozim. Shu bois cherkov savob ishlarining zahirasini vujudga keltiradi. Arofdan qiynoqqa duchor qilingan odamlar o'z ruhlarini jannatga o'tkazish uchun zahiradan foydalanadilar. Savob ishlar zahirasi Iso Masih, Bibi Mariyam, avliyolar va dindor kishilarning ortiqcha savob ishlari, xizmatlaridan hosil qilinadi va doimo to'ldirib boriladi. Zahira doimo to'ldirib turilishi uchun cherkov kishilarni doimo savob ishlar qilishga davat etadi.

O'rta asrlarda a'rof hakidagi aqida **indulgensiyalar** (lotincha *indulgere* — marhamat qilish, shafqat qilish degan ma'nolarni anglatadi) sotishdek noxush hodisani vujudga keltirgan. Qayd etish joizki, XII asrgacha indulgensiya cherkovga xush keladigan ishlarni bajaruvchilarga, ya'ni cherkov o'rnatgan tartiblarga qat'iy amal qilganlar, muqaddas joylarni ziyorat qilganlar va salib yurishlarida ishtirok etganlarga berilgan. XII asrdan boshlab indulgensiyaning sotish tartibi joriy kilingan. Masalaning salbiy jihati shundaki, mulkdor kishi «kechirilmas gunohi»dan tashqari, barcha sodir etgan gunohlarini pul to'lab yuvishi mumkin bo'lgan. Hattoki kishi qaysi gunohi uchun qancha pul to'lashi kerakligi to'g'risidagi jadval ishlab chiqilgan. Cherkov indulgensiya sotish tartibini XIX asrgacha qo'llab kelgan.

Katolitsizmning Bibi Mariyamni ulug'lashga katta e'tibor beriladi. 1854 yilda papa Piy I Bibi Mariyamning ilohiy homiladorlik bilan tug'ilganligi to'g'risidagi aqidani tasdiqlagan. Keyinchalik Bibi Mariyam xudoning marhamati bilan birlamchi gunoh ta'siridan himoyalanganligi e'lon qilingan. Keyinchalik Bibi Mariyamning vafot etganidan keyin jasad va ruhi osmonga ko'tarilib ketganligi qayd etilgan. Ushbu aqidaga asoslanib, 1954 yilda «falakning malikasi» sharafiga bag'ishlanuvchi diniy bayramning o'tkazilishi joriy qilingan. Katoliklar Bibi Mariyamni avliyolar kabi ulug'lash bilan birga xotin-qizlarning gunohlarini xudodan so'rab beruvchi homiy deb biladilar.

²⁶ Дониини А. У истоков христианства. М., 1989. – С. 304.

Katolitsizmda Rim papasi xristianlarning rahbari ekanligi to'g'risida aqida mavjud. Katoliklar o'z e'tiqodlarini xristianlik ta'limotini to'liq ifodalaydigan yunalish deb biladilar. Shu bois Rim papasi Isoning erdagi noibi, Rimning birinchi episkopi, havariy Pavelning vorisi deb tan olinadi. 1870 yilda Vatikanda Rim papasining benuqsonligi haqidagi aqida qabul qilingan. Unga binoan, papaning rasmiy chiqishlarida din va axloq masalalarida aytgan fikrlari benuqson yoki, boshqacha aytganda, u xudoning irodasini etkazuvchi vakildir.

Ruhoniylarning ijtimoiy ahvoli masalasida katolitsizm boshqa yunalishlardan sezilarli darajada farqlanadi. Katolik cherkovida ruhoniylarning maishiy turmushida **XI asrdan boshlab selebat**, ya'ni rohib va rohibalarning turmush qurmasligi qoidasiga amal qilinadi. Ruhoniy xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi deb tan olinadi. Odamlarning o'zlari ruhoniyning yordamisiz va murabbiyligisiz mustaqil ilohiy haqiqatga erisha olmaydilar deb hisoblanadi. Ular diniy tashkilot vazifasini bajaruvchi ordenlarga birlashganlar. Katolik cherkovida **iezuitlar (Iso jamiyati), fransiskanlar, salezianlar, dominikanlar, kaputsinlar, xristian birodarlari, benediktlar** kabi katta-katta rohiblik ordenlari mavjud. Orden a'zolari kiyim-kechagi bilan bir-biridan farq qiladilar.

Talabalarga shuni ta'kidlash joizki, katolitsizmda diniy tashkilotlarni boshqarishning murakkab tizimi vujudga keltirilgan. Yuqorida qayd etilganidek, katoliklar Er sharining barcha qit'alariga yoyilgan va xalqapo markazi Vatikanda joylashgan. Unga Rim papasi rahbarlik qiladi. Vatikan Rim shahrining markazida joylashgan. Maydoui - 44 gektar. 1929 yilda Musolini hukumati va Rim papasi Piy XI o'rtasida tuzilgan Lateran shartnomasiga binoan Vatikanga shahar-davlat maqomi berilgan va u davlat suverenitetiga ega bo'lgan. Har qanday suveren davlat kabi uning xududi, chegarasi, fuqarolari, gerbi, bayrog'i va madhiyasi bor. Vatikanni dunyoning ko'p mamlakatlari tan olgan va u bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. Aksariyat xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT, YUNESKO, MAGATE, Evropa Kengashi kabilarning ishlarida Vatikan kuzatuvchilari ishtirok etadi.

Rim papasini **kardinallar** (lotincha *cardinalis* — asosiy, katta, eng muhim degan ma'nalarni anglatadi), ya'ni katolik cherkovida papadan keyin turuvchi mansabdor shaxs kollegiyasi umrbod muddatga saylaydi. Hozirgi kunda Rim papasi nemis millatiga mansub Benedikt XVI.

Vatikan davlatining asosiy qonuni sifatida Konstitutsiya qabul qilingan. Unga ko'ra, Rim papasi qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatini boshlig'idir. Davlatning Markaziy ma'muriy boshqaruv apparatiga Rim kuriyasi rahbarlik qiladi. U dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida faoliyat ko'rsatayotgan katolik cherkovi va Vatikanga buysunuvchi dunyoviy tashkilotlarning ishlarini boshqaradi, Rim kuriyasi davlat kotibiyati, 9ta kongregatsiya (lotincha *enngregatto* — ittifok, birlashma degan ma'nolarni anglatadi, davlat vazirliklari vazifasini bajaradi), 12ta kengash, 3 ta tribunal va 3 ta devonxonadan iborat.

XX asrda jahon miqyosida demokratik jarayonlarning tobora keng yoyilishi katolik cherkovini boshqarishida ham muayan o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Cherkovni boshqarishda demokratiya qadriyatlar joriy qilingan, milliy

cherkovlarning vakolatlari kengaytirilgan. Rim papasi huzurida maslahat ovozigaga ega muqaddas **Sinod** tashkil etilgan. Sinod uch yilda bir marta chaqiriladi. Uning tarkibi milliy epis-koplar konferensiyalari va rohiblar ordenlarining rahbarlari, Sharqiy cherkovlarning patriarxlari va mitropolitlari hamda papa shaxsan tayinlagan ruhoniylardan iborat. Sinod katoliklarning hayoti va e'tiqodi bilan bog'lik eng muhim masalalarni muhokama qiladi va ular yuzasidan bajarilishi shart bo'lgan qarorlarni qabul qiladi.

Cherkov boshqaruvi sohasidagi o'zgarishlar diniy ta'limot va uning ijtimoiy doktrinasida ham modernizatsiya jarayonlarni kuchaytirdi. Bu jarayonlar kam o'zgaruvchan diniy ta'limotda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Diniy ta'limotdagi modernizatsiya jarayonlari ta'sirida katolik cherkovining ustunligi to'g'risidagi g'oyadan voz kechildi, umumiy xristianlik g'oyalari atrofida birlashish zarurligi tan olindi. Xristianlik konfessiyalarini birlashtirish to'g'risidagi **ekuminizm** (grekcha *aikumene* — odamlar yashaydigan dunyo, olam degan ma'nolarni anglatadi) g'oyasi qabul qilindi. Mazkur voqea konfessiyalararo munosabatlarning yaxshilanishida alohida ahamiyatga ega bo'ldi, chunki shu vaqtgacha katolitsizm xristianlarni faqat katolik cherkovi ta'limoti asosida birlashtirish mumkin, deb hisoblar edi. Katolik va pravoslav cherkovlarining 1054 yildagi bir-birini la'natlash to'g'risidagi qarorlari bekor qilindi. *Uniat* (xristianlik tashkilotlarining katolik cherkovi bilan ittifoqini yoqlovchi oqimlar)larga pravoslavie yoki boshqa oqimlar sirli marosimlarini qabul qilish huquqi berilgan.

Cherkovning ijtimoiy ta'limoti (doktrinasida) ham jiddiy o'zgarishlar mavjuddir. Doktrinaning hozirgi sivilizatsiyaga munosabati masalasida pessimistik qarashlar ustunlik qiladi. Chunki cherkov hozirgi zamon sivilizatsiyasi chuqur inqirozga uchragan deb biladi. Inqirozning moddiy sababi — olamshumul (global) muammolarni hal kilinmaganligi.

Xulosa qilib aytganda, katolik cherkovi xristianlikning etakchi yo'nalishlaridan biri sifatidagi ahamiyatini saqlab qolgan. Uning tarkibidagi rasmiy va muxolif yo'nalishlar ijtimoiy hayotdagi turli manfaat va ehtiyojlarni to'liqroq ifodalashga yordam beradi.

Son jihatdan unchalik katta bo'lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim nohiyalarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzildi, uning qoshida respublikamizning boshqa xududlaridan ro'yxatdan o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

PRAVOSLAVLAR - xristianlikda, katolik cherkovi bilan bir vaqtda pravoslavie yo'nalishi vujudga kelgan. Pravoslavie Fapbiy Rim imperiyasidagidan keskin farq qiladigan ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhitda rivojlangan. Vizantiyada markazlashgan davlat hokimiyatining kuchli boshqaruv tizimi Fapbiy Rim imperiyasi qulaganidan keyin yana uzoq vaqt davomida saqlanib kelgan. Davlatga imperator rahbarlik qilgan. Imperator cheklanmagan xokimiyatga ega bo'lib, unga Konstantinopol cherkovi ham bo'ysungan. Cherkov davlat apparatining tarkibiy qismiga aylantirilgan va u imperiya manfaatlariga xizmat qilgan.

Sharqiy Rim imperiyasi hududida qadimgi madaniy markazlarning mavjudligi Konstantinopol cherkovidan mustaqil cherkovlarning ajralib chiqishiga shart-sharoit yaratgan. III—IV asrlarda Sharqiy Rim imperiyasi xududida Konstantinopol cherkovidan tashqari, Aleksandriya (Misr) Antioxiya (Suriya), Ierusalim (Isroil) kabi mustaqil cherkovlar paydo bo'lgan va undagi bo'linish jarayoni keyingi davrlarda ham davom etgan.

Sharqiy Rim (Vizantiya)da mustaqil cherkovlarning mavjudligi bu erda aslo diniy-siyosiy markaz yo'qligini anglatmaydi. XI asrgacha Vizantiya imperiyasi Sharqning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan. Konstantinopol cherkovi imperiya xududidagi mustaqil cherkovlarni vaqtinchalik bo'sundirib, xristianlikning markaziga da'vogarlik qilib, Rim papasiga qarshi kurash olib borgan.

Sharqiy cherkov rasman grek-kafolik cherkovi deb atalgan. «Cherkov» atamasiga «kafolik» so'zining qo'shib ishlatilishidan, uning o'z e'tiqodini katolitsizm kabi jahon diniga aylantirishga intilganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Sharqiy Rim imperiyasidagi vaziyat tamoman boshqacha bo'lgan. Keyinchalik islom davlatlarining qattiq siquvi imperiyani siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashtirgan. Birin-ketin unga bo'sundirilgan cherkovlar yana mustaqilligini tiklab olgan.

Hozirgi davrda 15 ta **avtokefal** (grekcha - *autox* o'zim *kephale* — boshman, ya'ni mustaqil degan ma'nolarni anglatadi) pravoslav cherkovi mavjud. Bular - Konstantinopol (Turkiya), Aleksandriya (Misr), Antioxiya (Suriya, Livan) Ierusalim (Isroil), Rus, Gruziya, Serb, Rumin, Volga Kipr, Ellada, Alban, Polyak, CHexiya va Amerika cherkovlaridir. Avtokefal cherkovlar bilan birga avtonomiya maqomidagi Sinay Fin va Yapon cherkovlari faoliyat olib bormoqda. XX asrning oxirlarida, Sharqiy Evropadagi siyosiy jarayonlar sababli, avtokefal cherkovlarning soni yanada ortdi. Bu cherkovlar turli ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda faoliyat ko'rsatadilar va zamonning dolzarb muammolariga turlicha munosabat bildiradilar.

Pravoslavie ko'plab avtokefal cherkovlardan tashkil topgan bo'lsa ham, Konstantinopol cherkovi uning markazi maqomini saqlab qoldi. Shunga binoan, Konstantinopol patriarxi rasman jahon pravoslavie cherkovining **boshlig'i** hisoblanadi. Konstantinopol patriarxi avtokefal cherkovlarning ichki va tashqi ishlariga aralashish huquqiga ega emas. Avtokefal cherkovlarning e'tiqod va amal masalalaridagi mustaqilligi ularni tashkil etgan markaz (Konstantinopol cherkovi) bilan tuzilgan o'zaro bitimda belgilangan. Avtokefal cherkov tarkibidagi avtonom cherkov boshliqlari mahalliy cherkov yig'inida saylanadi va avtokefal cherkov patriarxining tasiridan o'tadi.

Avtokefal cherkovlar **ekzarxat** (grekcha *exarhos* — boshliq, rahbar degan ma'nolarni anglatadi, viloyat cherkovi, unga episkop rahbarlik qiladi), **eparxiya** (cherkovning ma'muriy okrugi, unga arxierey rahbarlik qiladi) hamda **blagochinielarga** (eparxiyaning tumanlari, unga katta pop rahbarlik qiladi) bo'linadi. Pravoslaviening quyi diniy ma'muriy birligi qavm deb ataladi. Qavmlar cherkov, butxona xodimlari va dindorlar jamoasidan iborat. Diniy tashkilotlar ierarxiya, ya'ni


kuyi tashkilotlarning yuqori tashkilotlarga bo'ysu-nishi va hisob berishi prinsipi asosida boshqariladi.

Bu prinsip ruhoniylar darajasida ham amal qiladi. Unga ko'ra, kichik martabali ruhoniylar yuqori martabali ruhoniylarga bo'ysunishlari kerak. Ruhoniylar darajasi bilan birga uylangani (OQ) va uylanmaganiga (qora, rohiblikni tanlagan) qarab ham ajratiladi. Diniy tashkilotlar uchun mutaxassislar va rahbar kadrlar asosan rohiblar orasidan tanlanadi.

Pravoslavie cherkovlari diniy ta'limot, marosim va aqidalar masalasida bir-biridan farq qilmayli. Diniy ta'limot asosini «etiqod ramzi» tashkil etali. «Etiqod ramzi» 12 paragrafdan iborat bo'lib, unda diniy ta'limotning asosiy aqidalari:

xudoning yaratuvchiligi, uning dunyo va insonga munosabati, xudoning yagona, lekin uch qiyofada ekanligi, o'z qiyofasini o'zgartirishi, odamlar gunohini o'z zimmasiga olishi, o'lib kayta tirilishi, ohirat, cherkovning xaloskorligi aks ettirilgan.

Pravoslavie ta'limotiga ko'ra, xudo bitta, lekin u uch qiyofalidir: Ota xudo, o'g'il xudo va Muqaddas Ruh, Xudoning qiyofalari teng va bir-biridan ajralmasdir. Muqaddas Ruh Ota xudodan kelib chiqqan.



Pravoslav xristianlar birinchi insonlar — Adam va Eva sodir etgan dastlabki gunoh, o'g'il xudo (Iso Masih)ning ilohiy ravishda tug'ilganligi, odamlar gunohini o'limi bilan o'z zimmasiga olganligi, oxiratda tiriklar va o'liklarni qayta so'roq qilish uchun erga qaytib kelishi hamda ilohiy podsholikni ko'rishiga ishonadilar. SHuningdek, pravoslaviyada ham jannat va do'zax, ruhning abadiyligi, cherkovning xudo va odamlar o'rtasidagi VOSITACHILIK vazifasini bajarishi to'g'risidagi ta'limotlar mavjud.

Har bir diining o'z marosimlari bo'lganidek, pravoslaviyada etti sirli marosim alohida ahamiyatga ega. Bu marosimlarning sirli deb atalishiga sabab shuki, ruhoniylarning muayyan harakatlarni bajarishlari va duolarni o'qishlari bilan ob'ektga odamning ko'ziga ko'rinmaydigan xudoning marhamati o'tadi.

Sirli marosimlar quyidagilardan iborat:

- 1. cho'qintirish marosimi**
- 2. non va vino tortish marosimi** xristianlikda ikkinchi, lekin ahamiyatiga ko'ra, juda muhim sirli marosim hisolanadi. Bu barcha oqim va mazhablar qabul qilgan marosim. Diniy rivoyatlarda aytilishicha, Iso birinchi marta o'z shogirdlari bilan maxfiy kecha kunida bu marosimni o'tkazgan. Keyinchalik xristian cherkovi Iso

Masih o'tkazgan marosimni qabul qilgan. Shu bois sirli marosimdan o'tkazilayotgan kishiga xudoning jismi va qoni timsoli bo'lgan non va vino iste'mol qildiriladi. Bu bilan insonning Isoga Yaqinlashishi va abadiy hayotga daxldor bo'lishi mumkin deb hisoblanadi.

3. *tavbo-tazarru qilish marosimi* IV--V asrlarla xristianlikda sirli marosim sifatida qabul qilingan. Pravoslavieda bu marosim dindor kishi hayotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Dinda buyurilgan amallarni yoki cherkov qoidasini buzgan kishi tavba qilib, qilgan gunohini ruhoniya aytadi. Marosim quyidagi bosqichlarga bo'linadi: birinchi bosqichda odam ruhoniya sodir etgan gunohi to'g'risida hisob beradi, ya'ni marosim odamning o'z gunohini anglashiga uni qayta takrorlamasligiga va ma'naviy poklanishga yordam beradi, gunohini engillashtiradi; ikkinchi bosqichda maxsus vakolatga ega ruhoniya Muqaddas Ruhning kuchi bilan ushbu insonning gunohini kechiradi.

4. *miro surtish sirm marosimi* cho'qintirish sirli marosimidan keyin o'tkaziladi. Uni bajaruvchi ruhoniya xushbuy miro yog'ini kishining peshonasi (fikri), ko'kragi (yuragi, his-tuyg'ulari, istaklari), ko'zi, burni va quloqlari (mayllari), shuningdek qo'l-oyoqlari (xatti-harakatlari)ga xoch shaklida surtadi. Miro yog'ini surtish vaqtda sirli ravishda xudoning marhamati o'tadi va shu tariqa uning pokligi saqlab qolinadi, ma'naviyatining yuksalishiga erishiladi, deb hisoblanadi;

5. *nikoh sirli marosimi* katolitsizmda XII asrda vujudga kelgan va XVI asrdan boshlab sirli marosim sifatida qabul qilingan. Pravoslavieda bu marosim alohida o'rin tutadi, chunki oila kishilar jismoniy va ma'naviy birligining boshlang'ich bo'g'inidir. Oila jamiyatning tayanchi, abadiy hayot timsolidir.

6. *muqaddas zaytun moyi surtish marosimi* bemor odam uchun bajariladigan sirli tadbir. Marosimda bemorning peshonasi, yonog'i, labi, ko'kragi va qo'llariga muqaddas zaytun yog'i surtiladi. Ruhoniya bularni amalga oshirish davomida

duolar o'qib, bemorning sog'ayib ketishiga xudodan yordam so'raydi. Diniy ta'limotga binoan, zaytun moyini surtish marosimi mo'jizaviy davolovchi kuchga ega bo'lib, bemorni gunohlaridan xalos qiladi. Bu marosim ruxoniylikka qabul qilishda ham o'tkaziladi;

7. *ruhoniylar unvonini berish marosimi* jamiyatda alohida guruhni tashkil etgan ruhoniylar uyushmasi paydo bo'lganligi sababli joriy qilingan. Pravoslavieda bu marosim alohida ahamiyatga ega bo'lib, uni rohiblikni ixtiyor qilgan kishining boshiga yuqori martabali ruhoniya qo'lini qo'yib bajaradi. Marosim davomida rohiblikka qabul qilinayotgan kishiga sirli ravishda xudoning marhamati o'tadi hamda u xudo va odamlar o'rtasida vositachilik qilish huquqiga ega bo'ladi, deb hisoblanadi.

Talabalarga Pravoslav cherkovining Markaziy Osiyodagi faoliyati uzoq o'tmishimiz bilan bog'liq ekanligi haqida ma'lumot berishimiz maqsadga muvoffiqdir. XI asrning oxirlarida xristianlikning Sharqqa tomon harakati va

tarqalishi ommaviy tus olgan. Bu dini mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Saarning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (Merke)da xristian cherkovlari qurilgan bo'lib, Samarqandda 301 yildan, Marvda 334 yildan, Hirotda 430 yildan, Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida episkoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik 6-12 episkoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo'lgan. X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo'lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham Marvda pravoslav mitropoliyasi bo'lgan.²⁷

2014 yilda O'rta Osiyo pravoslav cherkovi yeparxiyasi tashkil etilganligining 142 yilligi nishonlandi. Bu erda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar qatorida pravoslav cherkovi islom dinidan keyingi o'rinda turadi. Barcha konfessiyalar kabi pravoslav cherkovi ham mintaqada tinchlik, barqarorlik, milliy totuvlik, diniy bag'rikenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

PROTESTANTLAR - xristianlikning katta yo'nalishlaridan yana bittasi - protestantizmdir (lotincha *protestans* qarshi chiquvchi, norozi degan ma'nolarni anglatadi). U XVI-XVII asrlarda G'arbiy Evropadagi feodal tuzum va uning mafkuraviy tayanchi bo'lgan reaksiya katolitsizmga qarshi kuchli ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va diniy harakatlarning boshlanishi sababli vujudga kelgan. Harakat ishtirokchilari katolik cherkovini yevangeliyalar g'oyalaridan chekinishda ayblab, uni asl holatiga qaytarishni talab qilib chiqqanlar. Bu tarixda «reformatsiya harakati» (lotincha *reformatio* — o'zgarirish, to'g'rilash kabi ma'nolarni anglatadi) deb ataladi.

Reformatsiya harakati chuqur tarixiy ildizga ega. Harakat boshlanishidan oldingi davrlarda ham ruhoniylarning ma'naviy buzuvchiligi, o'z vazifasini suiste'mol qilishlari, dabdabavozliklari, kishilarga befarqlik, tamagirlik va rasmiyatchilik kabi illatlari ilg'or jamoatchilik vakillari tomonidan keskin tanqid qilingan. Jumladan, Oksford universitetining professori J.Viklif va Praga universitetining professori Ya.Gusning chiqishlarini alohida qayd etish lozim.

Germaniya va Shveysariya reformatsiyaning markazlari edi. Ushbu harakag keyinchalik G'arbiy Evropaning boshqa davlatlariga yoyilgan. **Martin Lyuter** (1483—1546), **Tomas Myunser** (1430-1525), **J.Kalvin** (1509-1564) reformatsiya hapakatining tashkilotchilari va rahbarlari hisoblanganlar,

Urta asrlarda katolik cherkovi asosiy boylik sanaluvchi er maydonlarining katta qismiga egalik qilgan. Aholi daromadning o'ndan bir qismini soliq shaklida cherkovga to'lagan. Ruhoniylar tushumlarni ko'paytirish maqsadida xizmat to'lovlari miqdorini oshirib borish bilai birga mansabni suiste'mol qilish, tamagirlik, poraxo'rlik kabi vositalardan foydalanar edilar. **Indulgensiyalar** (lotincha *ihduigefida* - rahm-shafqat degan ma'noni anglatadi) sotish keng qullanilgan. Ruhoniylarnmng ma'naviy buzuvchiligi, befarqligi, beg'amligi shu darajada keng ildiz otgan ediki, cherkov uni o'z doktrina-sida ham aks ettirishga majbur bo'lgan. Doktrinaga binoan, ma'naviy fazilatlaridan qat'i nazar, diniy marosimni ruhoniylar bajaragan bo'lsa, ilohiy ahamiyatini yo'qotmagan.

²⁷ Диншунослик асослари. Т., 1995. - 51-бет.

Katolik cherkovidagi «nosog'lom» munosabatlar reformatsiya harakatining vujudga kelishida muhim rol o'ynagan bo'lsada, lekin uning asosiy sababi o'z umrini yashab bo'lgan feodal munosabatlardir. Feodal jamiyat negizida vujulga kelib, ijtimoiy mavqeini tobora mustahkamlab borgan burjuaziya hokimiyat uchun kurashda dastlab eski jamiyatning mafkuraviy tayanchi sanalgan katolik cherkovini mag'lubiyatga uchratishi lozim bo'lgan.

Reformatsiya harakati dastlab Germaniyada Martin Lyuterning Rim papasiga qarshi chiqishidan boshlangai. 1517 yil 31 oktyabrda Martin Lyuter o'z qarashlarini 95 ta tezisda bayon etib, uni Vittenberg shahar cherkovlaridan birining darvozasiga osib qo'ygan.

Martin Lyuter rohiblikni bekor qilish, diniy marosimlarni soddalashtirish va cherkovni dunyoviy xokimiyatga bo'ysundirish kabilarni talab qilib chiqqan. Uning talablari Germaniyada endigina shakllana boshlagan burjuaziyaning manfaatlariga mos kelgan.

Bir guruh lyuterchi nemis knyazlarining talabi bilan Shpeyer Reyxstag har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xoxlagan dinni tanlash xukukiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Lekin Germaniyada Rim papasiga qarshi kurash olib borishga qodir kuchli, markazlashgan davlat yuq edi. Rim papasining tazyiqi bilan 1529 yilda Reyxstag bu qarorni bekor qilgan. Reyxstagning qaroriga javoban, 5 nafar nemis knyazi va 14 nafar imperiyaning shaharlari Reyxstagdagi ko'pchilikka qarshi norozilik (protest) bildirganlar. Mazkur voqeadan keyin xristianlikda reformatsiya natijasida paydo bo'lgan Yangi yunalish «protestantizm» deb atala boshlangan.

XVI asrning birinchi yarmida reformatsiya harakati Evropaning boshqa davlatlariga yoyila boshlagan. Bu harakatning yirik markazlaridan biri Shveysariya edi. Mamlakatning Jeneva va Syurix shaharlaridagi harakatlarga J.Kalvin va U.Svingli rahbarlik qilganlar. Shveysariyadagi reformatsiya harakata protestantizmga Yangi kalvinizm oqimini vujudga keltirgan. **Kalvinizm** - burjuaziyaning katolik cherkoviga qarshi kurash timsoli edi. Oqimda umum e'tirof etgan e'tiqod ramzi yo'q. Injil esa diniy ta'limotning Yagona manbai hisoblanadi. Taqdiri azal haqidagi ta'limot oqimning asosiy g'oyalardan biridir. Kalvinning fikricha, xudo ayrim kishilarni abadiy rohat-farog'atda, ayrimlarni do'zax azobida qiynalib yashash uchun yaratgan. Lekin har qanday kishi azoblardan xalos bo'lishi mumkin, chunki xudo uni yolg'izlatib qo'ymaydi. Xudoning marhamati tushgan kishi tashabbuskor bo'lishi va abadiy rohat-farog'atda yashashga loyiq ekanligini isbotlashi kerak. Bunday kishi tadbirkor va har ishda omadli bo'ladi. U dunyoning lazzatlaridan tiyilishi, tejamkor bo'lishi va kamtarona yashashi kerak.

O'rta asrlarda diniy marosimlarda qo'llanib kelingan ikonalar, sham yoqish, xoch va boshqa vositalardan foydalanishdan voz kechilgan. Sirli marosimlardak faqat ramziy ma'nodagi cho'qintirish, non va vino tortishdan foydalanilgan. Asosan cherkovda va'z o'qishga katta e'tibor berilib, marosim diniy qo'shiqlar va xudoga sig'inishlar bilam to'ldirilgan. Dindorlar jamoasini saylab qo'yiladigan *presviterlar* (grekcha *presbyteros* — oqsoqol degan ma'noni anglatadi, xristian cherkovidagi ruhoniylar kishi) va *pastorlar* (lotincha *pastor* — cho'pon, podachi degan manolarni

anglatadi, protestant cherkovining xizmatchisi) boshqargan. Ular ayni paytda diniy marosimlarga rahbarlik ham qilganlar. Diniy tashkilotlarga esa avtonomiya hukuki berilgan.

Reformatsiya harakatining yirik markazlaridan yana biri Angliya bo'lgan. Bu mamlakatda reformatsiya yuqori tabaqalarning tashabbusi va boshchiligida amalga oshirilgan. 1531 yilda Angliya parlamenti katolik cherkovi aqidalari va marosimlarini saqlab qolgan holda cherkovning Rim papasidan mustaqilligi to'g'risida qaror qabul qilgan. Cherkovga rahbarlik qilish vakolati esa qirol zimmasiga yuklatilgan. Barcha monastirlar yopib tashlanib, cherkov mulklari muso-dara qilingan. Rim papasiga qarshi kurash tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan yakunlangan. 1571 yilda Angliya parlamenti e'tiqod ramzi to'g'risida deklaratsiya qabul qilgan. Ushbu xujjat asosida **anglikan** cherkovi vujudga kelgan.

XVI asrda protestantizm yunalishining asosiy okimlari lyuteranlik, kalvinizm va anglikanlar cherkovi vujudga kelgan. Lekin yunalish tarkibida oqimlarning shakllanish jarayoni hozirga qadar davom etmoqda. Ular qatoridagi baptistlar, metodistlar va pyatidesyatniklar oqimlarini misol keltirish mumkin. Protestantizm yo'nalishining turli oqimlardan tashkil topganligi ular o'rtasida diniy ta'limot, aqida va marosimlarda umumiylik bormi, degan savol tug'diradi.

Protestantizm ta'limotida cherkov va rohiblarning xudo va odamlar o'rtasidagi vositachilik vazifasi inkor qilinadi. Unda har bir kishining xudo bilan bevosita muloqot qilish va xalos bo'lish imkoniyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu aqidaning qabul qilinishi natijasida dindorlar zimmasidagi og'ir yuk bo'lmish hashamatli monastirlarni qurish va ko'p sonli rohiblarni boqish zarurati o'z-o'zidan barham topgan.

Odamlarning xudo bilan bevosita aloqa o'rnatishi haqidagi aqidadan har bir dindorning ruhoni bo'lishi to'g'risidagi aqida paydo bo'lgan. Unga binoan, protestantlik e'tiqodini qabul qilib, cho'qintirilgan kishi va'z o'qish va diniy marosimlarni bajarish huquqiga ega bo'ladi. Bu ruhoniylarning umuman inkor qilinishini bildirmaydi, protestant ruhoniylari xristianlikning boshqa yunalishlaridagidan farqlanadi. Ruhoniylar dindorlar jamoasi tomonidan saylanali va faqat unga hisob beradi. Ularga dindorlarning tavba-tazarrusini qabul qilish va gunohlarini kechirish huquqi berilmagan. Bunday ruhoniylarning oila qurishlari mumkin va ular uchun selibat (lotincha *caliebs* - uylanmagan degan ma'noni anglatadi) qasami bekor qilingan.

Injil - diniy ta'limotniig asosiy manbai. Muqaddas rivoyatlar, ya'ni Rim papasining hujjatlari, «cherkov otalari»ning asarlarining ilohiy mazmunga egaligi tan olinmaydi, lekin ulardagi Injilning mazmunini aks ettiruvchi qismlaridan foydalaniladi. Injilni dindorlar ona tilida o'qishlari e'tirof etilgan. Har bir kishi o'z ona tilida diniy marosimlarni bajarish va Injilni mustaqil tafsir qilish huquqiga ega.


Protestantizmning asosiy aqidalari sifatida qabul qilingan odamlarning gunohkorligi va Isoning birlamchi gukojni yuvish uchun o'zini qurbon qilganligiga ishonish bilan xalos bo'lish mumkinligi g'oyasi targ'ib qilinadi. Sirli marosimlar,

zohidlik, savob ish qilish kabilar kishinnng xalos bo'lishiga yordam berolmaydi. Odamlarning ichki tabiati birlamchi gunoh ta'sirida tamoman o'zgarganligi bois ular xudoning ko'magisiz, mustaqil yaxshilik qilish imkoniyatiga ega emas. Yaxshilikning namoyon bo'lishi insonning shaxsiy xislati emas, balki xudoga bo'lgan muhabbatining samarasidir. Odam gunohkor va gunohdan xalos bo'lish uchun xudoni doimo yodda tutishi, unga **SIG'INISHI** kerak. By amal bilam mustahkamlanmasa, kutilgan natijani bermaydi. Odam o'zining kundalik vazifalarini sidqidildan bajarishi lozim. Uz vazifalariga sidqidildan yondashish kishining xudoga nisbatan munosabati qanchalik samimiy ekanligidan dalolat beradi.

Protestantizmدا taqdiri azalga ishonish mavjud. Unga ko'ra, xudo kishining tug'ilishidan oldin taqdirini belgilab qo'yadi. Odamning erdagi hayotida xudo uning taqdirini qanday belgilaganini bilib bo'lmaydi. Lekin insonning mehnatsevarligi, ishdagi omadliligi, tijoratdagi yutuqlari, badavlat va baxtli yashashi kabilar unga xudoning nazari tushganligi va poklanish belgilari sifatida qabul qilinadi.

Protestantizmدا diniy marosimlar soddalashtirilgan va ortiqcha xarajatlarga yo'l qo'yilmaydi. Ibodatlar va'z va duo o'qish, **psalom** (diniy qasida va ashula)lar kuylash, Iijildan napchalap o'qish bilan cheklanadi. Marxumlar ruhiga, Bibi Mariyam, avliyolar va ikonalariga sig'inish, a'rofga ishonish kabilar bekor qilingan. Ibodatxonalardan hashamatli va ko'p chiqim talab qiluvchi jihozlar (qo'ng'iroqlar, mehroblar, ikonalar, haykallar va boshqa bezaklar) olib qo'yilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, protestantizm yo'nalishi Fapbiy Yevropada katolik cherkovining zo'ravonligi, odamlar taqdiriga befarqligi, ma'naviy aynishi, boylikka o'chligi, ijtimoiy va madaniy hayotdagi taraqqiyparvar o'zgarishlarga to'sqinligiga qarshi bo'lgan Yangi ijtimoiy-siyosiy kuchlar mafkurasi sifatida vujudga kelgan. Talabalarga qayd etish joizki, katolik cherkoviga qarshi qaratilgan ijtimoiy-siyosiy harakat dahriylik harakati emas balki, cherkovdagi illatlarga, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi katolitsizmga qarshi qaratilgan harakat bo'lgan.



Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanchilik, kalvinizm, svingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik "so'nggi protestantlik" umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar paydo bo'ldi.

Talabalarga hududimizdagi protestant yo'nalishlari haqida ma'lumot berib o'tishimiz dardkor. Markaziy Osiyoda protestant yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. O'z muxlislarining soni jihatidan eng kattasi – baptistlar (yunon. suv bilan cho'qintirish) birlashmasidir.

Dars yakuniga Yaqin o'qituvchi talabalarga mavzu yuzasidan tayyorlangan savollarni tarqatib, har bir talabani bitta savol bo'yicha qisqacha chiqishini (prezintatsiya) tashkillashtirishi mumkin.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Xristianlikning vujudga kelishi sabablari nimalardan iborat?
2. Xristianlik ta'limotining asoslarini aniqlang.
3. Xristianlikning muqaddas rivoyatlariga qaysi manbalarni kiritishimiz mumkin?
4. Qachon va nima sababdan xristianlikda bo'linish vujudga kelgan?
5. Katolitsizmning xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Katolitsizmda cherkovlarni boshqarishning o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
8. Protestantizmning katolitsizmdan farqlarini aniqlang?
9. Pravoslavieda nima sababdan avtokefal cherkovlar yuzaga kelgan?
10. Protestantizm qachon va qanday sabablarga ko'ra vujudga kelgan?
11. Protestantizmning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

7-MAVZU ISLOM DINI REJA:

1. "Johiliya" davri.
2. Islom dinining vujudga kelishi va tarqalishi.
3. Islomdagi asosiy oqim va mazhablar.

Tayanch so'z va iboralar: Hijoz, quraysh, haniflar, muslim, umma, halifa, vahiy, Qur'on, sunnat, suhuf, sura, Usmon mushafi, ro'za, zakot, shariat, farz, mandub, muboh, makruh, harom, xorijiyalar, ibodiyalar, shialar, mazhab, mutakallimlar, mu'taziliylar.

1. Islom dini yuzaga kelishi jihatidai jahon dinlari ichida uchinchi o'rinda turadi. Islom dini Yaqin va Urta Sharq, Shimoliy Afrika, Janubi-sharqiy Osiyo,

Kavkaz xalqlarining tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi va ayni vaqdda ham ularning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazib kelmokda. Eron, Pokiston, Afg'aniston, Saudiya Arabistoni, Liviya, Tunis, Sudan singari mamlakatlarda islom rasmiy davlat dini mavqeiga ega. MDX, davlatlari xududida Markaziy Osiyo, Shimoliy Kavkaz, Ozarbayjon, Tatariston va Boshqirdiston xalqlari o'zlarining islom dinida ekanliklarini e'tirof etishadi. Hozirgi kunda turli qit'alarda yashovchi bir milliarddan ziyod kishi irqi, millati, sinfi va tabaqaviy farqlaridan qat'i nazar, islom dini normalari va qadriyatlari atrofida birlashgan hamda jahon ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida salmoqli o'rinlardan birini egallaydi.

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqa va davlatlarida islom diniga nisbatan qiziqish va intilish kuchayib, unga xayrixoh va tarafdor bo'lganlar soni ko'payib bormoqda. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov "Turkiston-Press" nodavlat axborot agentligi muxbiriga bergan interyusida ta'kidlaganidek, "Buning asosiy sababi – birinchi galda muqaddas dinimizning haqqoniyligi, odamzodni doimo yaxshilik va ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga etkazishdagi buyuk o'rni va ahamiyati bilan bog'liq. Ayni paytda, bu holat dinimizning umumbashariy madaniyat va sivilizatsiya, ilmu fan rivojiga qo'shgan buyuk hissasi bilan ham izohlanadi". XX asrda musulmonlar dunyo aholisining 15-16 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich Er yuzidagi har besh kishidan birini tashkil etmoqda. 2025 yilda esa, dunyo aholisini 30 foizini islomga e'tiqod qiluvchilar tashkil etishi mumkin. Eng katta musulmon jamoalari Indoneziyada (165 mln.), Pokiston (125 mln.), Bangladesh (120 mln.), Hindiston (93 mln.), Eronda (63 mln.), Turkiya (61 mln.), arab mamlakatlaridan eng yirigi Misrda (48 mln.), Nigeriyada (43 mln.) mavjuddir. Darvoqe, arablar barcha musulmonlarning 20 % ni tashkil etadilar.

Mavzudagi eng asosiy masalalardan biri islom dinining vujudga kelishining tarixiy, ijtimoiy va siyosiy sabablari. Talabalarga mana shu masalani yoritib berishimiz darkor. Islom milodiy VII asrning boshlarida Arabiston Yarimorolida paydo bo'lgan. Ushbu davrdagi hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni ko'rib chiqamiz. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashkil etgan. Islom vujudga kelishi arafasida arablar asosan chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o'rni (hududidan g'arb va SHarq davlatlarini bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan va uchta qit'ani tutashtirib turadi) sababli, savdo-sotiq va hunarmandchilik qadimdan rivojlangan. Iqtisodiy rivojlanish darajasi Yarimorolning hududlarida turlicha bo'lgan. Uning bepoyon cho'llarida yashagan ko'chmanchi arablar chorvachilik bilan shug'ullangan. Yarimorolning shimoliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta'siri kuchli edi. Karvon yuli o'tgan janubi-g'arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-sotiq, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va qisman xunarmandchilik rivojlangan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g'arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV—VI asrlarda bu erla Makka, Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo'llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdo-sotiq tushumlari

tashkil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko'chmanchi chorvador qabilalarda urug'-qabilaviy munosabatlarning emirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni kuchaygan.

«Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «Yagona xudo – Allohni tanimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualliflari tomonidan Arabiston yarim orolining islomdan oldingi davr tarixiga nisbatan ishlatila boshlandi. Bu bilan Yangi davr tarixchilari qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'pxudolik» (*al-Vasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikrni bildiradilar. Biroq ushbu davrning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlamchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab erlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarim orolda joylashgan bo'lib, shimol tomondan – Shom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Umon dengizi, janub tomondan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lka bu erda yashagan somiy tillarning birida so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, islom paydo bo'lish arafasida yarim orol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch sivilizatsiya mavjud bo'lgan:

- 1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (tili – janubiy arab tili);
- 2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;
- 3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analari bilan bog'liq Shimoliy Arabiston.

Islomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tarixda birinchi arab davlati –Arab xalifaligi vujudga keldi. Arab istilolari oqibatida mazkur uch sivilizatsiyalar vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'tmishdagi nisbiy mustaqil rivojlanganliklari **arablar nasabi** haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod vakillaridir: **qahtoniylar – janub arablari, adnoniylar – shimol arablaridir**. Mana shu ikki avloddan barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari-VIII asr boshlarida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllantirilgan. Qadimgi arablar orasida ko'chmanchilik mafkurasi qoldiqlari, qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo'lsada, islom dini paydo bo'lishi davrlarida ularning katta qismi (2/3) o'troq holda shahar va qishloqlarda yashaganlar. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va Yasrib shaharlari Yaqin Sharq sivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga olgan qismini qadimdan Hijoz deb atalgan.

Bu yarim orolning katta qismida islom vujudga kelguniga qadar **«ko'pxudolilik»** e'tiqodi hukm surardi. Islomgacha Arabistonda turli xil dinlar mavjud edi. Semit qabilalari an'alariga ko'ra, quyosh, Oy, tabiatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig'inganlar. Har bir qabilaning o'z xudolari, totem yoki fetishlari mavjud

bo'lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarshi edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a'zolarininggina birligini ta'minlagan, umumarab dini esa yo'q edi. "Allohning Rasuli dunyoga kelishi arafasida Arabiston yarim orolida tarqoq, qabila tuzumida istiqomat qiladigan xalqlar butparastlik va jaholat botqog'iga botib qolgandilar. Payg'ambar Ibrohim (a.s.) va uning o'g'li Ismoil (a.s.) tiklagan muqaddas Ka'ba but va sanamlarga to'lib bo'lgandi. Qabilalar tinmay o'zaro janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmas darajada edi. Jaholat shu darajaga borgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar".²⁸

Demak, *Arabistondagi iqtisodiy inqiroz, tarqoq qabilalarni birlashtirishga intilish Yangi mafkuraga talabni kuchaytirgan va islom shunday mafkura sifatida vujudga kelgan.*

Qadimgi arablarning diniy tasavvurlari jumlasiga totemizm, fetishizm, animizm elementlari va o'tmish ajdodlar ruhiga sig'inishni kiritish mumkin. Totemizmning yaqqol dalili sifatida ko'pgina qabilalarning nomlarini keltirish kifoya: *asad* "arson", *kalb* "it", *bakr* "bo'taloq", *sa'lab* "tulki", *zi'b* "bo'ri" va h.k. Barcha somiy xalqlarga xos bo'lgan samoviy jismlarga sig'inish, ya'ni astral kultlar arablar orasida ham keng tarqalgan edi. Bu haqda Makka Ka'basida joylashgan «Qora tosh» (*al-Hajar al-asvad*) ham dalolat beradi.

Arabistonda har xil xudolarning timsoli – sanamlar kulti bir vaqtda paytda paydo bo'lgan emas, albatta. Ular uzoq vaqt shakllanganlar. Biroq, keyingi davr islom tarixchilarning xabar berishlariga qaraganda, Arabistonga dastavval sanam keltirgan va unga ibodat qilishni targ'ib qilgan shaxs Amr ibn Luhay ismli kishi bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, u Shomga tijorat maqsadida tez-tez safar qilib turar edi. Amr ibn Luhay ba'zi shomliklar odatlaridan qattiq ta'sirlanib, ularning butlaridan birini Makkaga olib kelgan. Keyinchalik butlarga sig'inish arablar orasida keng tarqalib ketgan. Harqalay, but-sanamlarga sig'inish – dinning Yangi bosqichi bo'lgan. Ibn al-Kalbiyning (v. 763 y.) «Kitob al-asnom» asarida ta'kidlanishicha, mil. av. VIII asrdayoq har bir arab qabilasi o'z sanamiga ega edi. Tez-tez bo'lib turadigan qabilalararo urushlardan so'ng, odatda, mag'lub qabila g'olib qabila sanamiga sig'ina boshlardi. Ba'zida g'olib qabila mag'lub qabilaning sanamini ham o'z sanamlari safiga qabul qilishi mumkin edi. Arabistonning turli erlarida muayyan sanamlarning qarorgohi mavjud bo'lib, ular ziyoratgohlar sifatida ma'lum edi. Ulardan biri Makka Ka'basida edi. Makka eski Arabistonning diniy markaziga aylangach, u erdagi Ka'baga sanamlar to'plandi. Ibn al-Asirning (vafoti 1232 y.) uqtirishicha, Makka fath etilgan 630 yili Ka'ba ichida 360 ta sanam bo'lgan. Sanamlar uchun bu raqam juda katta ko'rinadi, ammo muayyan sanam bir necha qabilada ehtirom qilingan bo'lsa, u Ka'baga shuncha nusxada qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Islomdan oldin Arabistonda Yahudiy jamoalari mavjud bo'lgan. Arabiston Yahudiylari haqida, asosan, Qur'on, hadis, tafsir, sira (Payg'ambar hayoti va muqaddas urushlari haqida hikoya qiluvchi adabiyot janri) va tarix kitoblari xabar

²⁸ Ислом маърифати. Назарий-услужбий қўлланма. Т., 2005. - 4-бет.

beradi. Bu mavzuga aniqlik kiritadigan va hozirga qadar topilgan hujjatlarning eng qadimiysi – Yangi Bobil podshohi Nabonidga (mil. av. 555-539) tegishli xronikadir. Unda aytilishicha, mil. av. 552-542 yillarda Shimoliy Arabistondagi Tayma shahrini o'ziga poytaxt qilib olgan Nabonid bu erdagi shaharlarni o'zlashtirish maqsadida Bobildan talaygina aholini ko'chirgan; ularning ko'pchiligini Yahudiylar tashkil qilgan. Ma'lumki, bundan oldinroq (mil. av. 586 y.) Navuxodonosor II Quddusni zabt qilganida salkam 30 ming Yahudiyini asir olib, Bobilga keltirgan va «Bobil asirligi» 50 yil davom etgan edi. Shundan so'ng ham ba'zi Yahudiylar Falastinga qaytmay, Bobilda qolib ketgandilar.

Arabiston yarim orolida Yahudiylik bilan bir qatorda xristianlik dini ham tarqaldi. Xristianlar bu erda keng targ'ibotchilik ishlarini olib borar edilar. Ular Arabistonga qachon kirib kelganligi noma'lum. Odatda, targ'ibotchilar tibb va mantiq ilmidan xabardor, kishilar qalbiga yo'l topa oladigan odamlar bo'lganligi uchun ko'pgina qabila boshliqlariga ta'sir etganlar, ularning xristian dinini qabul qilishiga yoki o'zlarining olib borayotgan faoliyatlarida yordam berishiga erishganlar. Islomga qadar Arabiston yarim orolining deyarli barcha hududlarida xristian rohiblari muntazam ravishda din targ'iboti bilan shug'ullanar edilar. Yuqorida aytib o'tilganidek, xristianlikning Arabiston yarim oroliga qachon kirib kelgani aniq ma'lum emas.

Hijoz shaharlariga xristianlar (sharqiy cherkovlar vakillari) asosan Vizantiya qaramog'i ostidagi Falastin va Shomdan ko'chib kelganlar. Islom vujudga kelishi arafasida Dumat al-Jandal, Eylat, Tayma, Yasrib, Makka va Toifda ham talaygina xristianlar bor edi. Habashiston xristianlari bilan aloqalar haqida efiop askarlarining yurishlari va ilk musulmonlarning hijralari dalolat beradi.

2. Arabistonning qulay geografik o'rni, karvon yo'llari bo'ylab boy shahar-davlatlarning mavjudligi qudratli qo'shni davlatlarning mintaqaga qiziqishini kuchaytirgan. VI asrning boshlarida Arabistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan Efiopiya (Habashiston) davlati Yarimorolning karvon yullari o'tgan qismi (Hijoz)ni bosib olgan. Lekin Habashiston boy o'lkada mustahkam o'rni olmagan. VI asrning ikkinchi yarmida Eron Sosoniylari davlati Efiopiyani Arabistondan surib chiqargan. Arabiston Sosoniylar davlati tarkibiga kiritilgan.

Talabalarga Sosoniylar hukmronligi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni keskinlashtirganligini ta'kidlab, buning asosiy sabablarini ko'rsatib o'tish darkor. Sabablardan biri, Buyuk ipak yo'lining ahamiyatini yanada oshirish maqsadida, Arabistondan o'tgan janubiy karvon yo'lini izdan chiqarishlari bo'lgan. Oqibatda janubiy karvon yo'li vayron qilingan, karvon yo'lidan kelayotgan daromad esa keskin kamaygan. Arabistonning tashqi savdo aylanmasi qisqargan va xo'jaligi inqirozga uchragan.

Arabistondagi iqtisodiy inqiroz natijasida aholining turmush darajasi keskin pasayib ketgan va ma'naviy tushkunlik yuzaga kelgan. Qabilaviy nizolar kuchaygan. Xalq_orasida_xaloskor_mahdiyning_kelishi_to'g'risidagi_rivoyat_tarqalgan.

Bu davr ko'chmanchi arab qabilalari(badaviylar)ning urug'-qabilachilikdan sinfiy tuzumga o'tish davriga to'g'ri kelganligi sababli vaziyat yanada murakkablashgan, an'anaviy turmush tarzi va normalari buzila boshlagan. Ijtimoiy ziddiyatlar va arab

qabilalarining og'ir tanglikdan chiqish uchun markazlashgan mustaqil davlatga birlashishga harakatlar kuchaygan. Buning uchun tarqoq arab qabilalarini birlashtiruvchi mafkura zarur edi. Islom dini tarqoq qabilalarni birlashtiruvchi mafkura sifatida tarix sahnasiga chiqqan.

VI asrda Janubiy Arabistonda *haniflar* (arabchada — chinakam e'tiqod qiluvchilar, taqvodorlar degan ma'nolarni anglatadi), ya'ni yakka xudolikka da'vat etuvchilar harakati keng yoyilgan. Ularni «haniflar» deb atalganligining sababi hozirgacha aniq emas. Ayrim manbalarda harakat ishtirokchilarining ko'pchiligi “banu hanifa” urug'idan chiqqanligi bois shunday nom berilganligi qayd etiladi. Ular sanamlar, fetishlar va turli xudolarga sig'inishni qoralab, Yagona xudoga sig'inishga da'vat qilganlar. Ayrim xaniflar o'z xudolarini «*Alloh*» (arabchada – *al-iloh* yoki semit tilida - *al* yoki el so'zidan olingan bo'lib, xudo, Alloh degan ma'nolarni anglatadi) deb ataganlar.

Haniflar harakati boshlangan davrda Alloh quraysh qabilasining sanami hisoblangan. Mazkur harakat ishtirokchilari juda ko'p bo'lgan, lekin islom vujudga kelganidan keyin ular tug'isida ma'lumot beruvchi manbalar deyarli yo'q qilib tashlangan. Qur'on va boshqa manbalarda *Sajjah, Tulayh, Asvad, Musaylima* kabi haniflar to'g'isida ma'lumotlar berilgan.

Talabalarga islom dinining asoschisi bo'lmish Muhammad payg'ambar haqida batafsil ma'lumot bersak maqsadga muvoffiq bo'ladi. Muhammad 570 yilda Makka shahrida tavallud topgan. Ayrim adabiyotlarda quyidagicha ma'lumot berilgan: “Tavrotida tug'ilishi bashorat qilingan so'nggi payg'ambar Muhammad alayhissalom ibn Abdulloh milodning 569-571-yillari orasida Makkada tavallud topgan”.²⁹ Uning tug'ilishi arafasida otasi, 6 yoshligida esa onasi Amina aya vafot etgan. Ota-onasidan erta judo bo'lgan Muhammad dastlab bobosi Abd al-Mutallib tomonidan, u olamdan o'tgach esa amakisi Abu Tolibning qo'lida tarbiyalangan. Muhammad yoshlik chog'idanoq amakisining savdo ishlarida yordam bergan. U mehnatkashligi, odamlarning e'tiborini qozona olishi, ularning ko'ngliga yul topa olishi va sodiqligi bilan nom qozongan. Shu bois unga «Amin» (sodiq) degan taxallus berilgan.

Abu Tolib Muhammadni 21 yoshida badavlat beva xotin Hadichaga ish boshqaruvchilikka xizmatga bergan. Ko'p vaqt o'tmasdan u Xadichaga uylangan. Er-xotinning yoshida juda katta farq (Muhammad xotinidan 15 yosh kichik bo'lgan) bo'lsada, o'zaro hurmat va mehr-muhabbatga asoslangan mustahkam oila qurilgan. Biroq Muhammadning xotinlaridan biri Oyshaning ma'lumotiga ko'ra, ularning yoshlaridagi farq katta bo'lmagan. Shunga ko'ra, Muhammad uylangan vaqtda 23 yoshda, Hadicha esa 28 yoshda bo'lgan. Agar ularning olti far-zand ko'rganliklari hisobga olinsa, Oyshaning ma'lumoti xaqiqatga Yaqin bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Muhammad uylanganidan keyin savdo ishlarini davom ettirish va mulkini ko'paytirishga harakat qilsada, yashashdan eng asosiy maqsad Allohga xizmat qilish

²⁹ Ислам маърифати. Назарий-услубий қўлланма. Т., 2005. - 4-5 бетлар.

deb hisoblagan. Mulkiy ta'minlanganlik unga diniy ishlar bilan mun-tazam shug'ullanish imkonini bergan.

610 yilda Muhammad xudodan *vahiy* (xudoning xohish-irodasini ifodalaydigan «haqiqat»larni odamlarga mo'jizaviy yo'llar bilan etkazish) kelayotganligini aytib, arablarni Yagona xudo — Alloh atrofida birlashishga da'vat etgan va insonlarni Alloh irodasiga bo'ysunishga chaqirgan.

Ma'lumki, Yagona Alloh to'g'risidagi ROYA, unga imon keltirganlarning birodarligini anglatadi. *Muhammadning da'vatini qabul qilganlar o'zaro hamkorlik, bir-biriga muhabbat, ezgulik va adolat qoidalari asosida birlashishni xaqiqiy e'tiqod asoslari deb hisoblaganlar.* Muhammad Allohga imon keltirishga da'vat etishni boshlagan dastlabki davrlarda Yangi din yaratishga da'vo etmagan. SHunisi e'tiborga molikki, islom dini (arabchada *islom* - itoat etish, bo'ysunish degan ma'nolarni anglatadi) tarqalishining dastlabki yillarida u Quddus shahri tomonga qarab sajda qilgan. Xristianlar va iudaizmga sig'inuvchilarni birodarlar deb hisoblagan. Yahudiylar dastlab Muhammadni mahdiy sifatida qabul qilgan bo'lsalarda, keyinchalik uning qarashlarini tanqid qilganlar. Diniy qarashlardagi ixtiloflar sababli Yahudiylar va xristianlar bilan ajralish yuz bergan. Muhammad o'z tarafdorlarini barcha diniy marosimlarni arablarning siyosiy va diniy markazi - Makka shahriga qarab bajarishga da'vat etgan.

Talabalarga Muhammad 622 yilda (taxminan 22 yoki 24 sentyabrda) Yasribga (Madina) ko'chib o'tishining sabablarini tushuntirib berishimiz kerak. Muhammadning da'vatkorlik faoliyati dastlab katta qiyinchiliklarga duch kelgan. Xatgo eng Yaqin qarindoshlari ham dastlab uning g'oyasini qabul qilmaganlar. Muhammadning Makka shahridagi 12 yillik da'vatchilik faoliyati muvaffoqiyatsizlik bilan yakunlangan. Makka zodagonlari uning da'vatlaridagi ijtimoiy adolat, din ahlining birodarligi, boylarning kambag'allar foydasiga xayriya qilishlari, sudxo'rliknint qoralanishi, axloq normalariga amal qilish kabi g'oyalarini qabul qilmagan. Bundan tashqari, shaharda shu davrgacha nufuzi baland bo'lmagan hoshimiylar urug'i vakilini payrambar sifatida hukmron ummaviy zodagonlari qabul qila olmas edilar.

Muhammadning da'vatchilik faoliyati bilan shug'ullanishiga qarshi turli to'siqlar mavjud bo'lgan. 617 yilda unga da'vatchilik bilan faqat o'z mahallasida shug'ullanishiga ruhsat berilgan, ammo mahalladan tashqariga chiqishi qat'iy man qilingan. 620 yilda Hadicha (xotini) va undan keyin Abu Tolib (amakisi, ayrim manbalarda tog'asi) vafot etgan. Yaqin kishilarining madadidan mahrum bo'lgan Muhammadning hayoti xavf ostida qolgan va u shahardan chiqib ketishga qaror qilgan. Muhammadning Yasribga ko'chgan vaqti halifa Umar davrida musulmon hijriy taqvimining hisobiga asos sifatida qabul qilingan.

Makka shahriga muxolif yasribliklar Muhammadni qabul qilganlar (Muhammadning onasi Amina aya asli yasriblik edi). Muhammadning da'vatlarini qabul qilgan yasribliklar ansorlar, Makkadan ko'chib kelganlar muhojirlar deb yuritilgan. Yasribda muhojirlar va ansorlar musulmonlar jamoasi (arabchada «muslim» - bo'yin eguvchi, o'zini Allohga topshirgan) umma (ma'lum dinga e'tiqod

qiluvchilar jamoasi)ga birlashgan. Musulmonlar Muhammadni payg'ambar, diniy va dunyoviy hokimiyat rahbari sifatida tan olganlar. Muhammadning sharafiga Yasribga keyinchalik al-Madina (arabchada – *Madinaitun nabiyy*, ya'ni payg'ambar shahri) degan nom berilgan.

Madina shahrida Muhammad alayhissalom rahbarligida islomga e'tiqod qiluvchilar uchun manzil — birinchi masjid qurilgan hamda islomning diniy va siyosiy mavqeini aks ettiruvchi birinchi nizom yozilgai. Bu nizomga binoan, islomga e'tiqod qiluvchi barcha kishilar bir xalq deb e'lon qilinib, o'zaro nifoq, qasos olish bekor qilingan. Musulmonlarga qo'lda qurol bilan bir-birlarini himoya qilishlari lozimligi uqtirilgan. Barcha munozarali masalalar bo'yicha hukm chiqarish Muhammad alayhissalom zimmasiga o'tgan. Islom dinini qabul qilmagan mahalliy arablar, nasroniylar va Yahudiylar bilan alohida shartnoma tuzilgan.

Shunday qilib, birinchi *teokratik* (grekcha *teos* ~ xudo, *kratos* - hokimiyat degan ma'noni anglatadi) davlat vujudga kelgan. Davlat boshida yakka hokim dindor kishi bo'lgan. Bu davlatni Allohning erdagi vakili - Muhammad payg'ambar hamda uning ikki yordamchisi Abu Bakr va Umar boshqarganlar. Ular o'z qo'llariga nafaqat siyosiy va harbiy hokimiyatni, balki diniy ishlar, kishilarning tarbiyasi, Yangi dinni tarqatish bilan bog'liq vazifalarni ham olganlar. Shu tariqa payg'ambarning hayoti va aytgan so'zlari sekin-asta qonun mavqeiga ega bo'lib borgan.

Tez orada islom dinining ta'siri Janubiy va G'arbiy Arabistonning deyarli barcha qabilalarini qamrab olgan. Muhammad payg'ambar tarafdorlari islom diniga e'tiqodni goh targ'ibot, gohida esa kuch ishlatish yo'li bilan qaror toptirganlar. Yirik savdo-sotiq markazi Makka shahri aholisi islom diniga hammadan ko'p qarshilnk ko'rsatgan. 623 yildan boshlab musulmonlar makkaliklarning karvon-lariga hujum qila boshlagan. Ular katta qo'shin bilan musulmonlarga qarshi chiqqan. 624 yilda Badr shahri yonidagi jangda Muhammad rahbarligidagi qo'shin makkaliklarni tor-mor qilgan. 625 yilda makkaliklar qo'shini Uxud tog'i Yaqinida musulmon qismlariga katta talafot etkazgan. Lekin makkaliklar Yasribdan chekinganlar. 628 yilda Muhammad katta qo'shin bilan Makka shahriga Yaqin kelgan. Musulmonlar qo'shinlari Makka shahri Yaqinidagi al-Xudoaybiya qishlog'iga kelib to'xtagan. SHaharliklar bilan olib borilgan muzokaralar natijasida tinchlik shartnomasi tuzilgan. Nihoyat, Muhammad 630 yilda Makka shahrini qo'lga oldi, ilgari unga qarshi bo'lgan quraysh zodagonlari esa unning ittifoqchisiga aylanganlar. Muhammad garchi o'z ona shahrida muvaffaqiyat qozongan bo'lsa-da, Madina shahriga qaytishni ma'qul ko'rgan. O'limidan bir necha oy avaal, u Makkaga haj qilgan. Shu davrdan e'tiboran Makka shahri islom dininiig muqaddas poytaxti deb e'lon qilingan.

632 yilda Muhammad vafot etgan va o'zi boshlagan ishni davom ettirish uchun minglab maslakdoshlariga qoldirgan.

Muhammad payg'ambar vafotidan keyin davlat boshlig'i dastlab umma tomonidan saylangan. Umma saylagan to'rt xalifa (xulafo ar-roshidin) - Abu Bakr (632-634 yillar), Umar (634-644 yillar), Usmon (644-656 yillar), Ali (656-661 yillar) davrlarida islom qo'shni davlatlarga yoyilgan, qisqa vaqt ichida (VII—VIII asrlarda) ular Urta va Yaqin Sharqni, Markaziy Osiyoning asosiy qismini, Shimoliy

Hindistonni bosib olganlar va Xitoy chegarasigacha etganlar. Bundan tashqari, Shimoliy Afrikada Liviya, Tunis va Marokashni ishg'ol etganlar hamda Gibraltar bo'g'ozini orqali o'tib, Pireneya Yarimorolini egallaganlar. Ular hatto Fransiyagacha etib borganlar va u erda Puate shahri yonidagi jangda (732 yil) mag'lubiyatga uchraganlar.

Bunday zabt etishlar oqibatida juda katta hududda islom davlati — Arab halifaligi paydo bo'lgan va uning aholisi islomlashtirilgan. Islomlashtirish turli yo'llar (kuchli iqtisodiy vositalar, agar ular yordam bermasa, harbiy kuch ishlatish yo'li) bilan amalga oshirilgan.

Xulosa sifatida talabalarga shuni ta'kidlash joizki, Muhammad payg'ambar arab elatini Yangi diniy mafkura asosida jipslashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan. Jamiyatni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozdan xalos qilgan. Insoniyat tarixida alohida o'ringa ega islom madaniyatining poydevorini yaratgan.

3. Islom dini ta'limoti bo'yicha, Muhammad payg'ambar avvalgi payg'ambarlar (O'rta Er havzasi sivilizatsiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo') – nabi va rasul deb tan olinadi.

Islom dinining qator asosiy tamoyillarini o'z ichiga olgan «E'tiqod ramzi» yaratilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

1) ***Allohga ishonish***. Har bir musulmon (arabchada – bo'yin eguvchi, itoatkor degan ma'nolarni anglatadi) Yagona Allohni tan olishi va uning irodasiga bo'ysinishi shart;

2) ***Allohning farishtalariga ishonish***. Musulmon kishi ***farishtalar*** (arabchada — malak. maloika) va yovuz kuchlar (jinlar) mavjudligiga ishonishi lozim. Xudoga eng Yaqin bo'lgan farishtalar zimmasiga turli vazifalar yuklatilgan bo'lib, ***Jabroil*** — Allohni hukmini kishilarga etkazuvchi, ***Mikail*** - koinotni boshqaruvchi, ***Isrofil*** - maxsus shoxdan yasalgan karnayni chalib qiyomat kuni haqida xabar beruvchi, ***Azroil*** - jon oluvchi farishta vazifasini bajaradi. Shuningdek, o'lganlarni qabrda dastlabki so'roq qiluvchi farishtalar — ***Munkar*** va ***Nakir***, jannatning qo'riqchisi — ***Ridvon***, do'zaxning qo'riqchisi – ***Malik*** ham xudoning Yaqin yordamchilari vazifasini bajaradilar. Alloh irodasiga bo'ysunishni istamagan yana bir farishta mavjud bo'lib, uning nomi ***Shayton*** (Iblis)dir. Shayton odamlarni gunohga yetaklaydi. Qudratli Alloh bu farishtani jilovlab, bo'ysundirib olishga qodir, biroq u ataylab Iblisga erkinlik berganki, bundan maqsad islomga e'tiqod etuvchi musulmonlarning irodasini, islom diniga bo'lgan muhabbati va izchilligini sinash hisoblanadi. Bu farishta oxirzamonga qadar erkin bo'ladi;

3) ***Allohning kitoblariga ishonish***. Musulmonlar Qur'onni abadiy va odamlar tomonidan yaratilmagan deb hisoblaydilar. Islomda Alloh muqaddas talimotini Muhammaddan oldin ***Muso (Moisey)*** va ***Iso (Iisus)***larga vahiy qilgan. ***Tavrot, Injil va Zabur (Psaltir*** — qadimgi yaxudiy dinining duolar to'plami) kabi muqaddas bitiklar Qur'ondan oldin yuborilgan manbalardir. Shuniig uchun ham islom boshqa dinlar ta'limotiga o'xshaydi. Qur'on

muqaddas bitiklarning eng so'nggisidir;

4) **Allohning payg'ambarlariga ishonish.** Payg'ambarlar **ilohiy** haqiqatni bandalarga etkazadilar, ularni va'z, nasixat bilan haq dinga va yaxshi ishlarga chaqiradilar. Qur'onda 25 nafar payg'ambarning ismlari qayd etilgan. Payg'ambarlar ikki turga bo'linadilar: **rasullar va nabiyalar**. Alloh alohida kitob va shariat bergan payg'ambarlar «**Rasul**» deb ataladilar. Alloh alohida kitob


va shariat ato etmagan, lekin rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg'ambarlar «**nabiylar**» deb ataladi. Rasullar nabiy bo'lishi mumkin, lekin nabiyalar rasul bo'la olmaydilar.

5) **oxirat kuniga ishonish.** Oxiratda (arabchada – oxirgi kun, dunyoning tugash kuni degan ma'nolarni anglatadi) Alloh va u xohlaganidan boshqa hech narsa qolmaydigan kun. Uning qachon bo'lishini faqat Alloh biladi. Oxirat kunida Erdagi hayot tugaydi. Allohning qudrati bilan o'lganlar qayta tiriladilar va bir joyda - Mahshar erida to'planadilar;

6) **islom e'tiqodini qabul qiluvchi har bir kishi o'z taqdirining Alloh tomonidan oldindan belgilab qo'yilgani (taqdiri azal)ga ishonishi lozim.** Qur'onda yozilishicha, «Alloh kimni hidoyat qilishni istasa, uning ko'nglini islom uchun keng qilib qo'yar. Kimni adashtirishni istasa, uning ko'nglini «tor va tang qilib qo'yar»³⁰ - Allohning irodasiga musulmonlar so'zsiz itoat etishlari shart;

7) **o'lgandan keyin qayta tirilishga ishonish.** Allohning irodasi bilan qayta tirilgan odamlarning «Mahshar eri»da to'plangan kuni **qiyomat** (arab. – tikka turish, o'rnidan turish) deb ataladi. Bu kunda har bir inson o'z qilmishiga loyiq mukofot, ajr oladi: kimdir do'zahda qiynoq azobiga duchor bo'lsa, yana kimdir jannatda rohat-farog'atda yashashga muvassar bo'ladi.

Islomda diniy e'tiqod, marosim, urf-odat, huquq va axloq normalardan tashkil topgan dindorlar uchun oddiy, bajarilishi qulay shartlar to'plami farzlar ishlab chiqilgan. Ularni bajarmaganlar islomdan chiqqan deb hisoblanadi. Farzlarning eng asosiysi «islom arkonlari» deb ataladi va quyidagilardan iborat:



Musulmon ruhoniylari yuqorida bayon etilgan beshta asosiy farzdan tashqari, yana bir farz — jihod (g'azovot)ni tashviq qiladilar. Qur'onda bu hakda birmuncha aniq ma'lumot berilgan. Yilda sakkiz oy (to'rt oy qon to'kish taqiqlangan oylar hisoblanadi) yomonlikka, dushman kuchlariga qarshi yoki dinni kuch yordamida yoyish (bu masalada musulmonlarning qarashlari bir-biridan keskin farq qiladi) uchun kurashish muqaddas ish deb baholanadi. **Shariat** (arab. **sharaa** – to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik) islom diniy huquq sistemasi. Shariatni diniy huquq majmuidan

³⁰ Куръони карим. Т., 1992. 95-бет.

kengroq tushuncha deb bilish kerak. Unda sof huquqiy masalalardan tashqari axloqiy normalar va diniy talablarga ham qonun tusi berilgan. Islom ilohiyatchilari bir necha asr maboynida shariat qonunlarini ishlab chiqqanlar. Shariatga asos qilinib Qur'on va sunna, keyinchalik ijmo' va qiyos olingan. Ular fiqhda shariat manbalari (usul al-fiqh) deb e'tirof etiladi. Shariat diniy-huquqiy sistema sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Islomdagi sunniylik va shialik shariat sistemalari o'rtasida ma'lum tafovutlar bor.

Fiqh (arab. – umum bilish, diniy qonunlarni bilish, huquq ilmi) musulmon huquqi sifatida shariatning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Faqih (arab. – donishmand, din bo'yicha mutahassis, huquq sohasida maslahatchi va kazuist, ya'ni mohir yurist) qonunshunos–ilohiyotchi demakdir.³¹

Qiyos (arab. – taqqoslash) Qur'on va sunnada berilmagan biror huquqiy masala ulardagi shunga o'xshash masala bo'yicha berilgan ko'rsatmaga taqqoslash yo'li bilan sharh etilgan.

Mujtahidlar (arab. – intiluvchi, harakat qiluvchi) ijthod huquqiga ega bo'lgan, ya'ni mustaqil hukm chiqara oladigan shaxslardir. Sunniylarda mazhablarning asoschilari, shialikda yuqori martabali ruhoniylar va diniy huquqshunoslar mujtahidlar deb ataladi.

Ijmo' (arab. – birdamlik, yakdillik bilan qabul qilingan qaror, diniy jamoaning Yagona fikri) Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqih va mujtahidlarni to'planib, Yagona fikrga kelgan xolda xukm chiqarishi – fatvo berishi.³²

Shariat mazhablari (arab. – oqim, yo'l, ta'limot) – islomdagi diniy huquq sistemalari va yo'nalishlari. Shariatning shakllanishi jarayonida huquqshunoslik – fiqh sohasida juda ko'p mazhablar yuzaga kelgan. Mazhablar umuman ortodoksal diniy huquq doirasidan chiqmagan xolda, shariat masalalarida engilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Sunniylikdagi to'rt mazhab ham teng hisoblanib, yirik islom universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. Mazhablarni yana diniy-huquqshunoslik tartib usuli, ya'ni shariat usuli, islom manbalarida esa “mazhab al-sunna”, mazhab muhlislarini “ahli sunna” deb ataladi.

Islom tarixida huquq sohasidagi chigal, murakkab voqea va hodisalar, diniy marosimlar, oilaviy va ijtimoiy hayotni biron qolipga solib, nazoratga olish maqsadida shariat muayyan tavsiyalar belgilagan. Dastlabki davrlarda musulmonlarning xatta-harakatini shariat ikkiga – taqiqlangan va taqiqlanmagan. Ijizat berilgan yoki ijizat berilmagan harakatlarga bo'lgan. Bular halol va harom tushunchalari bilan ifodalangan. Keyinchalik shariat qonunlarining takomillashuvi jarayonida bu tushunchalar murakkablashib, barcha xatti-harakatlar shariat nuqtai nazaridan quyidagi turkumga bo'lingan:

1. **Farz** (arab. – majburiyat) bevosita Qur'onda qayd etilgan, har bir musulmon bajarishi majbur, shart bo'lgan qat'iy talab, tartib-qoidalardir.

³¹ Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV вв. Курс лекций. ЛГУ. 1966. – С. 132.

³² Ислам. Справочник. Т., 1986. 128-бет.

2. **Vojib** (arab. – majburiyat, burch) xukmdorlarning amrini ijro etish ham musulmonlar uchun majburiy burch hisoblangan.
3. **Sunnat** (arab. – oda, xatti-harakat tarzi) bajarilishi lozim va savobli amallar.
4. **Mandub** (arab. – tavsiya etilgan, lozim topilgan) bajarish lozim va savob deb tavsiya etiladigan, lekin majbur emas va gunoh bo'lmagan harakatlar (xatna, qurbonlik, mavlud va h.k.).
5. **Muboh** (arab. – umumiy, hech kimga taaluqli bo'lmagan) tor ma'noda ijozat beriladigan barcha xatti-harakatlar (ovqatlanish, uxlash, o'yin-kulgi).
6. **Makruh** (arab. – rad etilgan, qoralangan, nomaqbul) qat'iy taqiqlanmagan, nomaqbul hisoblangan va rad etilgan xatti-harakatlar.
7. **Mahzur yoki harom** (arab. – man etilgan, ruxsat berilmagan) qat'iy man etilgan xatti-harakatlar.

Mazkur shariat kategoriyalariga har bir musulmon rioya qilishi shart.

Islomda diniy bayramlarga alohida e'tibor beriladi. Ular qatorida eng katta e'tiborga ega bo'lganlari Ro'za hayit, Qurbon hayit, Me'roj, Mavlud, Juma bayramlaridir.

Din kishilarning ma'naviyati, qadriyatlarini, yashash mazmuni, ruhiyati bilan borliq masalalar va ijtimoiy-siyosiy hayotni ifodalaydi. Ijtimoiy hayot maqsad va manfaatlarini xilma-xil guruhlardan tashkil topadi. Din mazkur ja'rayonlarga tortilar ekan, undan ushbu guruhlarning manfaatlarini muayyan darajada aks ettirish talab qilinadi. Bundan tashqari, ijtimoiy hayot doimo o'zgarib turadi. Uning tarkibiy qismi bo'lmish din ham unda yuz berayotgan jarayonlarni hisobga olishi lozim. Aks holda u ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi voqelikka aylanib qoladi.

Islom vujudga kelgan ilk davrlarda yo'nalish, oqim va mazhablarga bo'linmagan. Undagi dastlabki bo'linish VII asrning o'rtalarida turli guruhlarning siyosiy hokimiyat uchun o'zaro kurashlari natijasida paydo bo'lgan. Siyosatdagi ixtiloflar keyinchalik diniy ta'limot sohasiga ham ko'chirilgan.

Talabalarga islomda, umuman, har qanday dinda bo'linish sabablari o'zaro bog'liq bo'lgan turli jarayonlar ta'siridan paydo bo'lishi haqida ma'lumot berishimiz darkor. Bunday jarayonlar sabablari quyidagilardan iborat:


- 1) *diniy aqidalarning barqarorligi yoki kam o'zgaruvchanligi sababli ijtimoiy taraqqiyotdan ortda qolish natijasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar ta'siri;*
- 2) *din va ruhoniylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari zarurati;*
- 3) *diniy ta'limotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urf-odatlarini va an'analariga moslashishi;*
- 4) *diniy ta'limotga munosabat va uning talqinidagi tafovutlar.*

Yuqoridagi kabi ta'sirlar oqibatida har qanday dinda bo'linish (yunalish, oqim va mazhablar) vujudga keladi. Lekin dinlarning ijtimoiy hayotdagi o'rnini va ahamiyatini undagi bo'linishning qanchalik xilma-xil ekanligidan kelib chiqib baholash xatodir. SHu o'rinda etiborni quyidagiga qaratishimiz lozimki, **dindagi qarashlar xilma-xilligi uning jamiyatdagi ildizini mustahkamlaydi, mavjud muammolarning xal etilishida to'g'ri yo'lni tanlash imkoniyatini kuchaytiradi.**

Islomda dastlab *xorijiyalar* (arabchada - chiqish, qarshi turish degan ma'nolarni anglatadi) yo'nalishi vujudga kelgan. Uning a'zolari xalifa Alining Suriya noibi Muoviyaning hokimiyat uchun ochiq kurashiga qarshi murosachiligi va qat'iyatsizligidan norozi guruhlardan iborat bo'lgan. Ular Alining siyosatiga norozilik bildirib Kufa shahridan Xarura qishlog'iga ketib qolgan. Shuning uchun ba'zi ilk manbalarda yo'nalishni *xaruriylar* deb ham yuritiladi.

Xorijiyalar dastlab siyosiy talablar bilan chiqqanlar. Ayniqsa, musulmonlarning irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tengligini e'tirof etganlar. Xalifa lavozimiga ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, mas'uliyatni anglagan va davlatni boshqarish iqtidoriga ega nomzod saylangan. Agar xalifa jamoa manfaatini himoya qilmasa, egallab turgan lavozimidan bo'shatilgan yoki qatl qilingan.

Xorijiyalar yo'nalishida quyidagi asosiy guruhlar mavjud:



Xorijiyalar xalifa Ali va boshqa sulolalar vakillariga qarshi murosasiz kurash olib borganlar. Ularning ijtimoiy-siyosiy tuzimga nisbatan murosasizligi, kishilar hayotini normativlashtirish darajasiniig juda yuqoriligi va uni qat'iy nazorat qilishga intilishi yo'nalish tarafdorlari sonining kamayishiga sabab bo'lgan. Ayni vaqtda xorijiyalar juda kam sonli bo'lib, SHimoliy Afrikada va ayrim arab davlatlarida saqlanib qolgan. Islom yo'nalishlari qatorida avvalgi ta'siri va mavqeinn yo'qotgan.

Islom dinidagi yirik yo'nalishlardan biri *shialikdir* (arabchada *shia* — guruh, partiya, tarafdorlar degak ma'nolarni anglatadi). U VII asrning o'rtalarida xalifa Ali va uning tarafdorlarini birlashtirgan diniy-siyosiy oqim sifatida Iroqda vujudga kelgan.

Shialar dastlab siyosiy hokimiyagni Muhammad payg'ambarning avlodlari boshqarishi va hokimiyat otadan farzandga meros sifatida o'tishi kerak degan talablari bilan chiqqanlar. SHuning uchun shialar Ali va uning avlodlaridan boshqa barcha sunniy xalifalarni zo'ravonlik bilai hokimiyatii bosib olganlikda ayblaydilar. Sunniy xalifalarra Ali va uning avlodi bo'lgan o'n ikki imomni qarshi qo'yganlar. Oxirgi (o'n ikkinchi) imom **Muhammad Mahdiy** (Alloh yo'liga etaklaydigan kishi) yoki yashiringan imom 873 yilda tug'ilgan. U yoshlik chog'ida bedarak yo'qolgan.


Diniy ta'limotda shialar Quroni karim Allohning kalomi ekanligini tan oladilar, lekin xalifa Usmon uni o'z manfaatiga moslashtirib, xalifa Alining hokimiyatni egallashiga oid bitta surani chiqarib tashlagan, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga Qur'onning haqiqiy nusxasini qiyomat kuni o'n ikkinchi imom Yerga olib kelishi haqidagi aqida qabul qilingan.

Shialar, sunniylardan farqli o'laroq, Muhammad payg'ambar bilan bog'liq hadislarini tan olmaydilar. Ular xalifa Ali va uning avlodlari bilan bog'liq mahsus hadislar to'plamini tuzganlar va u «Axbor» deb nomlanadi.

Shu bilan birga, shialar iymonda beshta aqida (Allohning yagonaligi, adolat, oxirat va o'lgandan keyin qayta tirilish, payg'ambarlik, imomat)ni tan oladilar. Imomat (arab. – boshqarish, rahbarlik) davlatni boshqarish haqida ta'limot


Shialikda diniy ta'limot bilan birga urf-odat va marosimlarda ham farqlar mavjud. Masalan, ular Makka va Madinadan tashqari Karbalo va Najaf shaharlarini ziyorat qiladilar. Xalifa Alining avlodi bo'lgan o'n ikki imom-ning jabrdiyda va din yo'lida shahid bo'lganlar sifatida qabrlari muqaddaslashtirilgan. Imom Xusaynga motam tutadilar. Bu «shaxsey-vaxsey» marosimi deb ataladi.

Shialikning asosiy *mazhablari* quyidagilardan iborat:



Islomdagi eng yirik yo'nalish *sunniylikdir*. Sunniylar o'zlarini asl islom an'analarini tarafdorlari deb hisoblaydilar. Sunniylik ortodoks (grekchada - dindor, e'tiqodli, ya'ni biron-bir ta'limotga, yo'nalishga, dinga og'ishmay amal qiluvchi degan ma'nolarni anglatadi) islom yo'nalishidir. Yo'nalish islomning Muhammad payg'ambar davrida vujudga kelgan ta'limotini tan oladi. Sunnat islomning ikkinchi manbai sifatida qabul qilingan va unda an'anaviy diniy marosimlar, maishiy turmush hamda ijtimoiy hayot qoidalariga amal qilinadi.

Sunniylikda islomning muqaddas manbalarini ijtimoiy hayotda qo'llashga munosabat masalasida quyidagi mazhablar mavjud:



Sunniylikdagi mavjud diniy huquqiy mazhablar e'tiqod qiluvchilarining miqdori jihatidan bir-biridan farq qilsa ham, huquqda tengligi e'tirof etiladi va din asoslariga zid deb hisoblanmaydi.

X asrga kelib, islom dinida ortodoksal mavqega ega hisoblanuvchi *kalom* (arabchada - so'z, nutq degan ma'nolarni anglatadi) ta'limoti paydo bo'lgan. Uning tarafdorlari *mutakallimlar* deb ataladi va ilk namoyandalari - al-Ash'ariy (873-935), Maturidiy (944 yilla vafot etgan) islom aqidalarini ijodiy tafsir etishga karshi chiqqanlar. Mutakallimlar musulmon ruhoniylarining an'anaviy davomchilari tomonidan tanqidga uchraganlar. Mutakallimlar barcha narsa va hodisalar asosida Alloh irodasi yotgakligini ta'kidlaydilar. Ular, jumladan, Qur'oni Karimning yaratilishiga oid ayrim fikrlarni ham olg'a suradilar. Qur'oni Karimning ilohiy kelib chiqishi to'g'risidagi g'oyani himoya qilib, muqaddas kitobni emas, balki uni ifoda etuvchi harflarni, siyoh va qog'oznigina inson tomonidan yaratilgan deb hisoblaydilar.

Mutakkalimlarga qarama-qarshi *mu'taziliylar* (arabchada - ajralib chiqqanlar, uzoqlashganlar degan ma'nolarni anglatadi) oqimi VIII asrda yuzaga kelgan. Oqimga Vosil ibn Ato (699-748) asos solgan. Uning a'zolari falsafa va mantiqning metod va tushunchalarini ilohiyotga tadbiiq etib, mistikaga qarshi chiqqanlar, Qur'on va sunnatni aql-idrokka mos talqin etish hamda islomga ratsionalistik elementlarni kiritish tarafdorlari bo'lganlar. Mu'taziliylar ta'limoti VIII asrning birinchi yarmida rasmiy e'tiqod sifatida qabul qilingan. VIII asrning o'rtalaridan boshlab ortodoksal e'tiqod tarafdorlarining hokimiyatda ustunlikni qo'lga kiritganliklari sababli, bu oqim taqiqlangan va ta'qib qilingan. U hukumat tomonidan to'xtovsiz taqib qilinganligi sababli O'rta Sharqda XI—XII asrlarda, Markaziy Osiyoda XIII—XIV asrlarga kelib yo'q bo'lib ketgan. Mazkur oqimning mintaqadagi so'nggi vakillaridan biri — Zamaxshariydir.³³

Islom dinida mistik va tarkidunyochilik g'oyasiga asoslangan *sufizm* oqimi ham mavjud bo'lib, u taxminan VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan. Uning keng yoyilishi XI asrga to'g'ri keladi. Sufizmning (arabchada – jun, qo'pol jun kiyim, jun kiyim kiyib yuruvchi degan ma'nolarni anglatadi) asosiy g'oyasi barcha musulmonlarning Alloh oldida tengligi to'g'risidagi aqidaga asoslanadi. Sufiylar odamlarni halol pok bo'lishga, kasb xunar egallab o'z mehnati bilan yashashga, boshqalarning mehnatidan foydalanmaslikka, tenglik va ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishga da'vat etadilar.

Sufizm ta'limotida buddizm va neoplatonizm elementlari ham mavjud bo'lib, ular sufizmning panteistik ta'limotida yaqqol ko'rinadi. Panteizmning mohiyati shundaki, unda barcha narsa va hodisalar jonli hisoblanib, Alloh irodasining ifodasi deb ta'kidlanadi. Sufiylarning asosiy g'oyasiga ko'ra, kishi bu dunyodagi faoliyatini faqat bir maqsadga — Alloh bilan uyg'unlashishga, birlashishga safarbar etmog'i lozim. Ilohiy haqiqatga kishi asta-sekin, bosqichma-bosqich erishadi.

³³ Ўрта Осиё халқлари хурфикрлиги тарихидан. Т., 1990. 36-37 бетлар.

Islom dinining asosiy yo'nalishlari va oqimlari xususida to'xtalganda undagi ikki asosiy tamoyil yoki yo'nalish hakida gapirmaslik mumkin emas. U islom dini paydo bo'lganidan buyon o'tgan 1400 yillik ijtimoiy taraqqiyot davomida shakllangan. Shu o'tgan davr mobaynida insoniyat feodalizmdan kapitalizmgacha, bozor munosabatlari shakllangan davrlargacha teokratik davlatdan respublika, prezidentlik boshqaruviga asoslangan davlat tuzilishigacha bo'lgan tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan. Islomdagi bu ikki yo'nalish fanda **traditsionalizm va modernizm** nomi bilan mashhur.

Traditsionalizm «ortodoksal islom» nomi bilan ham yuritiladi. U o'zbek tilida ilk islom ta'limoti, Qur'on va sunnalarda qayd etilgan g'oyalarini asl mohiyatini saqlab qolish, zamon, davr o'garishi bilan ayrim islom aqidalarining ham o'zgarishi mumkinligi haqidagi fikrlarni inkor etuvchi ruhoniylar faoliyati bilan bog'liqdir. Traditsionalistlar nuqtai nazaricha, islom dinining aqidalari, olam haqidagi Alloh ta'limotni abadiy va mutlaqdir. Zamonda va tarixda bo'ladigan har qanday o'zgarish Alloh tomonidan oldindan belgilangan va hukm qilingan bo'lib, barcha narsa va hodisalar uning irodasi bilan sodir bo'ladi va mavjuddir. Traditsionalizm islom dinida hurfikrlilik va erkinlik bo'lishiga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadi, islomdagi o'zgarishlarni tanqid qiladi. Buning yorqin ko'rinishi XVIII asr oxirlarida paydo bo'lgan va hozirgi kunda jahonning qator mintaqalarida ortodoksal islomni targ'ib qiluvchi o'ta janggari oqimlardan biri **vahhobiylik** hisoblanadi.³⁴

Modernizm, ya'ni islom dinini ijtimoiy taraqqiyot, fan va texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtirishga urinish muayyan darajada mafkuraviy yo'nalish yoki ta'limot mavqeiga egadir. Islom modernizmi asosan XIX asrlarda paydo bo'lgan. U islom dunyosining ilg'or fikrli ziyolilari tomonidan yaratilgai. Ular G'arbda burjua munosabatlarining rivojlanishi ijobiy samara berganligi va fan-texnikaning gurrurab rivojlanishiga olib kelganligini ko'rib, jamiyatlarini xam isloh qilish, shariat qonunlari burjua huquqini tiklashni taklif qildilar. Turkiya XX asrning 20-yillarida Sharq mamlakatlari orasida birinchi bo'lib kapitalistik munosabatlar o'rnatgan. Turkistonda bunday urinishlar jadidlar harakatida ko'zga tashlanadi. Jadidlar islom mistik qarashlar o'rniga ilm-fanni rivojlantirish milliy **taraqqiyot** uchun qanchalik zarur ekanligini birinchilar qatorida anglab etganlar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Islomning vujudga kelishi sabablarini aniqlang.
2. Arabiston yarim orolining aholisi islomgacha qaysi dinga e'tiqod qilgan?
3. Hanifiylar harakati qanday g'oyaga asoslangan?
4. Muhammad alayhissalomning Makka shahridagi da'vatlarining muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlanishi sababini ko'rsating.
5. Nima uchun Yasrib shahri aholisi Muhammad alayhissalomning da'vatlarini qabul qilgan?

³⁴ Диний бағрикенглик ва мутаасиблик. Т., 2007. 31-32 бетлар.

6. Islom iymoni aqidalari deganda nimani tushunasiz?
7. Islom arkonlariga nimalar kiradn?
8. Islomning asosiy bayramlarini izohlab o'ring.
9. Islomla yunalishlar va oqimlarning yuzaga kelish sabablari nimalardan iborat?
10. Sunniylik va shialik o'rtasidagi tafovutlarni aniqlang.
11. Shialarning islomning muqaddas manbalariga munosabatlarini izohlang.
12. Nima sababdan xorijiyarlarning tarafdorlari juda kam sonli bo'lib qolgan?
13. Nima sababdan sunniylikka e'tiqod qiluvchilar ortodoksal islom tarafdorlari deb ataladi?
14. Sunniylikda diniy ekstremizmning manbai bo'lgan diniy-huquqiy maktabni aniqlang.
15. Sufizm oqimining asosiy g'oyalarn va maqsadi nimalardan iborat?
16. Markazi Osiyoda tasavvufning qaysi tariqatlari yuzaga kelgan?
17. Islomdagi an'anaviylik va zamonaviylik jarayonlarining o'ziga xosligi nimalardan iborat?

8-MAVZU

ISLOMNING ASOSIY MANBALARI

REJA:

1. Qur'on – islom dinining asosiy manbasi.
2. Qur'onni tushunish, uning tuzilishi.
3. Hadislar.

Tayanch so'z va iboralar: Qur'on, Laylat-ul qadr, tavotur, suhuf, sura, oyat, qirovat, nasx, sababi nuzul, hadislar, muhaddis, sahih hadislar, musnad, sunan.

1. Qur'oni Karim – Alloh tarafidan 23 yilga Yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy (sakral) kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi. Islom ilohiyot maktablaridan biri ***ahl as-sunna va-l-jamoa*** ta'limotiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliy ilmidir.

Muqaddas Yozuv ko'p nomlaridan biri bo'lgan «Qur'on» so'zi – arabcha «qara'a» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Boshqa fikrga binoan, u suryoniy tilidagi «kerain» – «muqaddas yozuv» ma'nosini bildiruvchi so'zdan olingan. Musulmon an'alariga ko'ra, Allohning irodasi va o'g'itlari Muhammad payg'ambarga farishta Jabroil orqali ***vahiy*** (arabchada — uqtirilgan degan ma'noni anglatadi) qilingan. **Vahiy** kelgan kun islomda ***Laylat-ul qadr*** kechasi (arabchada - taqdirnn hal qiladigan kecha degan ma'noni anglatadi) deb yuritiladi. O'z navbatida, payg'ambar bu o'g'itlarni kishilarga etkazgan. Bu narsa musulmonlarning muqaddas kitobi Qur'onda bayon etilgan.

Ullamolar Qur'onni quyidagicha ta'riflaydilar: “*Qur'on* – Alloh taoloning Muhammad alayhissalomga vahiy orqali nozil qilgan, *tavotur* (kalomni yolg'onga chiqarib bo'lmaydigan darajada ko'p sonli kishilar tomonidan naql qilinishi) ila naql qilingan, ibodatda o'qiladigan, (barchani) lol qoldiruvchi kalomidir”.³⁵

Islomshunoslik va qur'onshunoslik xulosalari asosida suralarning xronologik tartibini quyidagicha shaklda tasavvur qilish mumkin:

1. **Birinchi Makka davri** (610-615 yillar). Bu davrda yuksak adabiy ijod namunalari bo'lgan saj' janridagi suralar o'qilgan. Evropa olimlari ularga «Nazmiy suralar» deb nom berganlar.

2. **Ikkinchi Makka davri** (616-619 yillar). Bu suralar Muhammad payg'ambar va ularning izdoshlari doimiy ta'qib ostida yashagan va ko'pchiligi Habashistonga ko'chib ketgan vaqtda o'qilgan. Bu suralarda Allohning «Rahmon» sifatida ko'p tilga olinganligi sababli Evropa olimlari ularni «Rahmon suralari» deb ataganlar.

3. **Uchinchi Makka davri** (619 yil boshlaridan – 622 yil sentyabrigacha). Bu davrda ham Muhammad payg'ambar va uning izdoshlari ta'qib ostida yashaganlar, maxfiy ravishda, ko'pincha shahardan tashqarida ibodatga to'planganlar. Bu davr suralarida payg'ambarlar haqidagi asotir-hikoyatlarga keng o'rin berilganligi sababli, evropalik olimlar bularga «Payg'ambarlik suralari» deb nom berganlar.

Tarixiy voqealarni aniqroq aks ettirishini e'tiborga olgan holda Madinada tushirilgan 24 ta suraning nozil bo'lish davrini quyidagi besh bosqichga ajratish mumkin:

A. I davr (622 yil oktyabridan 624 yilgacha). Muhammad payg'ambar Madinaga ko'chib o'tganlaridan so'ng to makkaliklar bilan birinchi yirik to'qnashuv – Badr jangigacha o'qilgan 4 sura bu davrga kiradi.

B. II davr (624 yil martidan 625 yil martigacha). Bu davr Badr jangidan to Uhud jangigacha o'tgan bir yil mobaynida o'qilgan 3 surani o'z ichiga oladi.

V. III davr (625 yil martidan 627 yil martigacha). Uhuddagi mag'lubiyatdan to Xandaq jangigacha o'tgan ikki yil ichida beshta sura nozil bo'lgan.

G. IV davr (627 yil apreldan 630 yil yanvarigacha). Bu davrga Xandaq jangidan to Makka fathigacha o'tgan salkam uch yil ichida o'qilgan 8 sura kiradi.

D. V davr (630 yil fevralidan 632 yil mayigacha). Makka fathidan Muhammad payg'ambarning vafotigacha o'tgan ikki yildan ortiqroq davr ichida yana to'rtta sura nozil bo'lgan.

Muhammad davrida diniy ta'limot tartib bilan yozib borilmagan. Uning hayotligida muqaddas bitikka ehtiyoj bo'lmagan, chunki din va davlat ishlari bilan bog'liq masalalarni payg'ambarning o'zi bevosita hal etgan. U vafot etganidan keyin diniy ta'limot bayon etilgan muqaddas yozuvlarga ehtiyoj tug'ilgan. Muqaddas bitikningi yagona matnini tayyorlash maqsadida xalifa Abu Bakr 632 yilda Qur'on sahifalarini to'plab, dastxat qilishni *sahoba* (arabchada – hamroh, do'st degan ma'nolarni anglatali) Muhammad Zayd ibn Sobitga topshirgan. Uning tahririda tayyorlangan qo'lyozma matni *suhuf* (arabchada

³⁵ Ислом маърифати. Назарий-услубий қўлланма. Т., 2005й. 7-8 бетлар.

sahifalar degan ma'noni anglatadi) deb nomlangan. Lekin suhuf matni bilan Qur'on *suralarini* (arabchada *izra* — devorni terishda ishlatiladigan g'isht yoki toshning bir qatori degan ma'nolarni anglatadi) mustaqil to'plovchilarning matnlari o'rtasida tafovutlar mavjud bo'lgan. Bu esa dinda katta muammolarni keltirib chiqarishi mumkin edi. Halifa Usmon muqaddas bitiklar bilan bog'liq tafovutlarni bartaraf etish maqsadida o'zining rahbarligida ijodiy guruh tuzgan. Ijodiy guruh 651 yilda Qur'oning Yangi nusxasini tayerlagan. Undan farq qiladigan barcha matnlar yuk qilingan. Tayorlangan nusxa xalifa Usmon *mushafi* (arabchada - o'rama qog'oz, pergament degan ma'nolarni anglatadi) deb atalgan.

2. Malumki, Qur'oni Karim jami 114 suradan iborat. Har bir sura, o'z navbatida, *Alloh* o'gitlaridan iborat *oyatlarga* (arabchada ~ mo'jiza degan ma'noni anglatadi) bo'linadi. Qur'ondagi barcha suradan tashqari qolgan barcha suralar hajm jihatdan torayib, kichiklashib, ixchamlashib boradi. Eng uzun suralar Qur'onning boshida, eng qisqa suralar esa oxirida joylashtirilgan. Shuning uchun unda xronologik va mantiqiy tartib yo'q. Qur'onda har bir suraga nom berilgan, lekin ko'pchilik hollarda suraning nomi mazmuniga mos kelmaydi. Birinchi sura "fotiha" yoki "ochuvchi sura" bo'lib, u musulmonlar takrorlab o'qiydigan duolardan iborat. "An-nos" surasi bilan Qur'oni Karim yakunlanadi. Har bir sura doirasida oyatlar tartib bilan raqamlangan. Suralarda oyatlarning soni turlicha (Masalan, eng qisqa hisoblanuvchi 103, 108, 110-suralar uchta oyatdan, eng uzun — 2-sura esa 286 oyatdan iborat). Oyatlariga suralar kabi nom berilmagan. Hajmi jihatdan oyatlar ikki so'zning birikmasidan (masalan, 82-suraning 105 oyatlari) yoki tugal fikrni ifodalovchi katta jummalardan (masalan, 3-suraning 11, 14, 18, 19, 20 singari oyatlari) tuzilgan. Ko'p oyatlar mazmunan bir-birini takrorlaydi. Bunga sabab, o'sha davrda ma'lum g'oya, rivoyat va ko'rsatmalarni takror aytish keng qo'llanilgan. Suralar matniga o'zgartishlar kiritmasdan oyatlarga taqsimlash XX asrning boshlarigacha davom etgan. Shu bois Qur'onning har bir tarixiy davrdagi nashrlarida oyatlarning soni turlicha ko'rsatilgan (masalan, 1989 yilda chop qilingan «Islom ma'lumotnomasi»da 6204 tadan 6232 tagacha oyatlar qayd etilgan).

Diniy rivoyatlarga ko'ra, Qur'onning matni Muhammadga 22 yil davomida vahiy qilinganligi sababli tarixiy davr va sharoit ta'sirida undagi ayrim ko'rsatmalar o'zgarib borgan. Uning matni mazmunida ziddiyat, bir-birini inkor etuvchi fikrlar paydo bo'lgan. Buni hal etish uchun *nash* (arab tilida - bekor qilish degan ma'noni anglatadi) nazariyasi ishlab chiqilgan. Mazkur nazariya bo'yicha Qur'onda *nash* (bekor qiluvchi) va *mansub* (bekor kilinuvchi) oyatlar mavjud. Keyinroq ijod etilgan oyatlar (*nosih*), ilgari, mazmunan qarama-qarshi bo'lgan oyatlar (*mansub*)ni inkor etadi. Qur'onning 40dan ortiq suralarida ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar mavjudligi qayd qilingan.³⁶

³⁶ Нарбеков А.В. Диншунослик асослари: Ўқув қўлланма. Т., 2008. – 175-бет.

O'z mazmuniga ko'ra, Qur'on turli qonun-qoidalar majmui, an'ana va udumlar, afsona va rivoyatlardan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi arab aholisi o'rtasida keng tarqatilgan. Quronda asosan yakkayu-Yagona yaratuvchi xudo - Alloh va uning irodasiga so'zsiz itoat etish lozimligi haqida gapiriladi. Qur'onga binoan, Alloh olamni olti kun davomida, ya'ni birinchi kun samoni, ikkinchi kun Kuyosh, Oy, yulduzlar va shamolni, uchinchi kun erda va suvda yashovchi turli maxluqlar, shuningdek osmonda yashovchi farishtalar va havoni, to'rtinchi kun suvni (barcha maxluqlarga taom belgilagan va shu kundan e'tiboran uning irodasiga binoan, daryolar oqa boshlagan), beshinchi kun jannatni, oltinchi kun Odam Ato va Momo Havolarni yaratgan. Shanba kuni esa hech narsa yaratilmagan, barcha ishlar yakunlangan bo'lib, olamda osoyishtalik va uyg'unlik hukm surgan.

Qur'onga ko'ra, Alloh etti olamni yaratib, ularni ustma-ust joylashtirgan. Eng quyi olamda Quyosh va Oyni mustahkamlagan. So'ng u erni odamlar oyog'i ostiga gilam kabi to'shagan va uning surilib ketmasligi uchun ustiga tog'larni bostirib qo'ygan. Insonni yaratish xudoning faoliyatidagi eng oliy ish hisoblanadi. Alloh dastlab barcha go'zal narsalarni, keyin odamni yaratishga kirishgan. U inson jismini tuproq va loydan yasab, muayyan tuzilish ato etgan, so'ng ko'z, quloq, yurak bilan to'ldirib, muqaddas ruhiy hayot bag'ishlagan.

Qur'on matni mazmunini tushunish asrlar davomida qiyinlashib borgan. Muqaddas kitobni tafsir qilish (izohlash) an'anasi muammoni yanada murakkablashtirgan. Tafsiurning xilma-xil tiplari mavjud. Ularning eng asosiylari qadimgi rivoyatlarga, ilk sharhlarga tayanib tafsirlash, ilohiyotga asoslanib, Qur'onni ichki ziddiyatlardan xoli, an'anaviy kurashlar bilan tushunib bo'lmasligiga asoslanib ratsional tafsir qilish, muqaddas kitobning mazmunini tushunishni darajalovchi tafsir. Bunda kishining ma'naviy barkamolliigi va tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Qur'onning matnini tafsir qilish uni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotga moslashtirishga imkon bergan.

3. Islomning muqaddas manbai — Qur'oni Karim ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlarga to'liq javob berish imkoniyatiga ega emas edi. Shu tariqa pand-nasihatlari yig'indisi — **sunnat** (arabchada as-sunna, ko'plikda sunan — odat, an'ana, xatti-harakat tarzi kabi ma'nolarni anglatadi) vujudga kelgan. Islomda sunnat ahamiyati jihatdan Qur'ondan keyin turadi. U Muhammad (SAV)ning so'zlari va xatti-harakatlari bayon qilingan muqaddas rivoyatlardan iborat. Sunnat VII asrning o'rtalarida vujudga kelgan.

Sunnat **hadislardan** (arabchada – hikoya, xabar, bildirish, parcha degan ma'nolarni anglatadi) tashkil topgan. Ular Muhammad payg'ambarning hayoti, faoliyati va ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat. Arab xalifaligi tashkil topganidan keyin ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlarning diniy ta'limotda aks ettirilishi zarurati va siyosiy hokimiyat uchun kurashda turli ruyhlap Muhammadning obro'-ehtiromiga tayanishga intilishi sababli, hadislarning soni jadal sur'atlar bilan kupayib borgan. Hadislari to'plashdagi bunday

tartibsizlikka faqat IX asrda chek qo'yilgan. "Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadisshunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy Osiyolik bo'lgan".³⁷ Shu davrga kelib, ular tartibga solingan va din, axloq, fiqhning muqaddas manbaiga aylangan.

Hadislarni yig'uvchi, sharhlovchi, targ'ib etuvchi shaxslar «*muhaddis*» deb atalgan. Muhaddislar hadislarni to'plashda, birinchidan, *isnod* (arabchada - tayanch degan ma'noni anglatadi), ya'ni hadisni ma'lum qilgan kishilarni sanab o'tishlari, ikkinchidan, *matn*, ya'ni hadisning mazmunini bayon qilishlari kerak. Nufuzli hadislar to'plamida ko'shimcha ravishda hadislarga sharhlar beriladi. Hadislar to'plamlari juda ko'p, lekin doimo ularning oltitasi alohida ezozlanadi. Quyidagi muhaddislar qalamiga mansub hadislar to'plami ishonchli deb tan olingan:

1. **Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870) – "Aljomi' as-sahih" (Ishonchli to'plam) yoki "as-Sahih al-Buxoriy", ishonchli deb bilganlaridan 7250 ta hadis kiritilgan**
2. **Muslim an-Nishopuriy (817-875) – "as-Sahih", 12 mingta hadis kiritilgan.**
3. **Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojja (824-886) – "Sunnan".**
4. **Imom Abu dovud Sulaymon Sijistoniy (817-880) – "Sunnan".**
5. **Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) – "Al-ja'mi al-kabir".**
6. **Imom Ahmad An-Nasoiy (830-915) – "Sunnan".**

Hadislar *sahih (ishonarli)*, *hasan (yaxshi)*, *zaif (ishonchsiz)*, *saqim (kasal)* va boshqa turlarga ajratildi. Masalan, sunniylikda *sahih* hadislar darajalari bo'yicha etti xilga bo'lindi:

- 1) Imom Buxoriy va Imom Muslim keltirgan;
- 2) faqat Imom Buxoriy keltirgan;
- 3) faqat Imom Muslim keltirgan;
- 4) ikkala muhaddis ham keltirmagan, balki ularning shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 5) Imom Buxoriy shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 6) Imom Muslim shartlari bo'yicha rivoyat qilingan;
- 7) boshqa ulamolar tomonidan tasdiqlangan hadislar.

Quyidagi isnodga tegishli texnik terminlar barcha ulamolar tomonidan bir xilda talqin qilinmasada, asta-sekin ular barqaror istilohga aylanib bordi. Ularni o'rganish qulay bo'lishi uchun ularni besh guruhga bo'lib ko'rsatish mumkin.

I. Roviylarning soniga ko'ra: *mutavotir, mashhur, mustafid, aziz, g'arib, fard, shozz, ohod hadislar*;

II. Isnodning tabiatiga ko'ra: *muttasil marfu', muttasil mavquf, musnad, maqtu', munqati', munfasil, muallaq, mursal, mu'allal yoki ma'lul hadislar*;

³⁷ Маънавият юлдузлари. Т., 2001. 64-65-бетлар.

III. Matn yoki isnodning asosiy xususiyatlariga ko'ra: *ziyodot as-siqot, mu'an'an, musalsal, mudallas, mubham, maqlub, mudraj, mudtarib, isnod oli hadislar*;

IV. Hadislarning qabul qilish uchun yaroqliligiga ko'ra: *ma'ruf, munkar, majhul, maqbul, mahfuz hadislar*;

V. Hadislarning inkor etilishiga ko'ra: *munkar, mardud, matruk, matruh hadislar*.

Hadislarni o'rganish fani *ulum al-hadis (hadis ilmlari)* deb ataladi.

Talabalarga islomdagi yo'nalish va oqimlarning hadislarga munosabatlarida turlicha yondashuvlar mavjud ekanligi haqida ma'lumot berishimiz lozim. Shialik yunalishi alohida hadislar to'plamiga ega bo'lib, ularda Muhammadning oilasiga alohida e'tibor beriladi. Lekin ikkala yo'nalish ham hadislarning muqaddas rivoyatlar sifatidagi ahamiyatini inkor etmaydi.

Talaba yoshlarga mamlakatimizda bu sohada qilinayotgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berishimiz maqsadga muvoffiq bo'ladi. Vazirlar Mahkamasining buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy ilmiy-diniy merosining xalqimiz ma'naviy-ruhiy hayotidagi beqiyos o'rmini hisobga olib, jamiyatning barkamol kishilarini tarbiyalashda undan oqilona foydalanishga shart-sharoitlar yaratish maqsadida 1997 yil 29 aprelida «1998 yilda Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini mamlakatimizda keng nishonlanishi haqida» qaror qabul qildi. Bu qaror asosida buyuk muhaddisning yubiley to'yi mamlakatimiz miqyosida nishonlandi.

1998 yili mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan «Imom al-Buxoriy» xalqaro jamg'armasi tashkil etildi. Bu jamg'arma qisqa muddat ichida salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Jumladan, 2000 yildan «Imom al-Buxoriy saboqlari» ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnalini prof. Z.I. Munavvarov muharrirligida muntazam ravishda nashr etmoqda. Unda Vatanimiz va chet ellik tadqiqotchilar tomonidan buyuk muhaddislar ijodi, hadis ilmi rivoji haqidagi ilmiy maqolalar berib borilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Qur'oni Karim qachon nozil bo'la boshladi?
2. Qur'on nozil bo'lish davriga ko'ra qanday qismlarga bo'linadi?
3. Qur'on qachon yaxlit kitob shakliga keltirildi?
4. Qur'on qanday qism va bo'limlardan iborat?
5. Qur'onning jamlanishi kimlar tomonidan amalga oshirildi?
6. Toshkentdagi «Usmon Mushafi» haqida nima bilasiz?
7. Hadis, xabar, sunna deganda nimani tushunasiz?
8. Hadislar qachondan boshlab yozila boshlandi?
9. Eng mashhur muhaddislar kimlar?
10. Qanday hadis to'plamlarini bilasiz?
11. Qanday hadis turlarini bilasiz?
12. Imom al-Buxoriy kim bo'lgan?

9-MAVZU:
VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR
REJA:

1. Vijdon erkinligi tushunchasining mazmuni.
2. Vijdon erkinligi – umuminsoniy qadriyat sifatida.
3. Mustaqillik va din.

Tayanch soʻz va iboradar: Vijdon, erkinlik, eʼtiqod, qadriyat, imon, maʼnaviyat, islom, tolerantlik, dunyoviy davlat, diniy davlat, jamiyat, diniy konfessiya.

1. Talabalarga vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi ijtimoiy hayotda muhim va murakkab masala boʻlib kelganligi haqida toʻliq maʼlumot berishimiz darkor. Chunki uning zamirida shaxsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi kata ijtimoiy, siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar turadi. Vijdon erkinligi kishilarning ruhiy olamiga, uning sogʻlom va barkamolligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomidan tortib, barcha xalqaro xujjat va shartnomalarda, mamlakatlarning konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi oʻz ifodasini topgan. 1948 yilda qabul qilingan inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq oʻz dini yoki eʼtiqodini oʻzgartirish erkinligi, oʻz dini yoki eʼtiqodiga oʻzicha, shuningdek boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar orasida birga qatnashish erkinligini oʻz ichiga oladi.

Vijdon erkinligi – har bir inson oʻzi hojlagan dinga eʼtiqod qilishi yoki xech qaysi dinga eʼtiqod kilmasligi va dinga nisbatan betaraf boʻlishi, shuningdek, dinga qarshi boʻlishligi bilan ifodalanadi. Vijdon erkinligi fuqarolarning u yoki bu dinga eʼtiqod qilish yoki xech qanday dinga eʼtiqod qilmaslik huquqidir.

Vijdon erkinligi dinga ishonuvchilarni majburan oʻz eʼtiqodlaridan qaytarib, dinni maʼmuriy tarzda taqiqlab qoʻyishning har qanday nazariy va amaliy koʻrinishlariga chek qoʻyadi. Shuningdek, u jamiyatdagi barcha dinlar, diniy tashkilotlar va diniy birlashmalar, turli dinga eʼtiqod qiluvchi kishilarni teng huquqli deb biladi, biror bir dinni boshka dinlardan imtiyozli qilib qoʻymaydi. SHu bilan birga jamiyatda ilmiy dunyoqarashning qaror topishini vijdon erkinligining amalda namoyon boʻlish belgilaridan biri deb hisoblanadi.

Vijdon erkinligining kafolatlari koʻp qirralidir. Ularga Oʻzbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida”gi qonunida taʼrif berilgan. Bular:

- avvalo, dinlar va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi;
- barcha fuqarolar uchun maorif va madaniyat eshiklarining ochiqligi;
- maktablarning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi;
- taʼlim tizimining uquv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga yoʻl qoʻyilmasligi;

- dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan muayyan sharoitlarning yaratib berilishi.

2. Mustaqillikning dastlabki etti yili davomida O'zbekistonning inson huquqlari bo'yicha 60 ta asosiy hujjatga qo'shilganligi, BMT tomonidan bu sohada qabul qilingan 6 ta xalqaro shartnoma qatnashchisiga aylanganligi muhim hal qiluvchi qadam hisoblanadi.

Ushbu deklaratsiya inson huquqlari sohasidagi birinchi xalqaro hujjat sifatida keyingi oltmish yil mobaynida dunyodagi barcha davlatlar va xalqlar uchun adolatga erishish, mahalliy va mintaqaviy majarolarni tinch yo'l bilan hal etishga xizmat qilib kelmoqda. Birinchi marta «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning dastlabki loyihasi BMT Bosh Assambleyasining 1946 yil birinchi sessiyasida ko'rib chiqilgan. Bosh Assambleya shu loyiha asosida **«huquqlar to'g'risida xalqaro bill»** tayyorlash maqsadida BMT ning inson huquqlari bo'yicha komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etgan.³⁸ Bu komissiya tarkibi BMTga a'zo bo'lgan 18 ta davlat vakillaridan iborat edi. Mazkur Komissiya 1947 yilda o'zining birinchi sessiyasida **«Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill»**ning dastlabki loyihasini tayyorlash to'g'risida qaror qabul qilgan. Tahrir hay'ati a'zolari o'rtasida Deklaratsiyaning har bir moddalari bo'yicha baxs munozaralar bo'lib o'tgan. Tahrir hay'ati a'zolari fransiyalik Rene Kassen tomonidan bildirilgan fikr, mulohazalarni, takliflarni umumlashtirib Deklaratsiyaning birinchi loyihasini tayyorladi. Mazkur hujjat Jeneva shahrida ko'rib chiqilgan. Shu sababli tarixda **«Jeneva loyihasi»** deb nomlangan. Komissiya deklaratsiya loyihasini BMTga a'zo barcha davlatlarga ko'rib chiqish uchun o'z taklif va mulohazalarni bildirish uchun yuborgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining yakuniy matnini tayyorlashda BMTga a'zo 50 davlat vakillari ishtirok etgan. Bu muhim hujjat 1948 yilning 10 dekabrda Parijda BMTning Bosh Assambleyasida qabul qilingan. BMT Bosh Assambleyasida 56 davlat vakillari ishtirok etgan. SHulardan 2 ta davlat vakili BMT Bosh Assambleyasi ishida bevosita ishtirok etmagan va 8 ta davlat vakillari betaraf bo'lgan. Shunisi xarakterliki, ishtirok etgan davlat vakillaridan birontasi bu muhim hujjatga qarshi ovoz bermagan.

Tarixda birinchi marotaba 1948 yilda qabul qilingan «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 3-moddasida har bir insonning yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi mustahkamlangan.³⁹ **«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Pakt»**ning 6-moddasi 1-bandida har bir insonning yashash huquqi uning ajralmas huquqi ekanligi, bu huquqning qonun bilan himoyalanihi belgilab qo'yilgan. Bizning Konstitutsiyamizning 21-31 moddalarida ham inson va fuqarolarning huquqlari o'z ifodasini topgan.

³⁸ Акмал Саидов. Инсоният ҳурлигининг буюк хартияси. //Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари – 2 / 2008.7-бет.

³⁹ Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. / Маъсул мухаррир А.Х. Саидов-Т.: «Адолат», 2002, 49-бет.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 18-moddasi xamda Fuqarolik va siyosiy huquqlar tug'risida xalqaro Pakt quyidagilarni o'z ichiga olgan.

- O'z xoxishiga ko'ra maslakka yoki dinga e'tiqod qilish;
- O'z maslaki yoki dininni o'zgartirish;
- Diniy rasm-rusm, toat-ibodat marosimlarini o'tkazish;
- Tushunchaga va dinga ega bo'lish;
- Ota-onalariga yoki qarovchilariga o'z tushunchalariga amal qilgan xolda, o'zlarining bolalarini diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalashni ta'minlash.

1991 yil 14 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Yangi Qonunni qabul qildi.

1998 yilda esa ushbu qonunning Yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonun 23 moddadan iborat.

Qonunning 3-moddasi "Vijdon erkinligi huquqi" deb nomlangan.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun xujjatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan, ushbu qonun va boshqa qonun xujjatlaridan iborat. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin. Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, dinnning davlatdan ajratilishi tamoyilini asosini ta'kidlash zarur. Bu haqida Konstitutsiyaning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan xamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

3. 1992 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir fuqaro uchun vijdon erkinligi huquqining kafolatlanishi tabiiy holdir. Yana bir muhim tomoni – keyingi yillarda davlat bilan diniy tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda salmoqli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Dinning jamiyatdagi o'rni tiklanmoqda. Diniy uyushma va tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishlariga imkoniyat yaratilmoqda. Qator tarixiy obidalar diniy tashkilotlar ixtiyoriga o'tkazildi, Yangi masjidlar ochilmoqda. Diniy tashkilotlarning xalqaro aloqalari kun sayin kengayib bormoqda.

Mustaqillik yillarida vijdon erkinligi prinsiplarini tiklash va unga og'ishmay amal qilish davr, kundalik hayot talabi va zaruriyatiga aylanib qoldi. 1991 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. 1998 yilda bu qonunning Yangi tahriri qabul qilinib, 15 may kuni matbuotda e'lon qilindi va shu kundan e'tiboran u kuchga kirdi.

Mazkur qonun 23 moddadan iborat. Uning 1-moddasida ushbu qonunning maqsadi nimalardan iborat ekanligi ochiq va ravshan bayon etilgan: «Ushbu qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'i nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat».

Qonunning 3-moddasi vijdon erkinligi huquqi haqida bo'lib, unda har bir fuqaro dinga munosabatini o'zi mustaqil aniqlashi, u har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega ekanligi va bu huquq esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan kafolatlanajagi ta'kidlandi.

4-moddada fuqarolarning dinga munosabatlaridan qat'i nazar, teng huquqliligi haqida so'z boradi. Rasmiy hujjatlarda fuqaroning dinga munosabati ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi ta'kidlanadi.

Vijdon erkinligi haqidagi qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasida din va diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi ko'rsatilgan. Bu degani davlat diniy masalalar bilan shug'ullanmaydi, diniy tashkilot va diniy boshqarma ishlariga aralashmaydi. Din va diniy tashkilotlar ham davlat ishlariga aralashmasligi lozim. Lekin diniy tashkilotlar jamoat ishlarida ishtirok etish huquqiga egalardir.

Shuningdek, mazkur moddada davlat turli diniy konfessiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlashi, konfessiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga, xususan, bir diniy konfessiyadagi dindorni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlarga, missionerlikka yo'l qo'yilmasligi ta'kidlangan.

Diniy tashkilotlarga O'zbekiston Respublikasida diniy xarakterga ega bo'lgan partiyalar tuzish, respublikadan tashqaridagi diniy partiyalarning bo'lim yoki filiallarini ochish man etiladi.

Dindan davlatga va Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg'otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo'hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalar tarqatishda, aholi o'rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko'maklashadigan, shuningdek boshqa g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning bunday faoliyatlari taqiqlanadi.

Talabalarga diniy ta'lim olish masalalariga munosabat haqida ham ma'lumot berishimiz kerak. Fuqarolar dinga bo'lgan munosabatlaridan qat'i nazar, ta'limning xilma-xil turlari va darajalarini egallashi mumkin. Qonunning 9-moddasida ko'rsatilishicha, diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylarni va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlarni tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqli. Diniy o'quv yurtlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli litsenziya olganidan keyin faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'ladi.

Oliy va o'rta diniy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun fuqarolar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuniga muvofiq umumiy majburiy o'rta ta'lim olganidan keyin qabul qilinadi.

Diniy ta'lim beruvchilar maxsus diniy ma'lumoti bor kishilar bo'lib, bolalarni o'qitish uchun diniy boshqarmaning yoki markazning ruxsatnomasiga ega bo'lishi

kerak. Xususiy diniy ta'lim berishga yo'l qo'yilmaydi. Bu qonun-qoidalarni buzganlar qonun oldida javobgardirlar.

Diniy tashkilotlar diniy ta'lim olish uchun fuqarolarni chet elga yuborishlar va chet el fuqarolarini ta'lim olish uchun qabul qilishlari mumkin.

Diniy tashkilot – bu ma'lum dinga ishonuvchilar va ularning jamoalarining uyushmasidir (masjid, cherkov, sinagoga, diniy o'quv yurtlari va h.k.). Uni tashkil etish uchun unga bir xil e'tiqodga ega bo'lgan kamida 100 kishi a'zo bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasining har qanday fuqarosi 18 yoshga to'lganidan keyin ma'lum diniy jamiyatga a'zo bo'lishi mumkin.

Diniy tashkilotlar o'z mulklariga ega bo'ladilar. Binolar, din bilan bog'liq buyumlar, ishlab chiqarish va xayriya ishlariga mo'ljallangan inshootlar, pul mablag'lari hamda diniy tashkilotlar faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa mol-mulk diniy tashkilotlarning mulki hisoblanadi. Diniy tashkilotlarga tushadigan moliyaviy va mulkiy xayriyalardan, shuningdek, fuqarolardan tushgan mablag'lardan davlat solig'i undirilmaydi.

Ibodot, diniy rasm-rusum va marosimlar o'tkazish mahalliy hokimiyat tomonidan taqiqlanmaydi. Qonunning 3-moddasida ko'rsatilishicha, dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanish mumkin.

Diniy tashkilotlar fuqarolarni ishga olishga haqlidirlar. Ular davlat, jamoat korxonalari va tashkilotlarining ishchi xizmatchilari bilan baravar soliq to'laydilar, ijtimoiy ta'minlanish va sug'urta qilish xizmatlaridan foydalanadilar. Umumiy asosda pensiya olish huquqiga egalar.

Qonunning oxirgi 23-moddasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunni buzgan kishilar qonun oldida javob berishlari ko'rsatilgan.

Talabalarning diqqatini Konstitutsiyada hurfikrlilik, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi masalalariga katta e'tibor berilganligiga qaratmog'imiz lozim. Unda dinning tarbiyaviy ahamiyatiga yanada ko'proq e'tibor berilishi kerakligi ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Uning hududida 15 ta diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladilar. Yuqoridagi qonunda keltirilganidek, ular Konstitutsiya oldida huquq va majburiyat yuzasidan tengdirlar. Konstitutsiyaning 12-moddasida ta'kidlanishicha, hech qanday mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilishi mumkin emas. Shunga ko'ra hech qanday konfessiya boshqalaridan ustun deb qaralishi yoki ularga o'z ta'sirini o'tkazishga intilishi mumkin emas.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida diniy e'tiqod erkinligiga qanday munosabat bildirilgan?
2. Diniy e'tiqod erkinligi haqida Konstitutsiyaning qaysi moddasida so'z yuritiladi?

3. «Diniy tashkilotlar» deganda nimalar nazarda tutiladi?
4. Diniy tashkilotlarga kimlar a'zo bo'la oladi?
5. Turli konfessiyalar orasida nizo chiqmasligi uchun davlat qanday tadbirlarni qo'llaydi?

10-MAVZU
DINIY EKSTRIMIZM VA FUNDAMENTALIZM
 REJA:

1. Diniy fundamentalizm va ekstremizm.
2. Islomdagi radikal diniy oqimlar va guruhlar.
3. Diniy ekstremistik tashkilotlar faoliyatiga qarshi kurash.

Tayanch so'z va iboralar: Ekstremizm, fundamentalizm, radikal diniy oqimlar, fanatizm, vahhobiylik, hizb at-tahrir, Al-Ixvon al-muslimun, missionerlik, prozelitizm, akidaparastlar, shariat, mazxab, diniy ekstrimizm, globallashuv, Fundamentalizm.

1. Mavzuning birinchi savolidagi asosiy masala fundamentalizm va ekstremizm bo'lganligi sababli, shu tuchunchalarning mazmunini talabalarga to'liq yoritib berish kerak. Fundamentalizm – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo'nalishidir. Diniy fundamentalizm – aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, *vahiy va mo'jizalarning* muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarni qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim I-jahon urushi arafasida xristianlikda diniy modernizm va liberalizmning o'sishiga norozilik tarzida amerika protestantlarining konservativroq qismi o'rtasida paydo bo'lgan va 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an'anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so'zma-so'z sharhlashga qat'iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so'z islomga nisbatan qo'llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo'nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g'oyasi – «sof islom» prinsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo'lini joriy etishdir.

Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Ekstremizm – (lot. extr o'ta, haddan tashqari ma'nolarini anglatadi) ijtimoiy siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlar, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra – diniy, dunyoviy, namoyon bo'lishiga ko'ra – hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bizga tarixdan ma'lumki, ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat va hududni tan olmagan. Dunyoviy ekstremizm siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ko'rinshilarda ifodalansa, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni katoliklar, protestantlar, pravoslavlar orasida ham uchratish mumkin.

Fanatizm o'z aqidasiining shak-shubhasiz to'g'riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e'tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug'ilishi vaqti bo'ldi.

O'rta Osiyodagi respublikalar o'z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg'onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko'proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o'zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo'lgan ma'naviy bo'shliqni to'ldirish ehtiyoji bo'ldi. Kommunistik mafkuraning ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lib, o'ziga xos mutaassibliigi va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho'ro hokimiyatidan keyin bu hududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug'dirdi.

2. Islomdagi radikal diniy oqimlar va guruhlarining faoliyati, ularning asl mohiyati va maqsadlarini yoritib, ularning vayronkor . tajovuzkor g'oyalarining jamiyatimizga zararini talabalar ongiga singdirishimiz zarur. Bunday guruhlarining maqsadi va ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar. Shunday guruh va oqimlarda batafsilroq to'xtalib o'tish maqsadga muvoffiqdir.

Vahhobiylik. Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining *al-Uyayna* degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibliigi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani *kufirda* yoki *shirkda* ayblashlari va unga qarshi *jihad* e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu *jihadni* amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vahhobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini *bid'atchilikda*, ya'ni dinga Yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi *jihad* olib borishga *fatvo* berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar-da, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulkklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

Shuningdek, vahhobiylik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat olib boradilar. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi.

Al-Ixvon al-muslimiyn. XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan Yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy

normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g'oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g'oyasini birinchi bo'lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg'oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo'lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislamizm g'oyalarini targ'ib qila boshladi. Al-Afg'oniyning g'oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (*al-Ixvon al-muslimun*) radikal shakllarida rivojlantirildi.

Al-Ixvon al-muslimun – 1928 yili Misrning Ismoilিয়া shahrida Misrlik shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilot. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg'oniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta'sirlanib, panislomizm g'oyasida *jihad*, *islomiy millatchilik*, *islomiy davlat* ta'limotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al-muslimun bu ta'limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur'on va shariatda ifodalangan qoidalarga to'liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» prinsiplari o'rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun o'z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma'rifatchilik bosqichi deb atasa bo'ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo'llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko'plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida bo'linish yuz berib, ular 3 yo'nalishga ajralib ketdi:

- 1) «mo'tadillar» – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;
- 2) «islom demokratalari» – «islom sotsializmi» ta'limoti tarafdorlari;
- 3) «at-Takfir va-l-hijra», «al-Jihad», «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo'llovchi tashkilotlar.

Hizb at-tahrir. Hizb at-tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug'ilib o'sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta'lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari miqyosida, keyin islom dunyosi miqyosida va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da'vosi – Mustafa Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g'ayriqonuniy chetlatilgani bo'ldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo'lib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bunday asosiy yo'l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta'lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta'limotini o'rgatish yo'lida madaniy-ma'rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

- G'oyaviy-fikriy kurash;
- jamiyatda g'oyaviy inqilobni amalga oshirish;
- hokimiyatga faqatgina umma-jamoaning to'liq roziligidan so'ng kelish.

Hizb at-tahrir tarafdorlari ko'pgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o'z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizb at-tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidir. Har bir guruh (*halqa*) alohida-alohida bo'lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o'quv ishiga *mushrif* rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar – *amir* bo'lib, u *mushrifga* mashg'ulotlarni o'tkazishda bevosita yordam ko'rsatadi. *Mushrif* bir vaqtning o'zida bir necha guruhda ta'lim ishlarini olib borishi mumkin. O'qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg'ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo'layotgan voqealarni diqqat bilan o'rganadilar.

O'zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang'ich bo'linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o'z partiyalari haqidagi ma'lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o'z *mushrifi* buyurgan vazifalarni so'zsiz bajarishga Qur'on bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari o'z tarafdorlarini ko'proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba yoshlar orasidan qidiradilar.

Yetarli ta'lim olgan shaxslar keyinchalik o'zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta'limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari bo'yicha o'qitiladi, «al-Va'y» jurnalidagi ma'lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya – kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizb at-tahrir tushunchalari», «Islomiy da'vatni yoyish vazifalari va sifatleri» kabi kitoblari o'qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko'zlab, Qur'on oyatlari va hadislarini noto'g'ri talqin qilib, dindorlar ongiga ta'sir qilish mo'ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiyashtirilgan islomga targ'ib etib, ularni fuqaroviy bo'ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniyar Hizb at-tahrirni ohod hadislariga, qabr azobiga, sirot ko'prigiga ishonmasliklari uchun ularni Ahl as-sunna va-l-jamo'a safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

Akromiyalar. Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to'xtatilgan noan'anaviy, ham islom ta'limotiga, ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo'lgan guruh «Akromiyalar»dir.

Akromiyalar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi – 1963 yilda tug'ilgan Yo'ldoshev Akrom nomi bilan bog'liq. A. Yo'ldoshev Hizb at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g'oyalari asosida 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» risolasini yozgan. SHu sababdan akromiyalarni «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g'arazli maqsadlarni ko'zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o'laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda, so'ng Farg'ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo'ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To'rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo'lmog'i lozim edi.

Bu guruh a'zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo'lib, ular rasmiy ishxonalardan bo'shab, jamoa ma'qullagan mehnat faoliyati bilan shug'ullanganlar. Zarurat tug'ilganda «birodarlari»ga «jamoa banki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a'zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o'rtasida amalga oshirilgan.

3. O'zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo'l bilan musulmonlarni islohotchi davlatga ishonchini yo'qotishga urinishda o'zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e'tiqod erkinligiga asoslangan ko'p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro'sizlantirishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch bag'ishlagan. Umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga o'zi kabi odamlarga munosabatining Yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan».

Keyingi yillarda milliy va diniy qadriyatlarning tiklanishiga katta e'tibor berilishi bu narsa hukumatimizning ustuvor siyosatga aylandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy tashkilotlar soni o'sdi. 1990 yilda Respublikada 119ta diniy tashkilot, 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa 2005 yilga kelib, 2186 ta diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatgan. Shuningdek 1987 ta masjid, 163 xristian cherkovi, 8 ta yaxudiy sinagogilari, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar erkin ibodat qilishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan⁴⁰.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси диний ташкилотларнинг рўйхатга олиниши ҳақида маълумотнома. 2005 йил 14 январь

Bugungi kunda ko'plab diniy bayramlar ommaviy nishonlanmoqda, televidenie va matbuot tomonidan xalq ehtiyojida bo'lgan diniy masalalar tez-tez yoritila boshlandi. Fuqarolar o'rtasida diniy ilm va an'analarga o'rganish qiziqish kuchaydi. Biroq bundan foydalangan ba'zi shaxslar o'z manfaatlari yo'lida chet ellik yurtimizga suqulib kirmoqchi bo'lgan ekstremistik oqimlar «da'vatchi»lariga aylandilar. Ular xorijliklar tomonidan istaganlaricha mablag' va diniy adabiyotlar bilan ta'minlandilar. Bu harakatlar tezda o'z natijasini berdi. Farg'ona vodiysi va Toshkent shahrida avj olgan «vahhobiychilik» harakati, jumhuriyatimizning deyarli barcha shahar va qishloqlariga etib borishga ulgurgan «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi guruhlarning keyingi yillarda Vatanimizning turli joylarida uyushtirgan fitna-fasod harakatlari shundan darak beradi.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentiz aytganidek Imom Buxoriylar, Naqshbandiylar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Fundamentalizm ilk bor qaysi din doirasida paydo bo'ldi?
2. Diniy ekstremizm deganda nimani tushunasiz?
3. Islomda qanday radikal oqim va guruhlar mavjud?
4. Ekstremistik guruhlarning maqsadlari nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyo mintaqasida qaysi ekstremistik guruhlar o'z noqonuniy faoliyatini olib boradilar?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.; «O'zbekiston», 2003.
2. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: 2000, 18-bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Qur'onu Karim. Ma'nolar tarjiması./ tarj. Alouddin Mansur. – T., 2004.
5. Abu Reyxan Beruniy. Indiya. Izbrannie soch. II – tom. T., 1963.
6. Dinshunoslik asoslari. T., 1995.
7. Vvedenie v buddizm. Sankt-Peterburg., 1999.
8. M. Boys. Zoroastriysi. Verovanie i obichai. M., 1988.
9. Kochetkov A.N. Buddizm. M. 1976.
10. Istoriya drevnego mira. Pod. red. Dyakonova I.M. M. 1983g. T. 3.
11. Buddiyskiy kultoviy sentr Kara-Tepe v starom Termeze. M., 1972.
12. Nakorchevskiy A. Sinto. Sank-Peterburg., 2002.
13. A.Nizomov.Sufizm v kontekste muzikalnoy kulturi narodov Sredney Azii. Dushanbe., 2002.
14. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie. M., 1996.

15. O'rta Osiyo xalqlari hurfikrliligi tarixidan. T.: Fan, 1990.
16. Svensitskaya I.S. Rannee xristianstvo: stranitsi istorii. M., 1988.
17. Donini A. U istokov xristianstva. M., 1989.
18. Vvedenie v kulturologiyu. Ot. Red. E.V. Popov. M., 1996.
19. Vasilev L.S. Istoriya religiy Vostoka. M., 1983.
20. Raxmonov N. Ruhiyatdagi nur murodi. T., 2004.
21. Hadis va hayot. T.: SHarq, 2000-2005.
22. Nizomiddinov N.G'. Janubi-sharqiy Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari va islom. T., 2006.
23. Raximov S. Musaqulov A. Inson huquqi – oliy qadriyat. T., 2006.
24. Murtozayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. – T.: Universitet, 2007.
25. Islom ma'rifati. T., 2005.
26. Diniy bag'rikenglik va mutaassiblik (yuz savolga – yuz javob). T., 2007.
27. Yo'ldoshxo'jaev T. Dinshunoslik. T., 2000.
28. Dinshunoslik. Darslik. T., 2004.
29. Narbekov A.V. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma. T., 2008.
30. Komilov N., Jo'raev K. Davlat, jamiyat va din. O'quv qo'llanma. T., 2006.
31. E.Y. Usupov Islomiy qadriyatlar va ekstremizm. "Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti" nashriyoti, 1999.
32. Abdullajonov O. Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi. T.: "Akademiya", 2000.
33. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. To'plam. T., 1998.
34. Alimuxamedova N. Zardusht va "Avesto". // Hayot va qonun. Yuridik jurnal. №11-12. 2000.

MUNDARIJA

KIRISH	3
DINSHUNOSLIK FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.	4
DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI.	9
MILLIY DINLAR.	14
ZARDUSHTIYLIK DINI.	26
BUDDAVIYLIK DINI.	33
XRISTIANLIK DINI.	43
ISLOM DINI.	64
ISLOMNING ASOSIY MANBALARI.	80
VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR.	86
DINIY EKSTREMIZM VA FUNDAMENTALIZM.	91
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	97

Odil Zaripov

«Dinshunoslik» fanidan seminar mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy
qo'llanma

Muharrir: A. G'afurov

TIMI BF – 2016 yil